

Axmadjanov Donyor

TARIX O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

D.B.AXMADJANOV

TARIX O'QITISH METODIKASI

(O'quv qo'llanma)

CHIRCHIQ - 2024

UO'K 93/94

KBK 63.3

A-16

D.B. AXMADJANOV / TARIX O'QITISH METODIKASI (O'quv qo'llanma) / – CHIRCHIQ,
2024, "Ilm nurli kitob", 2024. 188-b.

Axmadjanov Donyor Baxtiyor o'g'li

ANNOTATSIYA

Mazkur qo'llanma tarix o'qitish metodikasi samaradorligini oshirish muammolari amaliy jihatdan umumlashtirilgan va O'zbekiston Respublikasining ilg'or maktablari hamda oliy o'quv yurtlari tarix o'qituvchilari ish tajribalarida sinab ko'rilgan eksperimental, ilmiy metodik va pedagogik ishlari natijasidir. O'quv qo'llanma pedagogik yo'nalishdagi mutaxassis tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari tarix ta'limi (60111100-Tarix) yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari, shuningdek, ushbu sohaga qiziquvchi barcha o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

S.Toshtemirova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

O.Jaynarov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

UO'K 93/94


KBK 63.3

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentyabrdagi 438-soni buyrug'iga asosan nashriga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-8554-5-8

© «Ilm nurli kitob»nashriyoti, Toshkent,

2023 y © D.B.AXMADJANOV



KIRISH

O'zbekiston Respublikasining istiqlol yo'li ajdodlarimizning tarixiy an'analari va ma'naviy merosiga suyangan holda tanlab olingan. Zotan, mustaqillik yo'li O'zbekiston xalqlarining tarixiy an'analari va ma'naviy boylli klarini qayta tiklovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo'ldir. Bu esa tarix o'qitish milliy asosga ko'rishni, xalqimizning mehnatsevarlik, do'stlik, mehmondo'stlik, ma'rifatparvarlik kabi an'analari, imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi olıyanob fazilatlarini chiqur o'rganishni, ularni asrab-avaylab, yoshlar qalbiga, qon-qoniga singdirish, o'zini anglashga ko'maklashishi, respublikamiz istiqlolli uchun astoydil xizmat qiladigan faollarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. O'zbekiston tarixini o'rganish o'quvchi bu tarixiy an'analalar va olıyanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan-avlodga o'tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelganligi, ularni bundan keyin ham asrab avaylab davom ettirish, ajdodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo'lishi o'zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi. "Tarix o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida tarix o'qitish metodlari sistemasi, metodik usul va vositalarni o'qitishning maqsad va vazifalari, o'qitishning og'zaki metodi, uning o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishdagi yetakchi roli, bosma matnlar bilan ishlash metodi, ko'rsatmali metod, tarix o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, tarix o'qitishning samaradorligiga qaratilgan, o'quvchining bilish va mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, tarix darsiga qo'yiladigan zamonaliv talablar, dars turlari, uni tuzilishi, tarix bo'yicha sinfdan tashqari ishlari, ularni tashkil etishning shakl va metodlari, tarix o'qitish samaradorligini oshirish kabi muhim masalalar yoritiladi.

O'zbekiston tarixini o'rganish o'quvchilarni ajdodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'nnaviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan xissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini xurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanishga, milliy iftixon ruhini singdirishga yordam beradi. Shunday qilib, O'zbekiston tarixi o'quvchi milliy ongini o'stirishda, o'zligini anglashda, ularning siyosiy madaniyatini oshirishda, yangi O'zbekistonning ijtimoiy faol va ma'nnaviy barkamol kishilari bo'lib yetishishida, ularni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egadir.

1-Mavzu: Tarix o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari

Reja:

- 1.Tarix o'qitish metodikasining predmeti va uning vazifalari
- 2.Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar
- 3.Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Tayanch so'z va iboralar: metodika, tarix o'qitish metodikasining ilmiy tahlil usullari, tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari, kuzatish metodi, tajriba metodi.

Bugun O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar asosida ilm-fanning barcha tarmoqlari qatori tarix va uni o'rganish metodikasi ham takomillashib, uni o'rganish ehtiyoji ortib bormoqda. Bu o'z o'zidan tarix va pedagogika sohasini o'zarboq bog'liqlikda tadqiq etishni taqazo etadi.

Metodika - pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanni o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Fanni o'qitish metodikasi - ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnnini belgilaydi, uning vazifalari, o'qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o'z ichiga oladi.

Tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, o'qitish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishga yo'naltirilib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi.

Tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad: tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan

iborat. Tarix o'qitish metodikasi – tarix ta'lismida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnnini belgilaydi, uning vazifalari, o'qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o'z ichiga oladi.

Tarix o'qitish metodikasi o'rganadigan muammolar G.Fuzailova tomonidan muvaffaqiyatlari yoritilgan. Mavzuning mazmun va mohiyatini yorituvchi aksariyat mavzularga jadval, sxemalarni kiritgan. Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega.

Ta'lismida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'r ganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlarini bor. Ularni bilib olish va ta'lum-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalananish ta'lismida tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Tarix o'qitish metodikasi tadqiq etadigan, o'quvchilarining puxta va mukammal bilim olishi va amalda suyanishi kerak bo'lgan tarix o'qitishning umumiyligi qonuniyatlarini nimalardan iborat va ular ta'lum jarayonida qanday namoyon bo'lishini o'rganadi.

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: ta'lum tizimi maqsadi, ta'lum-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatlari amalgaga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarining tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'r ganiladigan mavzu maqsadi, ta'lum-tarbiya vazifalarini, mazmuniga mos keladigan ta'lum shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir.

Shuningdek, o'qitishni natijalari o'qituvchining o'qitishdan ko'zlagan maqsadi, uning ta'lum-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va

usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga uzliksiz ta'sir ko'rsatib boradi.

Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi. Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarining aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi. Tarix kursining mazmuni deganda, tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiali, uning mazmuni, o'quvchilarining tarixiy materiallarni o'zlashtirishi natijasida olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalarini tizimi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining shakllarini egallashni ko'zda tutadi.

Tarix o'qitishni tashkil qilish deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarini uni o'r ganishni tashkil etish, ularning o'r ganish faoliyatini o'qituvchi tomonidan boshqarilishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlari ishga solish, ularni ijodiy bilishga yo'naltiradigan topshiriqlar tizimini hamda ta'lumning turli xil ko'rinishlari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi. O'qitishning natijalari deganda, tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatlari ravishda amalgaga oshirilishi - o'quvchilarining tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarni bilishlari va bilimlardan foydalana olish malakalarini puxta o'zlashtirishlari, Shu asosda o'quvchilarining tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiyligi qobiliyatlarini o'stirish ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, ta'lum tizimida tarix ta'lumi jarayonining yuqorida umumiyligi qonuniyatlarini quyidagi ob'ektiv va qat'iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo'ladi: o'qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi;

maqsad va mazmuniga mos keladigan o'qitish metodi va usullari tanlanadi; o'qitishning samarasi esa o'qitishda erishilgan ijobjiy natijalar bilan tekshiriladi, ya'ni tarixiy bilimlarning sifati, o'quvchilarning kamol topish darajasi bilan o'lchanadi.

Ta'limga muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, tarix o'qitish oldida to'rgan umumiy maqsad bilan ta'lim-tarbiya vazifalarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi.

Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'rni, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursni o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'limi, bo'limdagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham umumiy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki, har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar tizimida tutgan o'rni bor, bu darsda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi hal etiladi.

Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi muttasil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak.

Ta'limga kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatlari ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanligi lozim. Bu maqsadlar tarix ta'limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta'limning boshqa shartsharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikma va malakalari; dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi.

Ta'limga ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi qanchalik chuqur anglab

olgan bo'lsa, tarix o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, tarix DTS asosida o'quvchilarga o'rgatiladigan tarix ta'limidan ko'zda tutilgan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o'quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko'nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o'quvchilarning mustaqil ishslash qobiliyatini o'stiradi.

Tarix o'qitishning samarali bo'lishida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o'ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatining faol bo'lishligi juda ko'p omillarga, avvalo, mashg'ulot mazmunining g'oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo'lishiga, o'qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o'rganib olishning muhimligini o'quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o'rganishga ishtiyoq uyg'otishga bog'liqdir. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarni mashg'ulot mazmunini o'zlashtirib borishi ustidan qilgan nazorati, o'quvchilar o'rganishini boshqara bilishi, Shuningdek, ularning yangi bilimlarini o'zlashtirish uchun o'zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya'ni o'zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Tarix fani mazmunan juda boy va xilma-xildir. Tarix fanini o'qitish va o'quvchilarning o'rganish faoliyati orqali ularning ongiga, tarbiyasi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi, ularning kamol topishiga yordam beradi. Demak, mashg'ulotning mazmuni ta'lim tizimida tarix o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning ham asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o'qituvchi bilish faoliyatini faollashtirishga ijobji ta'sir etuvchi va umuman o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi metodik usul va vositalarni tanlashda ham o'rganilayotgan tarixiy materialning mazmunini nazarda tutmog'i lozim. Tarix o'qitish metodikasi jarayonining tarkibiy qismlari

o'rtasidagi qat'iy takrorlanadigan o'zaro aloqa va bog'lanishlarda namoyon bo'ladijan qonuniyatlarni ochib beradi va tarix o'qitish jarayonini takomillashtirishda ulardan foydalanish yo'l-yo'rqlarini ham ko'rsatib beradi.

Demak, tarix o'qitish metodikasi o'qituvchilarni ta'lif tizimida tarix o'qitishning ilmiy nazariy asoslari bilan qurollantiradi. Shuningdek, metodika ularni tarix o'qitish jarayonini o'rganishning tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi. Tarix o'qitish jarayoni ikki yo'l bilan o'rganiladi. Birinchisi - kuzatish metodidir. Bu metoddan foydalanganda, turli xildagi o'quv-metodik adabiyotlar, o'quvchilarning yozma ishlari, ma'ruzalari, ularning javoblari, o'qitishga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o'quvchilarning bilimi va malakalari o'rganiladi. Shunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, tadqiqotchi tarix o'qitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi, uni tabiiy ravishda kuzatadi va o'rganadi. Ikkinchisi - tajriba metodi.

O'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi xohlaganicha uyuştiradi. Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy tajribaga o'xshab ketadi. Biroq, o'qituvchi qilgan ijodiy izlanishlarning ilmiy tajribadan farqi, avvalo shundaki o'qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xulosalari esa o'z faoliyatining natijasi bo'ladi. Ilmiy tajribada ko'pchilik o'qituvchilarning ishi uchun umumiyo bo'lgan qonuniyatlar tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi. Shuning uchun ham, tarix o'qitish jarayonini tadqiq etishdagi kuzatish metodini eksperimental tadqiqotdan farq qila bilish kerak.

Tarix o'qitish metodikasi tarix fani bilan uzviy bog'liqidir. Tarix o'qitish o'quvchilarga tarixiy voqelikni bildirishdan iborat. Shu jihatdan o'quvchilarning tarixiy voqelikni bilish yo'llari tarixiy tadqiqotga o'xshab ketadi.

O'quvchilar tarixni o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilib ko'rilib va tahlil qilib chiqilgan faktlar hamda ilmiy xulosalarga asoslanishi bilan birga, ba'zan faktlarni yanada aniqlash, tarixiy faktlardan

umumiy xulosalar chiqarish, umumiy xulosalardan yangi faktlarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, o'quvchilarning tarixni o'rganishi ilmiy tekshirishdan farq qiladi.

O'qitish jarayonida o'quvchilar tarix fani va uning ba'zi tadqiqot metodlarini bilib oladilar. Tarix fani kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonini o'rganadi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish o'tmish va hozirgi zammonni yaxshiroq tushunib olishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi. Demak, tarix fani va tarix o'qitish metodikasi o'zining alohida o'rganish ob'ekti, vazifasi hamda tadqiqot metodiga ega hisoblanadi. Metodika o'qituvchilarni ta'lif tizimida tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarni ochib berish bilan birga o'qitishning samaradorligini oshira borish maqsadida tarix o'qitish jarayonini tadqiq etish metodlari bilan ham qurollantiradi. Metodika tarix fani asoslarini ochib berish maqsadida tarixiy manbalar, faktlar va umumiy xulosalardan foydalanadi.

O'qitish metodikasi tarix fanining ba'zi bir tekshirish metodlaridan foydalanar ekan, o'quvchilarning bilimlarini yaxshiroq o'zlashtirishlarini va ularni tarix fanining ba'zi tadqiqot metodlari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

O'quvchilarning yangi faktlarni tahlil etish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish paytida o'rgangan bilimlari juda ham mustahkam va ishonarli bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadi, bu ularni tadqiqot olib borishning dastlabki usullari bilan tanishtirishga yordam beradi. Shunday qilib, o'z predmeti, vazifalari va tadqiq etish metodlariga ega bo'lgan tarix o'qitish metodikasini tarix fanlari qatoriga kiritib bo'lmaydi. Tarix o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman psixik faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog'liqidir.

Tarix o'qitish jarayonida ustoz va shogirdlar o'rtasida ma'naviy yaqinlik,

sog'lom va estetik kayfiyat vujudga keltirishi o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi.

Psixologiya fani o'quvchilardagi psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, metodika esa o'quvchilarning psixik faoliyatini ularning tarixiy materialni o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarinigina tadqiq qiladi. Shuningdek, uning o'quvchilardagi psixik faoliyatni tadqiq etish metodlaridan ham qisman foydalanadi.

Psixologiya psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, metodika esa tarix o'qitishning mazmuni va metodik usullar bilan psixik faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatlari bog'lanishlarni o'rganadi. Demak, har ikkala predmetning o'rganadigan ob'ektlari qisman o'xshash bo'lsa-da, vazifalari boshqa-boshqadir.

Shunday qilib, tarix o'qitish metodikasi o'qitishda yaxshi natijalarga erishish, o'quvchilarning tarixiy materialni puxta o'zlashtirishi bilan faoliyatni o'rtasidagi qonuniyatlari bog'lanishlarni ham o'rganadi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda psixologiya faniga suyanadi, o'quvchilarning psixik faoliyatini o'rganishda psixologik tekshirish metodlaridan foydalanish yo'llarni ham ko'rsatib beradi.

Metodika ta'lim-tarbiya haqidagi pedagogika fani, uning tarkibiy qismi bo'lgan didaktika bilan chambarchas bog'langan, uning mustaqil bir tarmog'idir. Metodika pedagogik jihatdan yaxshi natijalarga erishish maqsadini ham, tarix o'qitish jarayonining pedagogik jarayon o'qitishda yaxshi natijalarga erishishini ham ko'zda tutadi. O'qitish jarayoning o'rgatish metodlari pedagogik metodlar bo'lib, o'qitish natijalarining ko'rsatkichlari ham pedagogik ko'rsatkichlardir. Shunday qilib, tarix o'qitish metodikasi pedagogika fanining mustaqil bir tarmog'i bo'lib, u o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega.

Metodika fanining nazariy qismini egallash tarix o'qitish jarayonining

umumiy qonuniyatlarini yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va kamol topdira borish ishini yanada takomillashtirish maqsadida foydalanishga yordam beradi. Tarix ta'limining mazmuni va sinf o'quvchilarining umumiy saviyasiga qarab bilishning umumiy qonuniyatlari turlicha namoyon bo'ladi.

Tarix o'qitish metodikasi o'rganadigan eng muhim qonuniyatlardan biri o'qitish jarayonining rivojlanish qonuniyatlaridir. Bu rivojlanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi, bilimi, ko'nikma, malakalari hamda tafakkurining o'sib borishida namoyon bo'ladi, ayni bir vaqtida o'quvchilarning har tomonlama yanada kamol topishini ta'minlaydi.

Tarixning har bir kursi, uning bo'limi va har bir mavzusi o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi va kamol topishida muhim bir bosqich bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, o'qituvchi tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim va malakalarni egallashi, kamol topishi sohasida bosib o'tilgan bosqichlarni, bunday keyin bosib o'tiladigan bosqichlarni oldindan ko'ra bilishi lozim.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

- 1.Tarix o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalarini ayting.
- 2.Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlarini ayting.
- 3.Tarix o'qitish metodikasiningqaysi boshqa fanlar bilan aloqador ?
4. Tarix o'qitish metodikasining ilmiy tahlil usullarini ayting.

2-Mavzu: Davlat ta'lim standartlari, dastur va darsliklarning tuzilishi va mazmuni

Reja:

- 1. Tarix bo'yicha DTS tuzilishi va mazmuni.**
- 2. Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimlari uchun yaratilgan o'quv dasturlari tuzilishi, mazmuni.**
- 3. O'rta talim tizimi va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarixiy bilimlar strukturasi**

Tayanch so'z va iboralar: Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, ta'lim tizimi, tarixiy bilimlar, milliy istiqlol g'oyasi, ta'lim mazmuni

Ta'lim taraqqiyotining barcha jabhalarida ko'zlangan bosh maqsad o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini milliy istiqlol g'oyalari, talablari asosida tashkil etish; jamiyatimiz qadam qo'ygan XXI asr ta'limini taraqqiyot, ma'naviy-madaniy qarashlar ruhida bo'lishini, eng muhim, jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlashdir. Shu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida bajarilgan dastlabki tashkiliy tadbirlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Avvalambor, bu ikki Qonunni ta'lim muassasalari amaliyotiga tadbiq qilish maqsadida alohida istiqbol dasturi ishlab chiqilib, Vazirlik xay'ati majlisida tasdiqlandi. Bu hujjatlarning maqsad va mohiyati barcha vositalar orqali ta'lim muassasalarida, ota-onalar, aholi o'rtasida keng tushuntirildi.

Ta'limga oid me'yoriy: konsepsiylar, davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejalarini va dasturlari, Nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlar yuqoridaq ikki Qonun moddalariga muvofiqlashtirildi. Respublikada uzlusiz ta'lim tizimi uzil-kesil shakllantirildi. "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimiz

14

salohiyatining beqiyos rivojlanishi, mustql Respublikamizning jahonga keng qamrov bilan chiqishi uchun ulkan omildir. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida hayotimizga samarali ta'sir etuvchi jabhalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish vazifalari ham ustuvor soha sifatida ko'rib chiqilganligi bejiz emas.

Birinchi president Islom Karimov mazkur sessiyadagi nutqida bu masalaga favqulodda katta ahamiyat berib, ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuq va kamchilikdarni tahlil etar ekan, tizimda yangilikka intilish bo'lmasa, taraqqiyot ham bo'lmasligini ta'kidladi. Bugun zamon talabi, ertaga bajarilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish zarurligini taqozo etayotganini ko'rsatdi.

Ma'lumki, sohaning asosiy bo'g'ini uzlusiz ta'limdan iborat. Birinchi prezidentimiz uzlusiz ta'limni tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo'lishi hamda uning yuksak ma'naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta'kidlar ekan, davlat ta'lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e'tiborini qaratdi.

Xo'sh, ta'limda davlat standarti nima?

Ta'limni standartlashtirish insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuv maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisda aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba'zan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi mumkin.

Shuning uchun ham iqtisodiy ahvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarining fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bu holat ta'lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi. Standart — ta'limda

yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o'quvchini haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga riosa qilish, ya'ni u o'quvchi yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo'lisi kerak. Bunda, albatta, ta'lim oluvchining qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir.

Standartlarni o'quv jarayoniga tadbiq etishdan oldin o'ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi. Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarning minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir.

Tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoxud ma'naviy sifatlarning eng quiyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat — davlat ta'lim standarti hisoblanadi.

Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o'sha ko'rsatkichlarni egallay olmagan bola yoxud yoshlarda muayyan miqdordagi bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlarni shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo'lmaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, davlat ta'lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtida, ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'nga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan o'quvchiga singdirishi lozim bo'lgan sifatlarning jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab

ko'rsatish mumkin. Bunday standartlar umumiyl o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari boshlang'ich ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladi. 9-sinfni bitiruvchi har bir o'quvchi davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga erishgan bo'lisi shart. Ta'lim standartlari joriy qilinsa, davlat buyurtmachi sifatida ta'lim muassasalari oldiga vazifa qo'yadi.

Mazkur muassasalar esa ana shu vazifalarni yaxshiroq uddalash uchun o'quvchilarga qaysi bosqichda qancha bilim, ko'nikma, malaka yoki ma'naviy sifatlar singdirish lozimligini aniq belgilab olgan holda ish ko'radi.

Shu tariqa ta'lim-tarbiya jarayoni tavakkalchilikdan, ko'r-ko'rona faoliyat ko'rsatishdan qutuladi, ilmiy asoslangan me'yoriy talablar asosida faoliyat ko'rsatadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga DTSni joriy etish talablari rivojlangan G'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta'limni standartlashtirish keng ko'landa amalga oshirilayotgani yo'q. Chunonchi, mazkur yumushga birinchi bo'lib qo'l urgan Fransiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, AQSHda esa DTS yaratishga endigina kirishilmoqda.

Yaponiya va Germaniya ta'lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi.

O'zbekistonda ta'lim standartlari masalasiga davlat miyosida yondashildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vagt izfaniyshlar olib borildi, tajribaga

sinovlar amalga oshirildi.

Shuni aytish kerakki, davlat ta'lif standartlari atamasi XX asrning 70-yillarida tug'ilgan va endigina amalga oshirila boshlagan bo'lsa-da, aslida u bugun paydo bo'lgan yangilik emas. Negaki, ta'lif-tarbiya tushunchasi oldiga muayyan talablar qo'yila boshlagan zamonlardan buyon shunday me'yorlar mavjud. Faqat qadimda ular standart deb atalmagan. Lekin, mohiyat e'tibori bilan har qanday jamiyat tarbiya muassasalarini davlatga qarashli bo'limgan zamonlarda ham o'z talablari tizimiga ega bo'lgan. Chunki, ta'lif-tarbiya muassasasini bitiruvchisi muayyan jamiyatda yashashi, faoliyat ko'rsatishi lozim. Binobarin, u o'sha jamiyat talablari darajasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi shart hisoblangan. Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma'lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda asosan ta'lif-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham mustqil davlatimiz va uning rahbariyati ana shu muassasalar faoliyatini imkon qadar zamon talablari darajasida bo'lishiga e'tiborini qaratmoqda. DTS barkamol shaxsnı shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogika faoliyatidagi samaradorlikni nazorat qilish vositasidir. Hozir yaratilayotgan barcha didaktik vositalarning ana shu standartlarga muvofiq bo'lishiga katta e'tibor berilmoxda.

Tarix bo'yicha standartlar strukturasi va mazmuni o'rta umumta'lif, o'rta ta'lif va o'rta maxsus ta'lif tizimlari uchun yaratilgan o'quv dasturlari tuzilishi, mazmuni o'rta umumta'lif o'rta ta'lif va o'rta maxsus ta'lif tizimlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan darsliklarimiz tili ravon, sodda, ixcham, o'quvchi hayoti, faoliyatiga yaqin matnlardan tashkil topgandagina, u bolalarning sevimli kitobi bo'ladi, o'quvchilar mustqil holda o'rganishi mumkin bo'lgan «ikkinchı o'qituvchi» vazifasini bajaradi, to'la ma'nodagi bilim manbaiga aylanadi. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, didaktikaning semantik jihatlarini aniqlash kam

o'rganiqan sohalarga kiradi.

Hanuzgacha tushunish muammosi (mohiyati) olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi, didaktlar semantik jihatdan murakkab matnlar va g'oyalarni bayon qilish usullari ustida kam bosh qotirmoqdalar. Ilmiy konsepsiyalar murakkablashib, chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda semantik muammolar o'quv materiallarini bayon qilish o'quvchilarni fan rivojining yangi davrini tashkil qiluvchi nazariyaga ertaroq olib kirish, ta'limda dalillar bilan nazariya munosabatlarini hal qilishga o'tish muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham tezroq o'z yechimini topishi kerak, yana bir muammo ustida to'xtalishni lozim topdik. Gap shundaki, biz ko'pincha «ta'lif mazmuni» bilan «o'quv fani mazmuni» tushunchalarini bir xil deb qaraymiz.

Aslida unday emas, oldingi tushuncha kengroq, ya'ni o'quv fani mazmuni faqat shu fanga oid bilimlarni — tushuncha, hukm, xulosalarni o'z ichiga oladi. Ta'lif mazmuni esa bundan tashqari, ilmiy bilish metodlari, usullari va amallari, ya'ni o'quvchilarda mustqil bilish malakalarini hosil qiluvchi metodologik bilimlarni (ta'rif, isbot, tahlil, sintez, induktsiya, deduktsiya, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalarni) ham o'z ichiga oladi. Bu borada ham darsliklarimizda anchagina kamchiliklar mavjud. O'quvchilarda bilim olishga intilish va bilim olishga ehtiyoj bo'lishi, o'qish maqsadlari ichki zaruratga aylanishi kerak. O'quvchi real hayotga kirib borishi, unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga, ilmiy bilish metodlariga ega bo'lishi kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim.

Chunki, ochiq jamiyatning asosiy belgisi — bu dunyoni anglab yetish va unda o'zining munosib o'rnnini topishi uchun erkin izlanishdir. O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqr o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog'lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvo'rni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik prinsip — bu ta'lidiagi faollik.

Faollik mezonlari onglilik prinsipi bilan bevosita aloqador. Chunki, faollik bor joyda onglilik bo'ladi. Bunday tizimda o'quvchi ham, o'qituvchi ham ta'lif-tarbiya jarayoniga birgalikda mas'uldirlar.

Ular birgalikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyatini, individual ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat «baholovchi» emas, balki yangi bilimlar yetkazuvchi manbaga aylanadi. Jahan pedagogik leksikasi qatoridan allaqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o'rinni oлган.

Bu tushuncha «yangilik», «isloh» tushunchalarini anglatadi. Keng ma'noda qaraganda ta'lif tizimidagi har qanday o'zgarish — bu pedagogik innovatsiya. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llanan edi, ta'lif tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan ishlatalidigan bo'ldi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. Hozirgi davrga kelib pedagogik innovatika fani shakllandi. Pedagogik innovatika — pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'lifot sifatida qaraladi. Bu ta'lifot uch yo`nalishni o'z ichiga oladi.

Birinchisi - pedagogik neologiya (yunoncha «neo» — «yangi» va «logos» — «ta'lif», ya'ni yangilik xaqidagi ta'lifot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi, umumlashtiriladi. Ta'lif vositalari o'quvchi ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o'ziga xosliklarini to'liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ammo, uzoq yillar mobaynida biz ana shu haqiqatga amal qilmagan holda dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishga majbur bo'ldik.

Hozirda yaratilayotgan o'quv-metodik vositalarda ayni shu jihatlar hisobga olinmoqda. Lekin, ochiq tan olish kerakki, bu oson kechayotgani yo'q. Chunki pedagogikamiz o'nlab yillar mobaynida milliy ildizlardan juda yiroqda edi. Sho'ro zamonining o'sha eski qoliplaridan hamon to'la qutula oqanimizcha yo'q. Biz bu haqida yuqorida batafsilroq to'xtalib o'tdik. Shuning uchun ham dastur va darsliklar yangicha fikrlay oladigan, milliy didaktikamiz

xususiyatlarini biladigan kishilar tomonidan yaratilishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Darslik yozishga talab me'yorlari ishlandi. Har qanday dastur va darslik bevosita Vazirlik qoshida tashkil etilgan maxsus ekspert guruhi tomonidan ko'rib chiqilgandan keyingina nashrqa tavsiya etiladi. Har bir o'quv fanidan o'quv-metodik majmualar yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda, ya'ni muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lif konsepsiysi, standarti, dasturi, darsligi, metodik qo'llanmasi to'liq yaratilishi lozim. Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o'ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to'liq hisobga olishga erisha olinmayotganida deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o'quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan.

Xolbuki, o'quvchini o'qitish kerak emas, uni o'zi o'qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'limda yutuqga erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli harakterga ega bo'lishi, o'quvchilarni o'ylanishga, izlanishga, sinab ko'rishga da'vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim. Ko'pchilikka ma'lumki, Birinchi prezident Islom Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga XIV sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» mavzusidagi ma'rurasida ta'limda davlat standartlarini sinovdan o'tkazish va joriy etish bo'yicha mutasaddilar oldiga quyidagi vazifalarni qo'yan edi: «Yangi o'quv yili boshlangunga qadar mazkur tajriba qanday o'tayotganligini va uning dastlabki natijalarini chuqr tahlil etib, ta'lif andozalari, o'quv rejalarini va dasturlari mazmuniga isloxtolarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ya'ni yosh avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar kiritish zarur.» Xo'sh, respublikamizda Prezidentimizning topshirig'ini bajarish bo'yicha nima ishlar qilindi, nimalarga erishildi, ta'lifiy standartlashtirishni ommaviy joriy etish uchun yana nimalarga e'tibor berish kerak? Endi mana shu masalalarni bayon etishga kirishamiz. Davlat ta'lif standartlarini qo'llash o'z-o'zidan paydo

bo'lib qolmaganidek, uni yaratish ham tasodifiy bir xol emas.

Vazirlik, ta'limga islohotlarni amalga oshirish boshlangan dastlabki yillardanoq ta'lim dasturlarini yangi maqsadlar yo'lida qayta yaratish, ta'lim konsepsiylarini, standartlarini ishlab chiqish va joriy etishga, ularni tajriba-sinovdan o'tkazish, ta'lim standartlari asosida faoliyat ko'rsatadigan maktablar sonini kengaytirib borish yo'lidan bordi, xorij davlatlarning bu sohadagi tajribalarini o'rganish, ularni xalqimizning etnik xususiyatlari, milliy shart-sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etish masalasiga alohida ahamiyat berdi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning asosiy vazifasi - o'quvchilarga tarix fanidan puxta bilim berish, shu bilimlarni amaliyotda qo'llanish ko'nikmalari va malakasini hosil qilishdan iboratdir. Tarixni o'rgatish yoshlarga milliy g'oyani singdirish va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, hozirgi zamon taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va ziddiyatlari mohiyatini to'g'ri tushunishga tayyorlashning muhim vositasidir. Tarix kursining ta'limiy vazifalari:

1. O'quvchilar tarixiy jarayonni va tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlaridagi ijtimoiy hayotning turli tomonlarini harakterlab beruvchi muhim tarixiy faktlarni puxta o'zlashtirib olgan bo'lislari zarur.

2. Tarixiy faktlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar tarixdagi asosiy voqealarni, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hamda ularning rivojlanib borishini aks ettiruvchi aniq tarixiy tasavvurlar sistemasini hosil qilishlari lozim.

3. O'quvchilar tarix kursidagi muhim tarixiy tushunchalarini puxta o'zlashtirishi, jamiyatning ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini mukammal tushunib yetishi, tarixni o'z yoshiga qarab ilmiy asosda tushunishi lozim.

4. O'quvchilar tarix kursidan olgan bilim va malakalarini yangi tarixiy materiallarni o'rganishda, o'tmish va hozirgi zamon voqealarini tushunishda, kundalik ijtimoiy ishlarda, hayotda qo'llay bilishlari lozim.

5. O'quvchilar tarixiy material bilan, har xil matnlar (garslik, tarixiy hujjatlar, ilmiy-ommabop adabiyot, siyosiy risolalar, gazeta va jurnallar), xarita va illyustratsiyalar bilan ishlay bilishi, reja tuza bilishi, ma'ruzani yoza bilishi, tarixiy materialni sistemali va asosli ravishda bayon qila bilishi ayrim faktlarni o'zlashtirish ta'lim-tarbiya jihatidan har qancha muhim bo'lsa ham, faktlarni bilishning o'zi o'quvchi tarixni bilish jarayonidagi birinchi bosqichdir. Tarixni o'rganib, bilib olishning ancha yuqoriqoq bosqichi tarixiy faktlar o'rtasidagi muhim bog'lanish va munosabatlarni bilib olish, ularni amalda tadbiq eta olishdan iboratdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Davlat ta'lim standarti nima, uning maqsad va vazifalari.
2. O'rta ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalari.
3. O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalari.
4. O'rta ta'lim tizimi va o'rta maxsus ta'lim tizimi strukturasi.
5. Tarix o'qitish jarayonining o'rganish yo'llarini aniqlang.

3-Mavzu: Tarix darslarida tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish

Reja:

- 1. Tarixiy tasavvurlar va uning turlari.**
- 2. Tarixiy tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari.**
- 3. O'quvchilarni tarixiy qonuniyatlarni tushunishga olib kelish.**

Tayanch so'z va iboralar: tarixiy tasavvur, tarixiy ong, tushuncha, tasavvo'rni shakllantiradigan usul va vositalar, tarixiy xotira

Tarixiy tasavvur va tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan o'quvchilarda hodisalar tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'la oladi.

Tarix o'qitish jarayonida o'quvchi tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitib, aniqlashib borishiga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko'pchilik hollarda bir-biriga o'xshab ketadi.

Tasavvurlar hosil qilishning asosiy usul va vositalari. Tarix o'qitishda o'quvchi ko'z o'ngida o'tmishtagi ijtimoiy hayotning yaxlit manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy fakt, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo'lsin.

Obrazlilik - o'quvchi tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy va puxta bo'lishining zarur shartlaridan biri, tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish omili, tarixga qiziqishini uyg'otish hamda tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart-

sharoitlarni yaratishning muhim vositasi. Tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o'quvchilar aktiv suratda idrok etishiga qaratilgan usullardan foydalanadi.

O'qituvchi hikoyasining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi, darslik matnidagi, tarixiy hujjatlardagi voqealar va tasviriy elementlar, badiiy adabiyot asarlari o'quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi materialni bayon qilayotganda, tarixiy hujjatlardan, ilmiy ommabop va badiiy adabiyot asarlardan olingan yorqin tafsilotlarga hamda o'quvchilardagi tarixga qiziqishining ortishi, ularning muhim tafsilotlarni ajratib olishi va xotirada saqlab qolishlariga yordam beradi.

Biroq, o'quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi bayonining jonli va emotsiyal bo'lishini o'zi kifoya qilmaydi. O'qituvchi o'quvchi faol fikrleshini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim. O'qituvchi ko'rgazmali qurolni shundaygina ko'rsatib, uning mazmunini tushuntirib, hujjatlarni o'qib qo'ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarni alohida intonatsiya bilan ta'kidlashi, ko'rsatmali qurollarni, matnlarni o'quvchi faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o'rganilgan hujjatlardagi u yoki bu jihatlarga ular diqqatini jaib qilishi lozim. Tarix bo'yicha har bir sindasturlarining oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab berilgan. Bu tushunchalar kursning ilmiy mazmunini, g'oyaviy-nazariy asoslarini aniqlab olishi, konkret tarixiy materialni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ish usullarini belgilab olishga yordam beradi.

Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda o'quvchi tarixiy faktlarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilaridan ajrata bilishi; ularni guruhlarga bo'la olishi, tarixiy voqealar va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish munosabatlarni chuqur anglab tushunib olishi ko'zda tutiladi. Ana shu taxlitda shakllangan, mukammal tarixiy tushunchalar ilmiy bilimlar

sistemasiini vujudga kelishida bamisoli zanjir vazifasini o'taydi.

Tarixiy o'qitish jarayonida tarixiy tasavvurlar bilan tushunchalarni shakllantirish uzviy bog'langan bo'lib, bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tarixiy tushunchalarni shakllantirishda o'quvchi fikrlash faoliyatlarini rag'batlantirish va unga rahbarlik qilish muhim rol o'yndaydi.

O'qituvchi rahbarligida o'quvchilar hodisani fikran bir necha qismga bo'lib, uning muhim belgilarini ajratib olib, muhim bo'limgan belgilardan ayiradilar hamda bir turdag'i hodisalarning eng muhim belgilarini umumlashtiradilar. O'quvchilarda tarixiy tushunchalar hosil bo'lishiga olib keladigan bu mantiqiy faoliyat, ko'pincha tarixni o'qitish davomida tarixiy tasavvurlar hosil qilish uchun xizmat qiladigan yangi materialni idrok etish bilan qo'shib ketadi.

O'qituvchi rasmni yoki darslikdagi sur'atlarni tahlil etib, ularning mazmunini analiz va sintez qilganda, o'quvchilarda o'rganiladigan hodisalarning muhim belgilarini aks ettiruvchi yorqin, aniq tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan ish olib borish bilan birga, hodisalarning o'sha belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish ham olib boradi. Lekin, tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish o'quvchilar tomonidan hatto ilgariroq o'zlashtirib olingen material asosida olib borilayotgan taqdirda ham, bu ish o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarni aktuallashtirib, hodisalar bilan biringchi bor tanishilgan paytda ularning payqolmay qolgan yoki ajratib olinmagan belgilarni ko'ra bilishga va ajratib olishga yordam beradi.

Hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar qanchalik ko'proq va har tomonlama ochib berilib ularning ma'nosi qanchalik chuqurroq tushunib yetilgan sari, umuman, tarix bilimlari shunchalik yuqoriroq darajada sistemalashib, har bir hodisaning tarixiy jarayondagi o'rni va roli shunchalik aniqroq aniqlab olina boradi.

Tarix o'qitishda tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari

xilma-xil bo'lib, avvalo, u tushunchalarning mazmuni murakkabligiga bog'liq. Masalan, moddiy buyumlar (garpun, omoch, kema) to'g'risida tushunchalar hosil qilish uchun bir yoki bir necha soat dars kifoya qilsa, sotsiologik tushunchalar (ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, sinfiy kurash, ideologiya va boshqa) o'quvchi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda barcha tarix kurslarini o'rganish davomida o'zlashtiriladi.

O'quvchilardagi tushunchalarni chuqur va mustahkam bo'lishi, asosan, o'qituvchining o'quvchilar fikrlash faoliyatini qanchalik uyg'ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila bilishiga bog'liq. Tarixiy tushunchalar hosil qilishda o'quvchi voqeа va hodisalarni analiz, sintez qila olish qobiliyatini o'z ichiga olgan fikrlash faoliyatini kuchaytirishda ta'limning faol metodlari - muammoli ta'lim, evristik suxbat metodlaridan foydalanish, o'quvchi ko'rsatmali qurollar, ta'limning texnika vositalari, tarixiy hujjatlar bilan ishlarini uyushtirish, ularga tarixni chuqur o'rganish bilan bog'liq bo'lgan turli amaliy harakterdagi ishlarni topshirish alohida ahamiyatga ega.

Bir turdag'i voqeа va hodisalar, tarixiy jarayonlar hamda sabab-oqibat bog'lanishlar mazmunini taqqoslab o'rganish jamiyat taraqqiyotining ayrim va ba'zi bir umumiy qonuniyatlarini tushunib olish imkonini beradi. O'qituvchi voqeа va hodisalarning sabab va oqibatlari o'rtasidagi aloqa hamda bog'lanishlarni, ko'pincha, dastlab bir mamlakat tarixini o'rganish paytda ilgari o'rganilgan hodisalarga o'xshash hodisalarga duch kelganda o'quvchilarga bir-biri bilan o'xshash sabab-natijali bog'lanishlar to'g'risidagi bilim malakalarini o'rganilayotgan hodisalarni izohlab berishga deduktiv suratda taqqoslab borish o'quvchilarni: hodisalar o'rtasidagi bu bog'lanishlar tasodifiy bo'lmay, balki barqaror va zaruriy qonuniyat ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keladi.

6-7 sinflarda Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixini o'rganish jarayonida qonuniyat termini qo'llanilmasa-da o'quvchilarni qonuniyat nimaligini tushunishga olib keladi. Qadimgi dunyo tarixida "Qadimgi Misr" mavzusi

materiali asosida o'quvchilar mehnat qurollarining takomillashishi, mehnat unumdarligini oshirish va ortiqcha maxsulotni ishlab chiqarilishi, kishini kishi tomonidan eksplutatsiya qilish uchun imkoniyat yaratilganligi, sinflarni va davlatni paydo bo'lishiga sabab bo'lganligiga tushunib oladilar. Sabab natija aloqalari.

Har bir faktning sabablarini undan oldingi faktlarda mavjud bo'ladi va shu faktning o'zi ham, o'z navbatida, keyingi faktlarning sababi bo'lmos'i mumkin. Har bir yirik tarixiy fakt ijtimoiy hayotning ko'pincha turli sohalarida mavjud bo'lgan bir qancha sabablar natijasida vujudga keladi. Tarixiy rivojlanishning qonunlarini chuqur o'rganishda taqqoslashning ahamiyati kattadir. Masalan, O'qituvchi qadimgi dunyo tarixining oxirlarida "Qadimgi Hindiston" yoki "Qadimgi Xitoy" mavzularini o'tayotganda, o'quvchilarga Qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy davlatining paydo bo'lishini o'zlaridagi xuddi shu haqidagi bilimlar bilan taqqoslab o'rganishni tavsija qiladi.

Misr, Mesopotamiya, Hindiston va sharqiy Xitoyning geografik o'rni, iqlimi, tuprog'i va o'simliklari, aholining mashg'ulotlarini taqqoslab o'rganish, bu mamlakatlarning hammasi iqlimi issiq, hosildor yerlarda, katta daryolarning vodiylarida joylashganligi, ularda dehqonchilik va chorvachilik erta rivojlanishiga sabab bo'lganligi to'g'risida xulosa chiqarishga, g'oyat qulay sharoit tufayli, odamlar ibtidoiy mehnat qurollaridan foydalanishiga qaramay, ortiqcha maxsulot ishlab chiqarilgani, ba'zi odamlarni boshqalar xisobiga yashashi uchun imkoniyat tug'ilganini aniqlab olishlariga yordam beradi.

Qadimgi Sharq mamlakatlaridagi dehqonchilik sistemasini taqqoslab o'rganish, ulardagi umumiyl xususiyatlarni, ya'ni sun'iy sug'orish va yerlarning suvini ko'chirish yo'li bilan mo'l hosil olish mumkinligini, mehnat unumdarligining oshishi va ortiqcha maxsulotning paydo bo'lishining natijasi ular ekspluatatsiya, sinflar va davlatlar vujudga kelganligini tushunib olish imkoniyatini beradi. Tabiat bilan birga, uni avaylab saqlashi, atrof-muhitni muxofaza qilishi zarurligi haqidagi xulosaga olib kelinadi. Shunday qilib,

ijtimoiy rivojlanish qonunlarini o'rganish uzoq muddatli jarayon bo'lib, u o'quvchilarda umumiyl nazariy bilimlar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ishlarining muhim tarkibiy qismidir. Asosiy tushunchalar: bayon qilish - o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi. Bilish faoliyati - idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Kuzatish- biror pedagogik hodisa bo'yichaaniq faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli. Ko'nikma - o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat, ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir. Ko'rsatma-ehtiyojning mavjudligi va ob'ektiv vaziyat hamda uni qondirish bilan bog'liq ravishda oldindan shaxslarning ma'lum faolligini tayyorlash, ularni joylashtirish.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. O'quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirish usul va vositalari.
2. Tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari.
3. Oddiy va murakkab tushunchalar haqida ma'lumot bering.
4. Tarixiy bilimlarni shakllantirishda tasavvur va tushunchalarning tutgan o'rni.

4-Mavzu: Tarix darsliklari va ularga qo'yiladigan talablar

Reja:

- 1.Tarix darsligi bilim manbai va ta'lim vositasi sifatida**
- 2. Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari**
- 3. O'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari**

Tayanch so'z va iboralar: darslik, ta'lim vositasi, bilim manbai, darslikning tarkibiy qismlari, asosiy matn, qo'shimcha matn, izohlovchi matn, darslik komponentlari, illyustratsiya, metodik qism, shartli belgilar, darslikning nazorat vazifasi

Tarix o'qitishda qo'llaniladigan matnlarga-darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar kiradi. Bosma matnlar o'quvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi o'qituvchining bilim manbaini, bayonining asosini tashkil etadi. Tabiiydirki, o'qituvchi shu manbalardan turli va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni zamon talablariga, umuman ta'lim tizimidagi tarix ta'limining talablariga javob berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli va ilmiy jihatdan ishonarli, obrazli va ta'sirli bo'lishi mumkin. Shuningdek, matnlar ustida ishlash o'quvchilar bilimini kengaytiradi, tarixiy fakt va hodisalarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini chuqurroq tushunib olishlariga yordam beradi, tarixiy fikrlash hosil bo'ladi, ular tarixiy voqealarga baho berishga o'rganadilar. Ta'lim tizimida o'quvchilar turli matnlar ustida mustaqil ish ko'rish malakasini hosil qiladilar va tarixiy tadqiqot ishlarining dastlabki metodlari bilan amaliy ravishda tanishadilar. O'qituvchi o'zining bayonini boshqa matnlar asosida yanada aniqlashtiradi va

30

boyitadi. Darslik – muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan manba hisoblanadi.

Darslik —yuqori malakali va tajribali olim va pedagoglar tomonidan tuzilib, namunaviy dasturdagi g'oyalardan hamda didaktika tamoyillaridan kelib chiqib yaratiladi. Darslik o'qituvchi pedagoglarga va o'quvchilarga asosiy o'quv quroli bo'lib hisoblanib, oddiy va hammaga tushunarli adabiy tilda yoziladi.

Darslik barchaga umumiylar yoki ta'lim xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus bo'lishi mumkin. Metodik qo'llanmalar, asosan, tajribali pedagoglar tomonidan yozilib, faqat o'qituvchi va pedagoglarga qo'shimcha o'quv quroli bo'lib xizmat qiladi. Didaktik materiallar, pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo'lib, u dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchitalabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hokazolar kiradi.

Didaktik materiallar ham didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi. Dars jarayoni faqat pedagogik usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va talabasiz hamda o'quv dastur va rejasiz dars o'tib bo'lmayani kabi metod va usullarsiz darsni amalga oshirib bo'lmaydi. Darslik matni o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari tarixni o'rganish, o'zlashtirish va uni esda saqlab qolishining, bilish faoliyatining, ijodiy izlanish ishlarini olib borishning muhim manbaidir. Matn va ulardagagi savollar, topshiriqlar tarix kursining mazmunini ijodiy o'zlashtirishga va olingan bilimlarni hayotda qo'llashga o'rgatadi.

Darslik matni ustidagi ishslash o'quv materialini o'zlashtirish va uni esda saqlab qolish, o'quv matnini tahlil qilish va undan tarixiy voqealarni, hodisalarning muhim belgilarini topish, faktik materiallarni va tarixiy faktlarning muhim belgilarini bir-biriga taqqoslash, aniqlashtirish va umumlashtirish kabi turli

31

xil maqsadlarda olib boriladi. Shuningdek, matn ustida ishlashda xronologiyani tayyor tarixiy tushunchalar ta'rifini o'zlashtirish va ularni mustaqil aniqlash, darslikda bayon qilingan voqeа va hodisalarning rivojlanishini kuzatib borish, aniq tarixiy faktlar va statistik ma'lumotlar asosida ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini bilib olish, mahalliy, vaqtli, sababnatijali va tarixiy aloqalarning qonuniyatlarini o'zlashtirish va aniqlashtirish, lug'at ishlarini mazmunli va suratli rejalar, jadvallar tuzish va boshqa shu kabi murakkab bo'limgan yozuv va grafika ishlarini olib borish, matn ustida dasturlashgan ta'lim elementlarini amalga oshirish kabi vazifalar ham ko'zda tutiladi.

Darslik matni ustida ishlashning quyidagi usullari mavjud: 1. Tushuntirib va izohlab o'qish. V sinfda tarixdan hikoyalarni o'rganishda va VI sinfda jahon tarixini o'qitishda o'qituvchi butun mavzu yoki uning biror bo'limini goh bayon qiladi va goh darslik matnnini o'qib, tushuntirib beradi.

O'qituvchi matnni murakkab joylariga kelganda hikoyasini to'xtatib, matnni ovoz chiqarib ohista o'qib beradi, o'quvchilar esa matnga qarab kuzatib borishadi, tushunish oson joylarni o'quvchilarning o'zlariga ham o'qitish mumkin. Matnni o'qish jarayonidayoq uning mazmunini o'quvchilar tomonidan tushunish darajasi tekshirib boriladi.

O'qituvchi savollar berib o'zining bayoni davomida darslik matniga tez-tez murojaat qilib, undagi yangi iboralar, terminlarni, qiyin jumlalar mazmunini tushuntirib beradi. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarni darslik matnnini e'tibor berib, tushunib o'qishga o'rgatadi, ularning darslik matnnini puxta o'rganib olishning ahamiyatini anglab olishlariga yordam beradi, uyda darslik ustida mustaqil ishslashlariga tavsiya etiladigan adabiyotlar tayyorlaydi.

O'quvchilar tarixiy materialni tushunib, matnni o'qishda ma'lum darajada malaka hosil qilganlardan keyin matnning eng muhim va qiyin joylarini izohlab o'qishga o'tiladi. Izohli o'qish ham o'qituvchining bayoni bilan birga

olib boriladi. O'qituvchining o'z bayonida o'quvchilar diqqatini darslik matnidagi tayanch atama va iboralarga jalb etadi. Ularning mazmunini tushuntirib beradi, o'quvchilarning mavjud bilimlariga suyanib bu tushunchalarning lug'aviy ma'nosi va mazmunini, asosiy jihatlarini, sababnatijalarini, ular o'rtaсидagi bog'liqlarlari hamda qonuniyatlarini o'zlashtirib olishlariga yordam ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar bilim olishining har uchala manbai og'zaki bayon, matn ustida ishslash, ko'rsatmalilik va amaliy ish metodlari ishtiroy etadi.

Darslik matni mazmunini o'zlashtirishda uning har bir paragrafini tahlil qilish va ular ustida o'quvchilarning mulohazalarini uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Darsning barcha bosqichlarida darslik matniga murojaat qilib borish maqsadga muvofiq. O'quvchilar bob, paragraf va undagi bo'limlarni bir-biridan ajrata bilishga o'rgatiladi.

O'qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o'quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhalarni o'qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasи bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishidagi tafovutlarning sabablarini izohlab beradi. O'qituvchi o'zining bayoni davomida kichik sarlavhalar ichidagi mavzularga takror-takror qaytishi mumkin.

Darslik matni mazmunini bevosita o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar. Bu darslik matni ustida olib boriladigan ishning markaziy masalalaridir. Bu ishlar matnni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy faktlarga baho berish, ular o'rtaсидagi sabab va boshqa aloqalarni ochib ko'rsatish va ularni taqqoslashdan iboratdir.

Bu ishlar quyidagi metodik usullar bilan:

- a) har bir paragraf yoki mavzu mazmunining eng muhim masalalari yuzasidan nazorat so'roqlar tuzdirish yo'li bilan;
- b) o'qituvchi bergen savollarga o'quvchilarning darslik matnidan javob topish yo'li bilan;

- v) darslik matnidan o'qituvchining xulosasini tasdiqlovchi faktlarni toptirish yo'li bilan;
- c) darslik matnida bayon etilgan voqealarning bir-biriga o'xshashligini, farqlarini aniqlash yo'li bilan;
- d) tasdiqlab berishni talab qiladigan vazifalar bilan amalga oshiriladi.

Darslik matni ustida ishslashning muhim jihatlaridan biri — o'quvchilarni uyda ishslash uchun beriladigan vazifani bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatlari bajarish uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo'lini yaxshi anglab olishlari shart. Binobarin, o'qituvchi uy vazifasini topshirishda, uning harakterini belgilashda o'quvchilarning bilim va malakalarini e'tiborga olishi, beriladigan vazifa oldingidan ko'ra murakkab bo'lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalari oshib borishiga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o'rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, chizma, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish uy vazifasini ijodiy va mustaqil bajarish namunalardir.

O'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatish ham ta'liming muhim jihatidir.

O'quvchilarning faol aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri, ularning o'qituvchi bayon qilgan yangi materialni o'zlashtirishda mavjud bilimlarni ishga sola bilishidir. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o'rgatish lozim. O'quvchilar oлган bilimlарини esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqtiga qo'shilishga e'tibori darslik matniga qaratiladi.

O'quvchilar darslik matnidagi ma'lumotlarni kichik guruhlarga bo'lib muhokama qilishadi. Uy vazifasi uchun berilgan topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajarganliklarini tekshirishda, og'zaki yoki test javoblaridagi xatolarni, aniqsizliklarni to'g'rilash uchun darslik matniga murojaat qilinadi. Shunday qilib, darslik matni ustidagi ishlarni turli xil metodik usullar yordamida, o'qitish

jarayonining barcha bosqichlarida — materialni o'zlashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi va hokazo.

Darslik matni ustida olib boriladigan ishlarni o'qituvchi bayonini mazmunan boyitadi, dolzarbigini oshiradi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularning darslik matnini osonroq va puxta o'zlashtirib olishlariga yordam beradi.

Tarixiy hujjat, avvalo, o'qituvchining bayonini aniqlashtirish uchun xizmat qiladi, bayonning ishonchli va emotsiyal bo'lismeni ta'minlaydi, o'tmisning yorqin obrazlarini, tarixiy voqealarning yaxlit manzarasini gavdalantirishga, o'rganilayotgan davr xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi.

Hujjat ustida ishslash o'quvchilarni faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda aniqlashga, ularni puxta anglab olib, xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Shu bilan birga hujjat ma'lum vaziyatni aniqlashga, ahamiyatini bilib olishga, tarixni ob'ektiv nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi, ularning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, o'quv ishlari faoliyatining yangi usullari bilan qurollantiradi, zarur bo'lgan malaka davrimizning ijtimoiysiyoqiy harakterdagi hujjatlarini o'qib, tushunib olish malakasini hosil qiladi.

Tarixiy hujjatlar bilan ishslashning yana bir muhim tomoni shundaki, bu ish o'quvchilarni tarixiy tadqiqot metodining elementlari bilan tanishtiradi hamda ularni tarixiy hujjatlarni tahlil qilishga, ularga tanqidiy qarashga o'rgatadi. Ta'lif tizimida ta'liming yangi mazmuni amalga oshishi munosabati bilan tarix o'qitishda tarixiy hujjatlarining ahamiyati yanada oshdi. Yangi dastur asosida yozilgan darsliklar mazmunining asosiy qismini tarixiy hujjatlar tashkil etadi.

Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham tarixiy hujjatlar bilan ishslash zaruriy bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu ish maktab ta'limi tajribasida ommaviy tus oldi. Darsliklardagi tarixiy hujjatlar har bir sinfdagi

o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, o'sha sinfda o'rganiladigan tarix kursining xususiyatlariga qarab kiritilishi muhim. Shu sababdan darsliklardagi tarixiy hujjatlar o'zlarining harakteri, ko'lami va mazmuni jihatidan bir biridan farq qiladi. VI sinf o'quvchilarining psixologik va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning tarixiy hujjatlar bilan birinchi marta tanishishlarini e'tiborga olib, darslikka asosan hikoya va tafsiflab berish harakteridagi hujjatlar kiritilgan.

Tarix darsligiga kiritilgan hujjatlari manbalarni asosan uch guruhga bo'lish mumkin:

1) Moddiy madaniyat buyumlariga — bizgacha saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zebzilmiy buyumlari, uy-ro'zg'or anjomlari, turar joylar, qo'rg'onlar, maqbaralar, qadimgi shahar harobalari va boshqalar kiradi. O'quvchilar mehnat qurollari va boshqalarga qarab, odamlarning mashg'ulotlarini, hashamatli imoratlar va pastqam kulbalarga qarab sinfiy bo'linish mayjudligini, diniy marosimlarga va kishilarning dafn qilinishidagi rasm-rusumlarga doir topilmalar asosida o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarini bilib oladilar.

2) Tasviriy san'at asarlariga — moddiy voqelikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini hamda ularning tevarak-atrofidagi narsalarni - har xil buyumlarni, geografik muhitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlar, odamlarning afsonaviy qahramonlar va hokazolar haqidagi hayoliy tasavvurlarini aks ettiruvchi asarlar kiradi.

3) Yozma manbalar — qonunlar, buyruqlar, xo'jalik ishlariiga doir yozuvlar, shartnomalar, xizmat vazifasiga oid yozishmalar, siyosiy nutqlar, sud hukmlari, yilnomalar, xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlar, xatlar va yozuvlar kiradi. Qadimgi dunyo tarixida berilgan bu hujjatli materiallar o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tarix darsligining bilim manbai sifatidagi o'rnini izohlang.
2. Tarix darsligining asosiy komponentlarini izohlang.
3. Darslikdagi matn va matndan tashqari komponentlarni aniqlang.
4. Darslikning asosiy matniga qaysi komponentlar kiradi?
5. Darslikdagi metodik komponentlarni aniqlang.
6. O'quvchilarning darslik matni bilan ishslash usullariga misollar keltiring.

5-Mavzu: Tarix o'qitishning tashkiliy shakllari. Dars, uning turlari va tuzilishi

Reja:

- 1. Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli**
- 2. Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)**
- 3. Tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar**

Tayanch so'z va iboralar: dars, an'anaviy dars, noan'anaviy dars, dars strukturasi, kombinatsion (aralash) dars, umumlashtiruvchi takrorlash dars, tarix fanining ta'lif-tarbiya vazifalari, ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik

Tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lif - tarbiya vazifalarini amalgalashirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining tutgan o'rni, uning ta'lif-tarbiyaviy vazifalari, har bir bob va ulardagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari oldindan aniq belgilab olingandan keyin tarix o'qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarix ta'limida o'qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatliligi amalgalashirish birlinchi navbatda o'qituvchining har bir darsning ta'lif-tarbiya vazifalarini oldindan aniq va to'g'ri belgilab ola bilishiga bog'liq. Bu ham, o'z navbatida, o'qituvchining darsning ta'lif-tarbiya vazifalarini to'g'ri belgilash metodi va usullari haqidagi puxta nazariy bilim va malakalarining darajasiga bog'liqdir.

Dars - o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarining doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturida o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun

xilma-xil metodlardan foydalananadi. Dars o'quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta'limning boshqa shakllarini: ma'ruza, amaliyot, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, uy vazifalari, qo'shimcha mashg'ulotlarni rivojlantirishni istisno etmaydi.

Ta'lifni tashkil etishning yordamchi shakllari fakultativ mashg'ulotlar sanaladi. Ular o'quvchilarining qiziqishlari asosida tashkil etiladi: to'garaklar, klublar, olimpiadalar, viktorinalar, ko'rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar.

Dars o'quvchilarining doimiy tarkibi, mashg'ulotlarning aniq belgilangan oldindan tuziladigan jadval va o'quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o'ziga xosliklarga ega bo'lgan ta'limning jamoa shakli hisoblanadi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarining darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

- Bilim - atrof muhit qonuniyatlar, qonunlari, hodisalari, dalillari Shuningdek, faoliyat usullari haqidagi tushuncha va tasavvurlarning o'zlashtirilishi, tizimga solinishi hamda xotirada mustahkamlanishi.

- Ko'nikma - ta'lif oluvchilarining mehnat jarayonidagi harakatini muayyan sharoitda maqsadga muvofiq bo'lgan harakat usullaridan foydalaniib, muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatini.

- Malaka - ta'lif oluvchilarining mehnat jarayonidagi harakatini aniq, tez va maqsadga muvofiq tarzda avtomatik ravishda bajarish qobiliyatini.

- Kompetentsiya - ta'lif oluvchilarining egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qol'lay olish layoqati.

Dars - o'quv va tarbiyaviy ishlarning asosiy tashkiliy shakli bo'lib, ta'lif va tarbiya jarayonining maxsus shakllari esa dars samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Darslarning qanday vazifalarni hal etishiga ko'ra turlicha strukturaga ega bo'lgan tiplarga bo'linadi. Struktura -

bu dars qismlarining nisbati va o'zaro bog'lanishi bo'lib, ular o'z vazifasi va o'qituvchi bilan o'quvchilar faoliyati harakteri bilan farq qiladi.

Demak, yetakchi didaktik vazifa va tuzilishiga ko'ra darslar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) yangi materialni o'rganish darslari – bu darsda faqat yangi bilimlar beriladi;

2) kombinatsion darslar (aralash darslar) – bunda o'qituvchi o'tilgan mavzuni nazorat qilib baholashi bilan birlgilikda yangi materialni tushuntiradi, mustahkamlaydi;

3) bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darslari – bunda o'qituvchi faqat uy vazifasini nazorat qilib baholaydi;

4) mashqlar va amaliy ishlar darslari;

5) umumlashtiruvchi takrorlash darslari;

6) laboratoriya darslari;

7) o'quvchilar bilimini nazorat qilish, nazorat qilish va baholash darslari.

Yangi materialni bayon qilish darslari bosqichlari: o'quvchilarni darslarga jalb etish, mavzu bayoni (yangi bilimlar berish), qisqa nazorat mustahkamlash, uyg'a vazifa berish. O'rganilgan materialni mustahkamlash va amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish darslari uning yanada chuqurroq anglash va o'zlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash maqsadidan kelib chiqib, hamma sinflarda alohida mavzuni yoki bo'limgarni o'rganilgandan keyin o'tilgan materialni takrorlashga yo'naltirilib o'tkaziladi. Takrorlash, tizimlashtirish va umumlashtirish darslari o'quv dasturining katta bo'limgarini takrorlash bilan bog'liq va darhol mavzularni o'rganilgandan keyin yoki o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Bularidan tashqari standart bo'limgan, innovatsion dars shakllari ham keng qo'llaniladi: seminar-darslar, konferensiya-darslar, rolli o'yinlar, integrallashgan darslar.

Dars o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida yoshlarga fan asoslarini o'rgatishda muhim o'rinni tutadi. Tarix darsiga qo'yildigan didaktik talablar bu

- ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik, o'quvchilarni bilish imkoniyati va yosh psixologik xususiyatlari, uzviylik va uzliksizlik, tarixni zamon va makon konteksva bog'lash, ta'lim va tarbiya maqsadiga ega ekanligidir. Har bir darsga tayyorlanishda DTS va o'quv dasturining uqtirish xatidagi ko'rsatmalar nazarda tutiladi. Darsni tayyorlash va o'tkazishda o'qituvchining o'z predmeti bo'yichao'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanishi, har bir darsga tayyorlanishini talab qiladi.

Har bir alohida darsga tayyorlanishda o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- mavzuni aniqlaydi va dars vazifalarini konkretlashtiradi;

- o'quv materiali mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi (etakchi tushuncha, qonuniyat, fakt va amaliy ma'lumotlarni ajratadi);

- ilgari o'rganilgan bilan bog'lanishni, mazmunni joylashtirish mantiqini nazarda tutadi;

- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini harakterini aniqlaydi, ya'ni qanday ko'nikma va malakalar shakllanishini, reproduktiv va izlanish faoliyati, mustaqil ish va o'qituvchining roli o'rtasidagi nisbat qanday bo'lishini o'ylab qo'yadi.

- dars shakllarini ishlab chiqadi;

- o'qitish metodlari: masala, mashq, muammoli savollar, topshiriqlarni tanlaydi va aniqlaydi.

- o'qitishning vositalarini tanlaydi;

- dars jarayonini rejalashtiradi.

Yaxshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o'tkaza bilish ham kerak. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1) darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak;

2) o'quvchilar e'tiborini dars mazmuniga qarata bilish va uni butun dars davomida o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirib saqlay bilish.

3) darsda vaqtadan oqilona foydalanish;

4) o'z xatti – harakatini kuzatish. Yuksak ma'naviyat, ahloqiylik va madaniyat, gapirish va talab qilish, rag'batlantirish, o'quvchilarga murojaat qilish uslubi bularning barchasi o'qituvchi faoliyatining uslubini belgilaydi, hamda o'quvchilarning zo'r berib ishlashi yoki o'ta emotsiyonal qo'zg'aluvchanligini istisno qiladi.

5) darsda tadbirkorlikni namoyish qilish yuzaga kelgan sharoitni darsni o'tkazish sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish zarur. Ta'lif tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lif-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir darsning ta'lif-tarbiya vazifalarini, shuningdek, uning boshqa darslar sistemasida tutgan o'rnini aniq belgilash va shu vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Lekin har qanday tarbiyaviy vazifani ham, bir yoki bir necha darsda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ayrim tadbirlar vositasida batamom mukammal hal qilib bo'lmaydi. Har bir tarix darsida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarning qandaydir bir elementi amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchi har bir tarix darsiga tayyorlanishda bu dars oldin o'tilgan darslarning davomi, bu darsda hal qilinishi kerak bo'lgan ta'lif-tarbiya vazifalari esa oldingi yoki kelgusi darslarda bajariladigan ta'lif va tarbiya vazifalarining ajralmas bir tarkibiy qismi ekanligini unutmasligi kerak.

Har bir darsning ta'lif-tarbiya vazifalari o'z-o'zidan emas, balki o'qituvchining ongli va rejali ishi asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda o'quv dasturining hajmi va mazmunini hisobga olib material tanlaydi, dastur va darslik asosida dars rejasini tuzadi, materialni joylashtiradi va uni bayon qilishda hujjat va boshqa ko'rsatmali qurollardan foydalanish metodlarini belgilaydi.

Ammo, bu ishlar o'qituvchi darsning asosiy g'oyasini, undan ko'zlanayotgan ta'lif-tarbiya vazifalarini, darsda nimaga erishish,

o'quvchilarda qanday tasavvur va tushuncha hosil qilish kerakligini aniq va to'g'ri hal qilgan taqdirdagina o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin.

Darsning bosh g'oyasi va uning tarbiyaviy vazifalari to'g'ri va aniq belgilanmay o'tkazilgan dars dasturida ko'rsatilgan faktlarni tasodifan, shunchaki sanab o'tishdan iborat bo'lib qoladi. Material tanlash va uni izchillik bilan joylashtirish, darsda qo'llaniladigan butun didaktik usullar va metodik vositalarning hammasi darsning bosh g'oyasiga, uning ta'lif va tarbiya vazifalarini hal etish maqsadiga bo'ysundirilishi kerak. Demak, tarix darslarining mohiyatini ta'lif jarayoni tashkil qiladi. Ta'lif jarayonining ob'eaktiv qonuniyatlariga asoslanib, tarix darslarini turlarga bo'linishi masalasini to'g'ri hal qilish mumkin.

Darsning har xil turlariga harakteristika berishda o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok qilishga tayyorlash, materialni tahlil qilishga, asosiy tarixiy faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni anglab olishga, umumlashtirishga, olgan bilimlardan zarur paytda foydalanishga o'rgatish kabi ta'lif jarayonlari e'tiborga olinadi. O'qituvchi o'quv materialini bayon qilish jarayonida uni tahlil qilib boradi va umumlashtiradi. Biroq, ba'zi murakkab mavzular va bo'limlar yuzasidan maxsus tahlil qilish darslari, tarix kursining g'oyaviy mazmuni, ta'lif qonuniyatları bilan bog'lab maxsus umumlashtiruvchi - takrorlash darslari o'tkaziladi.

Har bir darsda, o'quvchilarda xarita, har xil suratlar, bezaklar ustida ishslash, jadvallar, reja va konspekt tuzish ko'nikma va malakalari hosil qilish yuzasidan ish olib boriladi. Undan tashqari, o'qitishning ilmiy asosda tashkil qilinishi o'qituvchining darsda har xil vazifalarni muvaffaqiyatli bajara bilishiga bog'liq. Tarixni o'qitishda tarixiy voqealarni bayon qilib berish va uni navbatdagi darsda so'rashdan iborat emas. O'qituvchi o'quvchilarni tarixiy voqealar ustida mustaqil fikrashga, o'rganilgan tarixiy materiallardan tegishli xulosalar chiqarib olishga, uni umumlashtirishga, mavzular va umuman

kursning asosiy masalalarini puxta o'zlashtirib olishga, turli matnlar, xaritalar bilan mustaqil ishlay bilishga, reja, konspekt, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzishga, ma'ruza va referatlar tayyorlashga, diagrammalar mazmunini tushunishga o'rgatishi lozim. Referat - bu o'quvchilar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biri bo'lib, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida o'qituvchining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin.

Bu yerda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik bat afsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq o'quvchilarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. O'quvchiga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, o'quvchiga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni o'quvchi tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha o'quvchiga yoki o'quvchilar guruhiга topshirish ham mumkin. O'quvchiga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, keyinchalik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozaralari jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Tarix darslarini tasniflash, uning xilma-xil turlaridan foydalanish o'qituvchining shaxsiy xohishiga emas, balki ta'lim tizimida tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish

yaruriyatidan kelib chiqadigan tarix ta'limining asosiy qonuniyatlar bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchi dars turlarini tanlashda o'rganiladigan mavzuning mazmuni, harakterini hamda uni o'quvchilarning ongli va puxta o'zlashtirishini, ya'ni ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlarini asos qilib olishi lozim. Dars turini bu yo'sinda tanlash esa ta'lim tizimida tarix o'qitishning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda o'qitish metodlari va usullari haqidagi masalani ijodiy hal qilishga yordam beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)ni aytинг.
2. Tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Tarix fanining ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash omillarini aniqlang.

6-Mavzu: Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi.

Reja:

- 1. Tarix o'qitish metodlari va usullari**
- 2. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi**
- 3. Ko'rgazmali metodlar**

Tayanch so'z va iboralar: o'qitish metodlari, usul, og'zaki bayon metodi, ko'rsatmali metod, amaliy metod, ma'ruza, suhbat, hikoya.

Metod - yunoncha –"metodos" so'zdan olingan bo'lib, izlanish, bilish yo'li, nazariya, ta'limot, biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Aniq vazifani yechishga bo'yusundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llarining yig'indisidir. Shuningdek, maqsadga erishishning aniq, qisqa va maqbul yo'li hisoblanadi. Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yig'indisidan iborat. O'qitish metodi esa ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birlgiligidagi faoliyat usullari yoki ta'limda maqsadga erishish, masalalarни hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. Usul – metodning tarkibiy qismi, metodni amalgalashishda bir martagina qo'llaniladigan va alohida qadam hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida

ko'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi.

Didaktika bilan Shug'ullanuvchilar metodni o'quv jarayonining o'zagi, ko'zlangan maqsad va pirovard natijani bog'lovchi vosita deb izohlaydilar. O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'rinni egallaydi. O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'lmdir. O'qitish metodida o'qitishning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim metodlari o'quv tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz ta'lim maqsadi, vazifalarini amalgalashish, o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirish mumkin emas. Ta'lim metodi vositasida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati o'zaro muvofiqlashadi. Ta'lim metodi - o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lumot mazmuniga yo'naltirilgan faoliyatni tartibga solish yo'lidir. Ayrim adabiyotlarda pedagoglar tomonidan –metod bilan –usul tushunchalarini chalkash ishlash holatlari mavjud. O'qitish metodlarini muvaffaqiyatli amalgalashish, albatta, usullarning mahorat bilan qo'llanilishiga bog'liq. Aksariyat pedagoglar –metod tushunchasini –usul deb tarjima qilib o'zlarini va tadqiqotchilarni ham chalg'itadilar. Bizningcha metod tushunchasini tarjima qilish kerak emas. Ta'limda metodlar tizimidan keng foydalilanilgan taqdirdagina ta'lim-tarbiya ishlari sohasida natijaga erishish mumkin. G.Fuzailovaning –Tarix o'qitish metodikasi nomli o'quv qo'llanmasida an'anaviy metodlar umumlashtirilib to'rtga ajratilib, ularning usullari ko'rsatilgan. Ta'lim metodlari tizimi deb, eng muhim umumiyligi belgilari bilan o'zaro bog'langan, bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan metodlar guruhiga aytiladi. Bu metodlarning umumiyligi muhim belgilari - o'qitish va o'rganish usullari hamda o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir.

O'qitish metodlari usullari va o'quvchilar tafakkur faoliyatining turli shakllari o'rtasidagi o'zaro aloqa va ularning bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri asosida bir tizimdagi metodlarning o'zaro bog'liqligi yuzaga keladi. Ta'lif tizimi tajribasida ko'rsatmali o'qitish deyarli hech qachon o'qituvchining bayonisiz qo'llanilmaydi, o'qituvchining bayoni ham doim ko'rsatmali vositalarga suyanadi. O'quvchilarning texnika vositalari, matnlar va boshqalar ustidagi amaliy faoliyati ta'lifning ko'rsatmali va og'zaki usullari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

O'qitish metodlari va usullari orqali o'qituvchining o'qitishi va o'quvchilarning o'rGANISHI yoki bilish faoliyati tashkil etiladi. O'qitish metodlari — o'qituvchining faol fikrashi asosida o'quvchilarni o'qitishga, o'quvchilarning ilmiy bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llay bilishlariga, dunyoqarash va e'tiqod hosil qilishlariga, aqliy va jismoniy mehnat, ko'nikma va malakalarini egallashlariga, bilish va ijodiy qobiliyatlar o'sishiga yordam berishni ta'minlovchi usullaridan iboratdir. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi haqida pedagoglar turli fikrlarni bildirganlar.

Bir-biri bilan bog'langan o'qitish metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) og'zaki o'qitish metodi, (hikoya, monolog, dialog, suhbat, syujetli hikoya, tahlil qilib tushuntirish, tarixiy manbalar bilan ishslash; tarixiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlarni izohlash) bu metod o'z navbatida ikki turga bo'linadi;
- 2) ko'rsatmali ta'lif metodi (jadvallar, shartli-grafik illyustratsiyativ ko'rgazmalilik, surat tahlili, rasm, tarixiy xaritalar bilan ishslash);
- 3) ta'lifning amaliy metodi (kontur xarita to'ldirish, mashq bajarish, o'quv topshiriqlarini yozma tayyorlash).

Og'zaki bayon metodi – o'qituvchining xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi, tuzilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o'qituvchi tushuntiradi, o'quvchilar tinglaydilar.

Hikoya.

Bayon shaklidagi hikoyada o'qituvchi o'quv materiali mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi.

Ma'ruza.

Ma'ruza o'rtal umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, oliy o'quv yurtlarida foydalanadigan ta'lif usuli bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quv materiali hajmiga ko'ra belgilanadi. Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rsatmali qurol, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ko'rinish turibdiki, boshqa matodlar, xususan ko'rsatmali va amaliy metodlar ham jalb etilmoqda. O'quv materialiga oid iboralarga izoh berish, ayrim o'rinnarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining samarasini oshiradi.

Suhbat.

Suhbat o'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri dialog shaklidagi ta'lif metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroficha o'yangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'zaro muvofiqlashadi. Suhbat evristik ham bo'ladi. Ya'ni, bunda o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallangan usul bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchi savollari o'quvchilarning javoblari shaklida amalga oshiriladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Yunonistonda Suqrot mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy didaktik tadqiqotlarda –izlanish suhbat|| deb ham yuritiladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari bo'lib, ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rGANISH, o'zlashtirishning individual harakter kasb etishi.

Ko'rsatmali metod – Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi, - degan naqlga amal qilgan holda faqat og'zaki bayon metodli darsda materiallarni o'zlashtirish ko'rsatkichi 10%, bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi.

Mashg'ulotlarda o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim. Ayniqsa, tarix fanida an'anaviy didaktik materiallardan tashqari zamon bilan hamnafas bo'lgan holda namoyishli (kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari) ko'rsatmalilik bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Ko'rsatmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'rur o'quvi va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi. Ko'rsatmali metodlar eshitish va ko'rishni o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli undan bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanish tarix ta'limining samaradorligini oshiradi. Ko'rsatmali metodning quyidagi turlari mavjud: Illyustratsiya metodi – (matndan boshqa barcha komponentlar) xaritalar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, sxemalar, diagrammalar, doskadagi yozuvlarga diqqatni tortish.

Namoyish (demonstratsiya) metodi – kinoapparat, AKT va boshqa videotasvirlardan foydalanib turli tasvirlarni namoyish qilish.

Tabiiy ko'rsatmali qurollar – narsalarning o'zi, predmetlar, mulyajlar, odamlar tomonidan tayyorlangan ish qurollari, maket, mulyaj va boshqalarni ko'rsatish. Ko'rsatmalilik deganda, avvalo o'qitish va tarixiy bilimlarning o'rganishning ko'rsatmali usuli, o'qituvchi bayonining manbai va uni ko'rsatmali bo'lishi, uning o'quvchilardagi aniq, tayyor obrazlarga suyana bilishi, o'quv vositasi materialini bayon qilish vaqtida ko'rsatmali qurollardan foydalanish va ko'rsatmali qurollar vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy faktlarni, voqealarni aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi. Tarixiy hujjatlar va badiiy adabiyotlardan foydalanish o'qituvchi bayonini obrazli qilib aniqlashtirsa, ko'rsatmali

qurollar vositasida o'quvchilarda o'tmish to'g'risida yorjin va aniq tasavvur hosil bo'ladi, o'quvchilarning eshitish faoliyatiga ko'rish va sezish organlarining faoliyati ham qo'shiladi. Shu bilan ularning bilimi yanada chuqurlashadi, mustahkamlanadi. Tarix o'qitishning ko'rsatmali bo'lishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Avvalo, ko'rsatmali qurol o'quvchilarning bilim olishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining bayoni har qancha to'liq bo'lganda ham o'quvchilarning voqealar to'g'risidagi tasavvurlari to'la bo'lmaydi. Shuningdek, bezaklardan foydalanmay turib, o'rganilayotgan davrning manzarasini ham to'la, aniq va chuqur tasavvur qilib bo'lmaydi. Ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning tarixiy tasavvurlariga aniqlik kiritish va bu tasavvurlarni aniqlashtirishga yordam beradi. Ko'rsatmali tasvirlar tarixiy fakt va hodisalarning tashqi ko'rinishinigina emas, balki ularning ichki mohiyatini ham ochib beradi. Ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning murakkab tarixiy hodisalarni, tarixiy tushunchalarning ma'nosini osonroq tushunib olishlariga yordam beradi. Ko'rsatmali qurollar o'quvchilarda tarixiy tushunchalarni shakllantirishga, ularning nazariy xulosalash va umumlashtirishga, yakunlarini, ijtimoiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlarini, o'zaro aloqalarni yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi, Shuningdek, o'quvchilarni estetik jihaddan tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shu tariqa, ko'rsatmalilikning ahamiyati tarixiy faktlarni, hodisalarni ko'rish organlari ishtirokida mushohada etish va ular haqida aniq tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi, murakkab tarixiy hodisalarni, tushunchalarni tushunib olishni ham yengillashtiradi, tarixni haqqoniy tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib, ko'rsatmali metodi:

- 1) tarixiy bilimlarning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi;
- 2) o'quv materialining ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatlil amalgaga oshirishga yordam beradi;

- 3) o'qituvchi bayonining aniq, obrazli va ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi;
- 4) o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishga qiziqishini oshiradi va ularning bilish faoliyatini faollashtiradi;
- 5) o'qituvchining bayonini va uning darsda qo'llangan boshqa o'quv usullarini o'quvchilarning tushunib olishini yengillashtiradi;
- 6) o'quvchilarning fikrlash faoliyatini va ijodiy qobiliyatini o'stiradi;
- 7) o'quvchilar bilimining aniq, chuqur va mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Xarita va ularning turlari. Tarixiy xarita bilan ishlash geografik muhitga harakteristika berishning assosiy metodini tashkil etadi. Tarixiy xaritalarda mavzu va voqeа-hodisalar, jarayonlarning mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: tarixiy iqtisodiy, tarixiy etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy.

O'quv tarixiy xaritalari esa ta'lilda foydalilanildi. Xaritalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham o'z qadrini yo'qotmaydi, aksincha dolzarbligi yanada oshadi. Ammo o'sha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'sada, baribir o'tgan davr tarixShunosligi haqida ham ma'lumot berish vazifasini o'taydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlanishir ham mumkin. 6 - sinfda o'quvchilarga geografik muhit bilan odamlarning mashg'uloti o'rtaqidagi aloqani oshib berish, xalqlarning tarixiy rivojlanishiga geografik muhitning ta'sirini ko'rsatish uchun katta imkoniyat bor. Xarita yordamida biror mamlakatning tarixiy taraqqiyotida bosib o'tgan turli bosqichlardagi ahvolini aniq tasvirlab berish, o'quvchilarda birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi haqida aniq tasavvur yaratishga, ikkinchidan, inson ajdodlari mehnatining bunyodkorlik kuchini puxta tushunib, anglab olishlariga yordam beradi. Binobarin, xarita bilan ishslash juda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Darsda xaritadan foydalanib tarixiy voqeа sodir bo'lgan joyni ko'rsatish, o'quvchilarda geografik muhitning roli haqida tasavvur yaratish uchungina emas, balki tarixiy voqealarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini, o'zaro aloqalari va sabab-natijalarni oshib berishda ham muhim rol o'ynaydi. Xaritadan tarixiy voqeani tushuntirib berishdagina emas, balki uni tahlil qilishda va umumlashtirishda ham foydalilanildi.

Xarita yordamida tarixiy voqealarning sabab-alоqalari oshib beriladi. Masalan, Amir Temur sultanatining yuksalishi sabablari oshib beriladi. Xarita darsning boshida o'rganilgan materialni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy taraqqiyot rivojlanishining qonuniyatlarini oshib berishga yordam ko'rsatadi. Tarixiy xarita o'quv materialini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi voqeа bo'lib o'tgan joyini devorga osilgan xaritadan ko'rsatgan vaqtida o'quvchilarning o'sha joyni o'z xaritasi yoki atlasidan izlab topishi, o'qituvchi rahbarligida xaritaning tahlil qilinishi, o'quvchilarning o'z daftarlardagi eskizlar va darslikdagi xaritalar ustida uyda mustaqil ishlashi, navbatdagi darsda berilgan savollarga xaritadan foydalanib javob berishi o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi va uzoq vaqt esda saqlanishiga yordam beradi.

Tarix o'qitish tajribasida tarixiy xaritalarning uch turidan foydalilanildi:

1. Umumiy xaritalar. Ular bir mamlakat yoki bir guruh mamlakatlardagi tarixiy voqealarni, ularning mavqeini, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichidagi ahvolni aks ettiradi.
2. Obzor xaritalar. O'rganiladigan voqealar rivojlanishining izchilligini uzoq davr mobaynida hududning o'zgarganligini aks ettiradi.
3. Mavzuga doir xaritalar. Ma'lum tarixiy voqealarga yoki tarixiy jarayonning ayrim tomonlariga bag'ishlanadi. Masalan, Muqanna qo'zg'oloni. Mavzuga doir xaritalarda ijtimoiy hayotga doir masalalar, chunonchi iqtisodiy masalaga, harakatlarga, mustaqillik uchun milliy ozodlik kurashlari yoki harbiy o'tmishta doir masalalar to'laroq yoriltiladi.

Darslik va atlasdagi xaritalarning ko'pchiligi tematik xaritalardir. O'qituvchi bosma yoki qo'lida tayyorlangan osma tematik xaritalardan ham foydalanadi. Sxematik xaritalar yoki xarita-sxemalar ham tematik xaritalarning bir turidir. Tarix darslarida o'quvchilarni mamlakatimizning tabiiy sharoiti va iqtisodiyotining rivojlanish tarixi bilan chuqurroq tanishtirish maqsadida tabiiy va iqtisodiy geografik xaritalardan ham foydalaniladi.

Birorta ham darsni xaritasiz tasavvur etish qiyin. Xarita tarix darsining eng zaruriy qo'llanmasi bo'lib hisoblanadi. Xarita avvalo o'rganiladigan mavzuga mos bo'lishi lozim. O'qituvchi voqealar rivoji davomini bayoni jarayonida xaritadan ko'rsatib borishi, ayni vaqtda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatadigan joyni qo'llaridagi xarita yoki atlasdagi xaritadan izlab topishlari lozim. Har bir yangi xarita o'rgana boshlanganda unga qisqacha obzor berish, uni o'rganilgan eski xarita bilan solishtirib, o'quvchilarni yangi xaritadagi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularning tarixiy taraqqiyotning izchilligi va har bir bosqichning o'ziga xos muhim xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. O'quvchilar ikki xaritani solishtirib mamlakat hududi toraygan yoki kengayganini, shaharlarning o'sganligi va boshqa o'zgarishlar y o'z bergenligini aniq tushunib oladilar.

O'qituvchi xarita yuzasidan savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan o'quvchilarni 5-6-sinfdan boshlab xarita ustida ishlashga o'rgatib boradi. O'quvchilarni xaritani o'qib tushunishga, ulardan tarixiy bilimlar manbai sifatida foydalana bilishga o'rgatish kerak. Tarix darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi.

Ta'limning texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Amaliy metod. Ta'limning amaliy metodida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi: Amaliy metodning quyidagi turlari mavjud:

1. Laboratoriya – tajribasida turli o'quv topshiriqlarni amalda bajarish. O'quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, chizgich, sirkul va boshqalardan foydalanib, chizish, qirqish, yelimlash, o'lhash kabi ishlarni bajaradilar.

2. Mashq – o'rganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashq vositasida turli malakalar – intellektual va aqliy malakalar tarkib toptiriladi. Keyingi yillarda, ta'lim tizimi amaliyotida o'quvchilarning fikrflash faoliyatini faollashtirish, tarixiy tushunchalarni, jumladan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tushunchalarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydigan o'qitish va o'rganishning samarali usullari ishlab chiqildi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Ta'lim metodlari va usullarini aytинг.Ularning bir-biridan farqi qanday?
2. Ta'lim metodlarini tanlash nimaga bog'liq?
3. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasini aytинг.
4. Ta'lim metodlarining bir-biriga bog'liqligini izohlang

7-Mavzu: Tarix darslarida ta'lim vositalaridan foydalanish

Reja:

- 1. Ta'lim vositalari bilimlar manbai**
- 2. O'quv metodik komplekslar mazmuni**
- 3. Ta'limning texnik vositalari**

Tayanch so'z va iboralar: dars, ta'lim vositalari, darslik, tarixiy hujjatlar, ilmiy-ommabop adabiyotlar, badiiy adabiyotlar, yozma manbalar

O'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishda qo'llaniladigan matnlarga — darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlari. ilmiy-ommabop va tarixiy-badiiy adabiyot va boshqalar kiradi. Bosma matnlar o'quvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi o'qituvchining bilim manbaini, bayon qilinayotgan material asosida tashkil etadi.

Tabiiyki, o'qituvchi shu manbalardan to'g'ri va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni didaktika talablariga, umuman o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limining yuksak talablariga javob berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli, g'oyaviy va ilmiy jihatdan ishonarli, obrazli va ta'sirchan bo'lishi samarali natijalarni berishi mumkin.

Shuningdek, matnlar ustida ishslash ham o'quvchilar bilimini kengaytiradi, tarixiy fakt va hodisalarning mohiyatini, ularning

qonuniyatlarini chuqurroq tushunib olishlariga yordam beradi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi. O'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quvchilar har xil matnlar ustida ishlab, mustql ish olib borish malakasini hosil qiladilar va tarixiy tadqiqot ishlarining dastlabki metodlari bilan amaliy ravishda tanishadilar. O'qituvchi mavzuning bayonini boshqa matnlar asosida yanada aniqlashtiradi va boyitadi.

Darslik matni o'quvchilarning darsda va darsdan tashqarida tarixni o'rganish, o'zlashtirish va uni esda saklab kolishining, bilish faoliyatining, ijodiy izlanish ishlarini olib borishiing muhim manbaidir. Mashq va ulardagi savollar, topshiriqlar tarix kursining mazmunini ijodiy o'zlashtirishga va olingen bilimlarni hayotda kullahsga o'rgatadi.

Darslik matni ustidagi ishlar o'quv materialini o'zlashtirish va uni esda saadab kolish, o'quv matnnini tahlil qilish va undan tarixiy voqeа hodisalarning muhim belgilarini topish, faktik materiallarni va tarixiy faktlarning muhim belgilarini bir-biriga taqqoslash, aniqlashtirish va umumlashtirish kabi turli xil maqsadlarda olib boriladi.

Shuningdek, matn ustida ishslashda xronologiyani, tayyor tarixiy tushunchalar ta'rifini o'zlashtirish va ularni mustql aniqlash, darslikda bayon qilingan voqeа va hodisalarning rivojlanishini kuzatib borish, aniq tarixiy faktlar va statistik ma'lumotlar asosida ijtimoiy rivojlanish an'analarini bilib olish, maxalliy, vaqtli, sabab-natijali va tarixiy aloqalarning qonuniyatlarini o'zlashtirish va aniqlashtirish, lug'at ishlarini mazmunli va suratlari rejalar, jadvallar tuzish va boshqa shu kabi uncha murakkab bo'limgan yozuv va grafika ishlarini olib borish, matn ustida programmalashgan ta'lim elementlarini amalga oshirish kabi vazifalar ham ko'zda tutiladi.

1. Tushuntirib va izohlab o'qish. 5-sinfda "Tarixdan hikoyalar"ni o'rganishda va 6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixi"ni o'qitishning dastlabki oyalarida o'qituvchi butun mavzu yoki uning biror bo'lmini goh bayon qiladi, goh darslik matnni o'qib, tushuntirib beradi. O'qituvchi matnni murakkab

joylariga kelganda hikoyasini to'xtatib, matnni ovoz chiqarib, ohista o'qib beradi. O'quvchilar esa matnga qarab kuzatib borishadi, tushunish oson joylarni o'quvchilarning o'zlariga ham o'qitish mumkin. Matnni o'qish jarayonidayoq uning mazmunini o'quvchilar tomonidan tushunish darajasi tekshiriladi. «Qani Rustam aytib bergin-chi, mana bu abzasdagi «eng qadimgi odamlar jamoasi odamlar to'dasi»— degan jumlanı qanday tushunasan? Eng qadimgi odamlarning hozirgi odamlardan farqinichi? O'qituvchi ana shu tariqa savollar berib o'zining bayoni davomida darslik tekstiga tez-tez murojaat qilib, undagi yangi iboralar, terminlarni, qiyin jumlalar mazmunini tushuntirib beradi. Bu bilan O'qituvchi o'quvchilarni darslik matnini e'tibor berib, tushunib o'qishga o'rgatadi, ularning darslik matnini puxta o'rganib olishning ahamiyatini anglab olishlariga yordam beradi, uyda darslik ustida mustqil ishlashlariga tayyorlaydi. O'quvchilar tarixiy materialni tushunib, matnni o'qishda ma'lum darajada malaka hosil qilganlaridan keyin matnning eng muhim va qiyin joylarini izohlab o'qishga o'tiladi. Izohli o'qish ham o'qituvchining bayoni bilan birga olib boriladi. O'qituvchi o'z bayoni davomida darslik matnini, xususan matndagi ayrim murakkab joylarni izohli o'qish usuli o'rgatadi. Bu hamma sinflarda, hatto o'rta ta'lif va o'rta maxsus ta'lif tizimida ham qo'llaniladi.

2. O'qituvchi o'z bayonida o'quvchilar diqqatini darslik matnidagi ayrim jumlalar va iboralarga jalb etadi. Masalan, O'qituvchi 6-sinf "Qadimgi dunyo tarixi"dagi «Chorvachilik va dehqonchilikning boshlanishi»— degan mavzuni hikoya qilib berayotganda, darslikda "Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi ibtidoiy odamlar hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi», yoki «Qadimgi Misrning tabiatи va aholisining mashg'ulotlari»— degan mavzuni hikoya qilishdan oldin, darslikning «Odamlarning zo'r berib qilgan mehnati tufayli, Nil vodiysining qiyofasi o'zgarib borganligi, Misr odam yashashi uchun deyarli yaroqsiz bo'lgan bir joydan aholisi gavjum bo'lgan

dehqonchilik mamlakatiga aylanganligi» haqidagi jumalarga o'quvchilarning diqqati jalb qilinib, so'ngra ularning ma'nosi tushuntirib beriladi.

3. Darslik matni mazmunini o'zlashtirishda uning har bir paragrafini tahlil qilish va ular ustida o'quvchilarning mulohazalarini uyuştirish katta ahamiyatga egadir. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga darsda o'tilayotgan paragraf matnida qo'yilgan muammolarni va uning tematik tuzilishini ajratib berishni topshiradi yoki o'quvchilar oldiga: «mana bu abzasda nima haqda gapirilgan?» «unga qanday sarlavha qo'ysa bo'ladi?» degan savol qo'yiladi. Bu yo'l bilan o'quvchilar matnni e'tibor bilan o'qib, undagi bosh masalalarni ikkinchi darajadagi masalalardan ajratib olishga, ular asosida reja tuzishga o'rganadi.

4. O'quvchilar bob, paragraf va undagi punktlarni bir-biridan ajrata bilishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o'quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhalarni o'qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasiga bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishidagi tafovutlarning sabablarini izohlab beradi. O'qituvchi o'zining bayoni davomida kichik sarlavhalar ichidagi mavzularga takror-takror qaytishi mumkin. Ayniqsa, yangi tushunchalarga duch kelinganda shunday bo'ladi.

5. Darslik matni mazmunini bevosita o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar. Bu darslik matni ustida olib boriladigan ishning markaziy masalasidir. Bu ishlar matnni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy faktlarga baho berish, ular o'rtasidagi sabab va boshqa aloqalarni ochib ko'rsatish va ularni taqqoslashdan iboratdir. Bu ishlar quyidagi metodik usullar bilan:

- a) har bir paragraf yoki mavzu mazmunining eng muhim masalalari yuzasidan test tuzdirish yo'li bilan;
- b) o'qituvchi bergen savollarga o'quvchilarning darslik matnidan javob topish yo'li bilan;

v) darslik matnidan o'qituvchining xulosasini tasdiqlovchi faktlarini toptirish yo'li bilan;

g) darslik matnida bayon etilgan voqealarning bir-biriga o'xshashligini, farqlarini aniqlash yo'li bilan;

d) tasdiqlab berishni talab qiladigan vazifalar bilan amalga oshiriladi.

6. Darslik matni ustida ishslashning muhim elementlaridan biri — o'quvchilarни uyda ishslash uchun beriladigan vazifasini bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo'lini yaxshi anglab olishlari shart. Binobarin, o'qituvchi uy vazifasini topshirishda, uning harakterini belgilashda o'quvchilarning bilim va malakalarini e'tiborga olishi, x,ar gal beriladigan vazifa oldingidan ko'ra murakkab bo'lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalari oshib borishiga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o'rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, sxema, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish uy vazifasini ijodiy va mustqil bajarish namunalardir.

7. O'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatish ham ta'limning muhim elementidir.

8. O'quvchilarning faol aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri, ularning o'qituvchi bayon qilgan yangi materialni o'zlashtirishda mavjud bilimlarni ishga sola bilishidir. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o'rgatish lozim. O'quvchilar olgan bilimlarini esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqt-vaqt bilan ularning e'tibori darslik matniga qaratiladi.

9. Uyda ishlab kelish uchun berilgan topshirqlarni o'quvchilar qanday bajarganliklarini tekshirishda ma'lum bo'lgan, og'zaki yoki yozma javoblaridagi xatolarni, aniqsizliklarni to'g'rakash uchun ham darslik matniga murojaat qilinadi. Shunday qilib, darslik matni ustidagi ishlar turli xil metodik usullar yordamida, o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida—materialni

o'zlashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi va hokazo.

Tarixiy hujjat, avvalo, o'qituvchining bayonini konkretlashtirish, chuqurlatish va unga aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi, bayonning ishonchli va emotsiyal bo'lismi ta'minlaydi, o'tmisning yorqin obrazlarini, tarixiy voqealarning yaxlit manzarasini gavdalantirishga, o'rganilayotgan davr xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi.

Hujjat ustida ishslash o'quvchilarni faktlar va hodisalarini mustqil ravishda aniqdashga, ularni puxta anglab olib, xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Shu bilan birga hujjat ma'lum vaziyatni aniqlashga, uni ahamiyatini bilib olishga, ularning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, o'quv ishlari faoliyatining yangi usullari bilan qurollantiradi, hujjatni tushunib olish malakasini hosil qiladi.

Tarixiy hujjatlar bilan ishslashning yana bir muhim tomoni shundaki, bu ish o'quvchilarni tarixiy tadqiqot metodining elementlari bilan tanishtiradi hamda ularni tarixiy hujjatlarga tanqidiy qarashga o'rgatadi. O'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'limning yangi mazmuni amalga oshishi munosabati bilan tarix o'qitishda tarixiy hujjatlearning roli yanada oshdi. Yangi dastur asosida yozilgan darsliklar mazmunining asosiy qismini tarixiy hujjatlar tashkil etadi.

Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham tarixiy hujjatlar bilan ishslash zaruriy bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu ish o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimi tajribasida ommaviy tus oldi. Darsliklardagi tarixiy hujjatlar har bir sinfdagi o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, o'sha sinfda o'rganiladigan tarix kursining xususiyatlariga qarab kiritilgan.

Shu sababdan darsliklardagi tarixiy hujjatlar o'zlarining harakteri, ko'lami va mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiladi. 6-sinf o'quvchilarining yoshi, bilimi va ularning tarixiy hujjatlar bilan deyarli birinchi marta tanishishlarini e'tiborga olib, darslikka asosan hikoya va tavsiflab berish

harakteridagi hujjatlar kiritilgan. "Qadimgi dunyo tarixi" darsligiga kiritilgan hujjatlari manbalarni asosan uch guruhga bo'lishi mumkin:

1) moddiy madaniyat buyumlari, 2) tasviriy san'at asarlari, 3) yozma manbalar.

1) moddiy madaniyat buyumlariga —saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, quroq-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari, uy-ro'zg'or anjomlari, turar joylar, qo'rg'onlar, maqbaralar, qadimgi shahar harobalari va boshqalar kiradi. O'quvchilar mehnat qurollari va boshqalarga qarab, odamlarning mashg'ulotlarini, xashamatli imoratlar va pastqam kulbalar mavjudligini, diniy marosimlarga va kishilarning dafn qilinishidagi rasm-rusumlarga doir topilmalar asosida o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarini bilib oladilar.

2) tasviriy san'at asarlari — moddiy voqeikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini hamda ularning tevarak-attrofidagi narsalarni — har xil buyumlarni, geografik muxitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlari, odamlarning har xil ma'budlar, ruh-arvoohlari, jinlar, alvastilar, afsonaviy qaxramonlar, devlar va hokazolar haqidagi xayoliy tasavvurlarini aks ettiruvchi asarlari kiradi.

3) Yozma manbalarga — qonunlar, buyruqlar, xo'jalik ishlariga doir yozuvlar, shartnomalar, xizmat vazifasiga oid yozishmalar, sud hukmlari, yilnomalar, xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlari, xatlar va yozuvlar kiradi. Qadimgi dunyo tarixida berilgan bu hujjatlari materiallar o'quvchilarini estetik jihatdan tarbiyalashda muhim urin tutadi. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning har bir yangi bosqichida darsliklardagi hujjatlari materiallarning harakteri o'zgarib ko'lami ortib va murakkablashib boradi. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish tajribasida tarixiy hujjatlar bilan ishslashning quyidagi ikki usuli, ya'ni tarixiy hujjatlardan o'quvchining bayonida foydalanish usuli bilan o'quvchilarning matn ustida ishslash usuli qo'llaniladi. O'quvchi o'zining

bayonini aniqlashtirish va uning ta'sirchanligini oshirish maqsadida hujjatlardan olingen parcha, jumla, ifodalardan, yorqin obrazlar va harakteristikalardan foydalanadi. Foydalanilgan hujjatlarning hammasining ham manbalarini aytishi shart emas, «solnomachilar», «zamondoshlarning» ma'lumotlariga qaraganda degan umumiy iboralar bilan chegaralanishi kifoya. 8-9-sinf o'quvchilarini ko'proq memuar harakterdagi materiallar, tarixiy voqealarning zamondoshlari va qatnashuvchilari bergan ma'lumotlar qiziqtiradi. Foydalanilgan tarixiy hujjatning ko'rsatmasi bo'lishi kerak, bu ko'rsatma o'quvchi bayonining ko'rsatmali va ifodali bo'lishini ta'minlaydi.

Tarixiy hujjat o'quvchi bayonini, bayondagi harakteristika va chiqarilgan xulosalarni tasdiqlaydi. O'quvchi darslik yoki xrestomatiyadan olingen hujjatning mazmuni va o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab uni tahlil qilishi, sind o'quvchilariga hujjat yuzasidan savollar berishi yoki umumlashtiruvchi analitik suhbat yordamida tahlil qilishi mumkin. Tarixiy hujjatlar ustida ishslashda o'quvchilar ularni nima uchun xizmat qilishini, tanishilayotgan hujjatlar qachon va kimlar tomonidan yaratilganini, ulardan nimalarni bilib olish mumkinligini tushunib olishlari lozim.

Agar hujjatlarda tushunish qiyin bo'lgan terminlar uchrab qolsa, ular doskaga yozib tushuntiriladi, o'quvchilar lug'at daftarchasiga yozib oladi. Tarixiy hujjatlar ustida ishslashning turli usullari bor.

1. O'quvchi tarixiy hujjatni o'zi tahlil qilib berishi mumkin.
2. Tarixiy hujjatlarni o'quvchining bevosita rahbarligida o'quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin.
3. O'quvchi o'quvchilarga ma'lum hujjatlarni uyda mustqil tahlil qilib kelishni topshirishi mumkin.
4. O'quvchilarini kichik guruhlarga bo'lib, har bir guruhda hujjatlar bilan mustqil ishslashni tashkil etish. Tushunish qiyin bo'lgan murakkab tarixiy hujjatlarni o'quvchining o'zi o'qiydi, tahlil qilib izohlab beradi. O'quvchilar matnni kuzatib borishadi va o'quvchining tushuntirishlarini diqqat bilan

tinglaydi. Yuqori sinflarda hujjat izoh berib u qiladi. O'qituvchi hujjat yuzasidan o'quvchilarga savollar berib, muammolar qo'ysa, o'quvchilarning bilish va fikrlash faoliyati faollashadi. VI—VII sinflarda O'qituvchi hujjatni o'zi tahlil qilib beradi, ammo shu bilan birga o'quvchilarni hujjatlar bilan ishlashga ham o'rgatadi. O'qituvchi hujjatlar bilan ishlashning yana bir usulini, ya'ni hujjatlarni o'quvchilar bilan birga tahlil qilish usulini qo'llaydi. Har bir matnda ham oson va murakkab joylar bo'ladi. Matndagi murakkab joylarni o'qituvchining o'zi yoki suhabat yordamida savol-javob yo'li bilan tushuntiradi. Oson joylarini o'quvchilarga mustqil o'qib o'rganishni vazifa qilib topshirish mumkin. O'quvchilarga ularning bilim va malakalariga yarasha tushunarli hujjatlar tanlab berilgan va hujjatlar ustida mustqil ishlashni ilgari ham mashq qilib ko'rgan bo'lsalar o'qituvchi vazifalar qilib bergen hujjatlarni mustqil o'qib, puxta tushunib olishlari mumkin. Lekin bunda ham o'qituvchi bu ishga rahbarlik qiladi, qiyin joylarini o'qituvchi rahbarligida, oson joylarini o'quvchilarning o'zlarini mustqil o'rganadilar. Xo'jalik, yuridik va shu kabi boshqa qiyinroq harakterdagi hujjatlar o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi. 8-9 sinfdan boshlab ba'zi darslar soatining bir qismi yoki butun dars hujjatlar ustida ishlashga bag'ishlanadi. O'quvchilarning darsda va uydagi mustqil ishlariga talab ortib boradi.

Tarixiy hujjatlar asosida qisqacha axborot va referatlar tayyorlash, hikoya qilishga tayyorlanish, sxematik reja va boshqa grafika ishlarini bajarish, insho yozish va h.k. o'quvchilarning hujjatlar ustidagi mustqil ijodiy ishlari qatoriga kiradi. O'quvchilarni hujjatlarni o'rganishga qiziqtirish, bunga ularda ishtiyoq uyg'otish kerak. Buning uchun ularga hujjatlar ma'lum davrning moddiy yodgorligi va yangi bilimlarni egallashning muhim manbalaridan biri ekanligini aloxdda ukgirish lozim. Hujjatni o'rganishda uning kim tomonidan, qachon yoki qanday nuqtai nazaridan yaratilganini, o'sha vaqtidagi mamlakatning ichki va tashki ahvolini tushuntirib berish zarur.

O'quvchilar "Qadimgi dunyo tarixi"ning kirish qismida yozma manbalar haqida ma'lum tushuncha hosil qiladilar. Keyinchalik bu tushunchalar har xil yozma yodgorliklarni o'rganib borish, turli muzey va arxivlardagi yozma yodgorliklar bilan tanishish jarayonida aniqlashib, boyib kengayib boradi. Shunday qilib, tarixiy hujjatlar o'qituvchi bayonini aniqlashtiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, unga aniqlik kiritadi, ishonarli va emotsiyal bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, bilimlari puxta va mustahkam bo'lishiga yordam beradi, bilim olishning yangi usullari, ilmiy tadqiqotning elementar shakllari bilan tanishtiradi. Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayonning ko'rsatmaliligini ta'minlaydi, uni aniqlashtiradi, o'quvchilar o'tmish haqida jonli tasavvur hosil qiladi.

Badiiy adabiyotning roli bu bilan tugamaydi. Ma'lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o'sha ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalaydi. O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan namunalar bayonning ta'sirchan bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayriyohlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki xayrat tuyg'ularini tug'diradi. Tarix o'qitishda foydalilanligan badiiy adabiyotlarni: 1-o'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari va 2-tarixiy belletristik asarlaridan iborat ikki guruhga bo'lishi mumkin. Adabiy yodgorliklarga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldigan asarlar kiradi. Bu guruhga kirgan asarlar tarix fani uchun o'tmishning o'ziga xos manbai bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy adabiyot yodgorliklari yozib olingan og'zaki ijodiyot asarlarini: afsonalar, dostonlar, qo'shiqlar, masallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlarning juda ko'pida voqelik qayta-qayta ishlangan, xalq fantaziysi bilan boyitilgan va bezatilgan bo'ladi. Voqelikni ob'ektiv suratda tasvir qilgan asarlar, yodgorliklar bizgacha yetib kelmag'an taqdirda uzoq

o'tmishni, masalan qadimgi Gretsya tarixini yoritib berishda ana shunday asarlardan ham tanqid g'alviridan o'tkazib foydalaniladi.

Gomer davridagi jamiyat tarixi, Gomer dostonlaridan va qisman grek afsonalaridan olingen epizodlarni tahlil qilish asosida ta'riflab beriladi. Badiiy yodgorliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning g'oyasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishlariga, tarixiy hodisalar va arboblarning yorqin badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi.

Shu bilan birga o'quvchilar badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi roli bilan ham aniq misollarda tanishadilar. Masalan, «Roland haqida qo'shiq» nomli asarda Karlning o'zi va uning jangchilari ideallashtirilib u olib borgan urushlar tarixi buzib ko'rsatiladi. Shu bilan birga, bu asar ritsarlarning mardligi, o'z sen'origa sodiqligi, fidokorligi bilan, shuningdek o'rta asrlar adabiyotining ana shu turi bilan tanishtiradi. «Roland haqida qo'shiq» shu adabiyog turining eng yaqqol namunasidir.

Roland uydurma obraz bo'lsada undagi ajoyib fazilatlar o'quvchilarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. O'rta asrlarda yaratilgan «Tulki haqida roman»dan shaharliklarning feodallarga munosabatini, ular o'rtasida keskinlashib borayotgan kurashini hamda uni yoritishda hajviyadan qanday foydalanilganligini o'quvchilar tushunib oladi. Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda yaratilgan afsonalardan, qahramonlik dostonlari va boshqa adabiy asarlardan tarix darslarida foydalanganda, o'quvchilarni bu asarlarga tanqidiy ko'z bilan qarashga o'rgatib borish kerak. Shuningdek, ularga bu asarlar o'tmishdan qolgan badiiy yodgorliklar ekanligini, ulardan o'sha davrlarda bo'lib o'tgan voqealarga oid ba'zi ma'lumotlardan foydalanish va qay tariqa foydalanish mumkinligini, bu asarlarning qaysi joyi uydurma va qaysi joylarida real voqelik aks etganini tushuntirish lozim. Belletristik asarlarga — tarixiy romanlar, tarixiy temalarda yozilgan povestlar, o'rganiladigan davr haqidagi badiiy asarlar, hikoya l ar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va

hujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o'rganish asosida yozilgan bo'lib, ularda o'tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi.

Belletristika tarix fani uchun hujjatlari manba bo'la olmasada, o'quvchilarga o'tmishni aniq tushuntirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy roman va povestlarni o'qish natijasida o'quvchilarda tarixga qiziqish uyg'onadi. O'rganilayotgan davrga doir adabiy yodgorliklar tarix darslarida; ko'pincha dars materialini xulosalash va umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Belletristika bayon qilinayotgan o'quv materialini aniqlashtirishga va bayonni maroqli qilishga yordam beradi. O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'limg-tarbiya jihatidan qimmati tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga oladi.

O'qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

a) o'rta ta'limg va o'rta maxsus ta'limg tizimi dasturida ko'zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;

b) tarixiy arboblar va xalq ommasi vakillarining obrazlarini, xalq ommasining rolini ko'rsatishga;

c) muhim tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni va u yerlarning aniq sharoitini tasvirlashga bag'ishlangan asarlarni tanlaydi.

O'qituvchi o'z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o'quvchilarning sinfdan sinfdan tashqari badiiy asarlarni o'qishlari ustidan doimiy nazorat olib boradi. Umuman tarix darslarida ta'limgning tehnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga, o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi. O'qitishning texnik vositalari ekran qo'llanmalar ya'ni televizor, kompyuter, vidioprektor, videofilmlar, slaydlar, kinofilmlar, radioteleeshittirishlar kiradi.

O'qituvchi texnika vositalarining o'ziga xos o'quv qo'llanmasi ekanligini aytadi. Ammo texnik vositalar o'qitish jarayonida o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi. Amaliyotda quydagicha holat yuz berishi mumkin, ya'ni bitta mavzudagi dars bo'yicha darslikda bezaklar, devoriy (tablitsa) jadvallar, doskaga sxematik suratlar ishlanishi mumkin, yana bundan boshqa diafilm, kinofilm va boshqa xillari ham bo'lishi mumkin. Masalan: Uyg'onish davri madaniyati haqidagi darsda darslikdagi (rangli) bezaklar, davriy jadvallar "O'rta asr madaniyati tarixi bo'yicha albom"da, filmlar (XV asrning oxiri-XVII asrning boshidagi "G'arbiy Yevropa madaniyati". "Leonardo da Vinchi", "Muzeylardagi jahon san'ati durdonalari - 9 bo'lim, Italian uyg'onish san'ati") va boshqa radio, teleko'rsatuvlardan ham foydalanish mumkin.

Albatta, hech bir darsda bularning hammasini foydalanish imkoniyati yo'q. Demak, nimani tanlash kerak, ular bilan ishlashni qanday tashkil qilish mumkin. Bu savollarga o'qituvchi o'qitish sharoitini va sinfning xususiyatlarini hisobga olib javob beradi. Dastavval bu qo'llanmalarning mazmundorligi, qulaylliga e'tibor berish kerak. Masalan, italyan uyg'onish davrining san'ati bo'yicha darsda ko'proq rangli diapozitivlardan yoki diafilmlardan parchalar deyarli rang tasvir asarning yaxshi qabul qilish imkoniyatini bera oladi. (o'quv filmlari, oq-qora tasvirdagi kinofilmlarda tasviriy materiallar ko'p berilgan bo'ladi va bu ularni mavzu bilan birinchi bor tanishtirishda qiyinchilik tuggdirishi mumkin). Agarda rangli ekran qo'llanmalari bo'lmasa, qanday D.N.Nikiforov albom tablitsalardan foydalaniladi. Mavzuni uyda mustahkamlash va takrorlash uchun darslik bezaklari beriladi.

Kinofilmlar esa kelgusi darslarda parchalarda bo'lsa ham qo'llanilishi mumkin. Unda o'quvchilar o'zлari uchun yangi bo'lgan tomonlarni anglay olishlari kerak. Ekran ko'rsatmaliligining o'qituvchi uchun eng qulayi bu diafilm va diapozitivlardir. Tarixiy voqealarni qamrab olish, syujetlarning har xilligi bo'yicha tasviriy materiallarga boyligi bilan boshqalardan ustun turadi.

Diapozitivlarni ko'rsatish izchilligini o'qituvchining o'zi aniqlab beradi. Kadrlarga tayanib o'qituvchi hikoya qilishi, tushuntirishi va suhbat o'tkazishi mumkin. Agar texnik imkoniyatlar bo'lsa ekranda ikkita qadrni ko'rsatish mumkin. Bunda, masalan, taqqoslash uchun, o'zgarishlarni aniqlash uchun kerak bo'ladi, aytaylik shaharlarning ko'rinishida, mehnat kurslaridagi har xil tarixiy davrlardagi o'zgarishlar va hokazolarni ko'rsatish mumkin bo'ladi. Maktab amaliyotida kodoskoplardan foydalilaniladi. U ekranda yoki sinf doskasida matnlarni, sxematik rasm, chizma, diagrammani ko'rsatishda qo'llaniladi. Shuningdek, kodoskop bilan ishlashda xonani qorong'ilatmoq talab qilinmaydi.

Bu o'quvchilarning materialni nafaqat ko'rishlarini balki matnlardan kerakli joylarini daftarlariiga yozib olishlariga ham imkon beradi. O'qituvchi ham o'quvchilar bilan aloqani yo'qotmaydi. Teleeshittirishlar, kinofilmlar qisqa vaqt ichida keng ma'lumot bera oladi. Ular orqali tarixiy voqealar qatnashchilarining (aktyorlar ijrosida) jonli ovozini eshitা oladi. Teleko'rsatuvlar filmlarga nisbatan dolzarblikka ega. Ular orqali, ayniqsa, o'quvchilar yaqin vaqtlardagi voqealar bilan tanishib boradi. Bularga nisbatan filmlarni ishlashning o'ziga ancha vaqt ketadi. Kinofilmni o'quvchilarga ko'rsatishdan oldin, o'qituvchining o'zi uni sinchiqlab ko'rib chiqishi va o'rganishi lozim.

Tarix o'qitish tajribasida o'quv filmlaridan foydalanishning bir qancha usullari bor:

a) o'qituvchi o'z bayonini o'quv film eng muhim va yorqin sahifalarini ko'rsatish bilan bog'lab olib boradi;

b) 10-15 minutda qisqa o'quv filmlariga bag'ishlab dars o'tkaziladi;

c) maxsus kino darslari tashkil etiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistan xalqlari tarixi va boshqa fanlarni o'qitishda teleeshittirishlarning ikki xilidan foydalanilmoqda:

1) sinfda qabul qilish uchun beriladigan ertalabki teleko'rsatuvlar

2) o'qishdan tashqari vaqt dagi teleko'rsatuvlar o'quv teleko'rsatuvlarini qabul qilish uchun maxsus tarix xonasi bo'lishi kerak.

Tarix darsida o'quv teleko'rsatuvlarining ikki xil turi qabul qilinadi:

a) 15 minutlik teleko'rsatuv

b) 30-40 minut davom etadigan yangi materialni bayon qilishga bag'ishlangan mavzuli teledars yoki takrorlash darsi

(Sa'diev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi.T., 1999, 192-bet).

O'qituvchi darsda kinoparcha yoki teleko'rsatuvni ko'rsatganda, ularning bilim berish jarayonidagi vazifasini aniq bilish kerak bo'ladi. Murakkab va ma'suliyatlisi, bu kinofilm, teleko'rsatuvlarni mavzu bo'yicha asosiy bilim manbai sifatida qabul qilish ya'nii amalda buni tele ya'nii kinodars deb atashadi. Bunga o'qituvchi ham o'quvchilar ham e'tiborsiz qaramasligi kerak va u katta tayyorgarlikni talab qiladi.

Dars oldidan o'quvchilarni ekrandan qanday ma'lumot olishlari kerakligini aytib, tushuntiriladi. Unda film (ko'rsatuv) ko'rish paytida bajarishlari lozim bo'lgan topshiriqlar berish mumkin. Bunga film bo'yicha savollar, reja tuzish (ular doskaga yozib qo'yiladi) kiradi. Film ko'rish paytida bunday topshiriqlar ko'pincha yuqori sinf o'quvchilariga beriladi, o'qituvchi muhim qadrlar paytida o'quvchilarning e'tiborini jalb qilib, tanish bulmagan terminlarga, geografik atamalarga aniqlik beradi, ismlar, sanalar doskaga yozib qo'yiladi.

Shuningdek, teleekran tarix o'qitishda ko'rsatmalilikning samaradorligini yanada oshiradi. Tarix o'qitish tajribasi teledars g'oyaviy-tarbiyaviy va didaktik jihatdan boshqa ko'rsatmali vositalardan ko'ra ancha qulay va afzal ekanligini isbotladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tarix darsligi tarkibiy qismlari haqida nimalar bilasiz?

2. Tarixiy hujjatlar ustida ishslashning usullari.

3. Darslik matni ustidagi ishslash asosiy bosqichlarini aniqlang.

4. Tarix darslarini samaradorligi oshirishda muzey peadagogikasini o'rnini aytib bering.

8-mavzu. Tarix darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish

Reja:

1. Mustaqil fikrleshni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

2. Tarixiy faktlarni sharxlash va asoslash

3. Tarix darslarida ta'lim vositalaridan foydalanish

Tayanch so'z va iboralar: xatarnok, integratsiya, ratsional xulosa, kreativ tafakkur, orginal qaror, unikal qaror, tushuntirishli, ko'rgazmali, muammoli, dasturlangan, tabaqalangan, masofali, modul.

Axborotlar jadallik bilan integratsiyalashib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri atrof-olam voqeа hodisalarini mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni kamol toptirishda namoyon bo'ladi. Boshqa umumta'limiy fanlar singari Tarix fani ham o'quvchilarning mustaqil fikrleshini shakllantirish uchun juda katta imkoniyatlarga ega.

Demokratik jamiyatda erkin fikrlay oladigan shaxslar qadr-qimmatga ega bo'ladilar. O'z navbatida ular boshqalarning intilish va fikrlarini qadrlay

oladilar. Qadr-qimmat shaxsning ijtimoiy va man'aviy erkinligining muhim tomoni sifatida yuzaga chiqadi. Erkinlik-mustaqlil fikrlash uchun qo'yilgan birinchi qadamdir. Mustaqil fikrning mavjuligi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilarning erkinlik darajasiga bog'liq. Mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlanirish uchun o'quvchilarning individual va jamoaviy erkinligiga erishish zarur. Chunki mustaqil fikrlash shaxsning hislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori ko'rsatgichni ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib qoladi. Shu bilan birga, mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergen imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va in'ikosidir. Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqealikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan harakterlanadi.

Insonning mustaqil baholay olish qobiliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lganligi sabablari tarix fani o'qituvchilarning ishida asosiy yo'naliishlardan biri o'quvchilarda mustaqil fikrlay olish malakalarini tarkib toptirish bo'lishi lozim. Tajribalar shuni ko'rsatadiki boshlangan ishni sabr-toqat bilan mustaqil ravishda tinmay izlanish orqali oxiriga yetganlaridagina hayotda ko'zlagan maqsadlariga erishadilar. O'quvchi talabalarni an'anaviy hislatli tarbiyalashda mustaqil ishlarni tashkil etish o'ziga xos muhim o'rinn tutadi. O'quvchi yoshlar hozirgi kunda axborot oqimini niroyatda kattaligi, fan-tekniqa taraqqiyoti tufayli ular qanchalik mohir bo'lmasin, dars jarayonida qanchalik bilimga ega bo'lmasin o'z bilimlarini yetkaza olmaydilar. Uni to'dirishni yagona yo'li o'quvchi talabalarning o'z ustilarida mustaqil ishlardir.

Tarix ta'limalda o'quvchilarning mustaqil ishlashi o'qitish jarayonining ajralmas elementidir. Mustaqil ishsiz o'qitish va o'quvchilarning mustaqil o'qishlari birligini ta'minlash mumkin emas. Ammo mustaqil ishlashni o'qitish metodi deb hisoblash mumkinmi? Bu xususda bir necha nuqtai nazar mavjud bo'lgan. Uni ba'zan o'quv ishini tashkil qilish formalariga,

o'qitish turlariga, o'qitishni amaliy metodlari qatoriga kiritishgan. Keyingi yillarda uslubiy mualliflarning ko'pchiligi mustaqil ishlashni o'qitish metodlariga kiritishmoqda, chunki u ta'limg-tarbiyaviy masalalarni, jumladan bilish mustaqilligi va o'qishni bilan masalalarini hal qilishning keng tarqalgan uslublaridan biri rolini bajarmoqda. Shunday bo'lsa ham o'qituvchilar orasida: agar biz amaliy metodlarni, ya'ni amaliy ish jarayonida nazariy bilimlarni qo'llash metodlarini ajratgan bo'lsak, endi nimaga mustaqil ishlash metodini ham ajratishimiz kerakmi? Axir bu yerdagi ham gap mashqlar, masalalarni yechish, tajribalarni bajarish haqida boradi-ku, degan masala ko'pincha takror va takror ko'tariladi.

Bu metodlarning farqini ko'ramiz va ularni alohida ajratish zarurligini quyidagilarda deb bilamiz: Amaliy metodlar asosan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash va mustahkamlashga, eksperimental, mehnat ko'nikma va malakalarini maromiga yetkazishga yo'llangan bo'ladi. Ular ko'pincha o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida qo'llanadi. Mustaqil ishlash metodlari mashqlari jarayonida bilimlarni qo'llashga yordam beribgina qolmay, o'quvchilar tomonidan yangi materialni darslikdan o'rganilganda, topshiriqlarni mustaqil bajarganda ham bevosita qo'llanadi.

Mustaqil ishlash metodlarining eng harakterli xususiyatlaridan biri, bu o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini o'qituvchining bevosita boshqaruvsiz bajarishidir. Mustaqil ishlash o'quvchilar tomonidan darslarda yangi material matnini o'rganish, mashqlarini bajarish, tajribalar, kuzatishlar, mehnat operatsiyalarini o'tkazish va shu kabilar orqali amalga oshirilishi mumkin. Mustaqil ishlashning anchagini keng tarqalgan turi uy vazifalarini (og'zaki, yozma yoki tajriba eksperimental) bajarish hisoblanadi.

Mustaqil ishlash metodlari, ayniqsa, tarix o'qitishdagi ta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlaniruvchi vazifalarni amalga oshiradi. Mustaqil ishlash tafakkur, ko'nikma va malakalarning rivojlanishiga yordam beradi, shaxsning irodasini chiniqtiradi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga imkon beruvchi jihatlarni tarkib toptirishda tarix fanini o'qitish mazmunini belgilab beruvchi DTS, o'quv dasturi, darsliklar alohida o'rın tutadi.

Umumiylar o'rta ta'larning tarix fani bo'yicha davlat ta'lim standartida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga imkon beradigan quyidagi ko'nikmalarni egallashi lozimligi aniq belgilab qo'yilgan:

- jamiyatda va dunyoda kechayotgan jarayonlarga o'zining mustaqil munosabatini bildira olish;
- tarixiy manbalarni mustaqil o'rganish asosida xulosalar chiqara olish;
- tarixiy jarayonlar haqida ma'lumotga ega bo'lish va qiyosiy tahlil qila olish;
- tarix ta'lim jarayonida egallagan bilimlarini erkin bayon eta olish, o'z sinfdoshlarining fikrlariga munosabat bildira olish.

"Tarix" fanidan umumiylar o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturining uqtirish hatida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish bilan bog'liq quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- o'quvchilarning milliy ongi, siyosiy, nazariy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirish; o'tmish va hozirgi zamondagi voqealarni hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiylik tamoyillariga amal qilgan holda munosabat bildirishga qodir hamda umumin-soniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli barkamol insonni tarbiyalash;
- o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashini, tarixiy tafakkurini, bilim olishdagi faolligini, mulohaza yuritish tiyrakligini, o'z bilimini boyitishga ishtiyoq va talabchanligini rivojlantirish, bolalarga tarixiy materialni tahlil qilish va umumlashtirish asosida mantiqiy xulosalar chiqarishga ko'makashish;
- o'z haq-huquqlarini taniydigani, o'z kuch va imkoniyatlarga tayanadigan, dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini

mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin fuqaro, ozod shaxsnini shakllantirish.

Xo'sh, tarix o'qitish jarayonida mustaqil ishlash metodlarini tanlash qanday amalga oshiriladi? Tarixni o'qitishda mustaqil ishlash metodlari shaxsnini ta'lim jarayonida o'qitish, tarbiyalash va kamolatga yetkazish masalalarini hal qilishda maksimal foyda beradigan vaziyatlarda qo'llanishi kerak.

Endi tarix o'qitishda mustaqil ishlash metodlarini qo'llash eng maqbul bo'lgan vaziyatlarni ko'rib chiqaylik:

1. Qaysi vazifalarni hal etishda bu metod, ayniqsa, muvaffaqiyatlari qo'llanadi?

- O'quv faoliyatidagi mustaqillikni rivojlantirishda, o'quv mehnati malakalarini shakllantirishda.

2. Bu metodni o'quv materialining mazmuni qanday bo'lgan hollarda qo'llash, ayniqsa, samaralidir?

- Material mustaqil o'rganish uchun qulay bo'lgan hollarda.

3. Bu metodni o'quvchilar qanday xususiyatlarga ega bo'lganlarida qo'llash samaralidir?

- O'quvchilar mazkur mavzuni mustaqil o'rganishga tayyor bo'lganlarida.

4. O'qituvchi bu materialdan foydalanish uchun qanday imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak?¹

- O'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun barcha didaktik va metodik materiallar mavjud bo'lib, uni darsda tashkil etish uchun yetarli vaqtga ega bo'linganda.

Zamonaviy maktabda mustaqil ishlash uchun qancha vaqt ajratiladi? O'quv materialining mazmuni va guruhdagi o'quvchilarning imkoniyatlari

¹ Yu. K. Babanskiy. Hozirgi zamon umumiylar ta'lim maktabida o'qitish metodikasi. -Toshkent. O'qituvchi. 1990. -B. 180

qancha bo'lsa, o'shancha. Ammo shuni ochiq-oydin aytish mumkinki, hozirgi zamon maktabi sharoitida mustaqil ishslash metodining imkoniyatlari hali yetarlicha baholashmayapti. U tarix o'qitish metodlari xazinasidan o'z o'rnini, albatta, olishi kerak.

Mamlakatimizda xalq ta'lmini davr talablari asosida rivojlantirishga qaratilgan bu qarorlar yosh avlodni tom ma'nosida kamol topishiga mustahkam fundament yaratish bilan bir vaqtida amaliyotda ham katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari hisoblangan Yaponiya, AQSH, Angliya va boshqa mamlakatlarda ham O'zbekistonimizdagidek davlat byudjetini deyarli 12,5 foizini xalq ta'limga ajratgan emas.

Xo'sh, biz pedagoglar davlatimiz tomonidan xalq ta'lmini davr talablari darajasida rivojlantirish uchun yaratib berilgan ana shunday imkoniyatlaridan amaliyotda qanday foydalayotirmiz?

Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Buxoro, Qarshi, Navoiy va Jizzax shahridagi qator akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim jarayonlari bilan yaqindan tanishganimizda ta'lum-tarbiyaning eng dolzarb masalalaridan biri talabalarda milliy g'oyani shakllanishi, takomillashib borishi jarayonda o'quvchilarni mustaqil ishlarini ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish va boshqarish yo'lida ta'rifga molik birmuncha tajribalar borligini guvohi bo'ldik.

O'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish va uni ilmiy-metodik jihatdan samarali boshqarish nafaqat ta'lum-tarbiya jarayonida, bemubolog'a aytish mumkinki, yosh avlodni milliy mustaqilligimiz in'om etgan buyuk ne'mat-inson haq- huquqlarini tom ma'nosida himoyalashni kafolatlash va uning o'z xohish istagi bilan ongli kasb tanlash va mustaqil Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashda o'z ulushini qo'shishida ham katta yaratuvchilik ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar biron mavzuni mustaqil holda atroficha o'rganib, mavzu bo'yicha fikr-mulohazalarini aniq nisbatan me'yoriga yetkazib bayon etishiga pedagogning beradigan ilmiy metodik yo'llanmasi, albatta, alohida ahamiyat kasb etadi. *Lekin, bunday fikrimizdan zinhor va zinhor «Maktabdag'i jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi, tamoyil ham tayyor:*

«Mening aytganim-aytgan, deganim-degan»² qabilida bo'lmasdan, o'quvchining mustaqil ijodiy tafakkur etishga yo'naltirish, uning mustaqil ishining aniq rejalarini belgilash, dastlabki mashg'ulotlar davomida sinfda o'qituvchi nazorati ostida tashkil etilishi, boshqarilishi o'quvchining besamar ishdan saqlab qolishiga qaratilgan bo'lmog'i kerak.

O'quvchilarning mustaqil ishlari, ayniqsa, gumanitar fanlarni o'rganishga qaratilgan bo'lsa, albatta, *oddiy masalalar*: tushunchalarni ilmiy jihatdan shakllantirishdan boshlanib, murakkab tushunchalar, tamoyillar, manbalarni mustaqil tahlil etish, alohida mavzularda referatlar tayyorlash, u yoki bu masalaga nisbatan shaxsiy fikrini bayon etishga qadar tahlil etib, o'z fikri, munosabatini bayon etishga qadar boradi.

Ikkinchidan, *«Ta'lum to'g'risida»gi qonunning «Oiladagi ta'lum va mustaqil ravishda ta'lum olish»ga bag'ishlangan 18-moddasida qayd etilganidek, «Davlat oilada ta'lum olishga va mustaqil ravishda ta'lum olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lum olish tegishli ta'lum muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi»³.*

Masalan, o'quvchilarga mamlakatimizning yaqin vaqtidagi taraqqiyotiga mo'ljallangan ustuvor vazifa va besh ustivor yo'nalish to'g'risida to'la tushuncha berar ekanmiz, ularning birinchi va ikkinchi yo'nalishlar bo'yicha quyidagi masalalar xususida o'z fikr-muloxazalarini

²Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining povdevori –Toshkent SHarq, 1997 –B 9

³O'zbekiston Respublikasining "Ta'lum to'g'risida"gi qonuni, 18-modda Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining povdevori –Toshkent: SHarq, 1997 –B 25

mustaqil ravishda yozma holda bayon etishlarini uygaz vazifa sifatida topshirdik:

I. Davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifalar:

1. Qonunchilik jamiyatni bo'lmish mamlakat parlamentining roli va ta'siri qanday kuchaytirilmogchi?
2. Hukumatning ijro va sud tarmoqlari o'rta sidagi mutanosib va barqaror muvozanatga erishmoq uchun nimalar qilish kerak?

II. Hokimiyatni uchinchi tarmog'i-sud-huquq tizimi qanday isloh qilinadi va yanada liberallashtiriladi?

Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilarda mustaqil fikr-mulohaza qobiliyatlarni dialektik holda rivojlantirishda ularga beriladigan muammoli savollarning mantiqan aniq va tushunarli bo'lishi ham nazariy, ham amaliy tafakkurlarida muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda pedagogning tajribali mutaxassis sifatidagi omili, uning malakasi deyarli hal qiluvchi rol o'ynaydi desak, o'zlarining ilmiy- metodik va pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga loqayd va «Yangi pedagogik texnologiya» degan tushunchadan mutlaqo bexabar bo'lgan ayrim «pedagoglar» ensalari qotib, «bolani o'zida bo'limsa, unga bir narsani uqtirish amri-mahol» deb o'zlarining ta'lif tarbiya jarayonidagi yaroqsizligiga ham hukm chiqarishlari mumkin. Ta'lif-tarbiya jarayonini kuzatish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bunday ojiz pedagoglar mutloq ozchilikni tashkil etadilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9 sessiyasi mamlakatimiz xalq ta'limi tizimlarida qadrlar tayyorlashdagi ana shunday noxush hollardan mustasno etish yo'lida katta ahamiyat kasb etdi. Zamonaviy, yuqori malakali qadrlarni tayyorlash xususida gap borar ekan, Birinchi Prezident Islom Karimov, «Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmadigan dolzarb

masalaga duch kelmoqdamiz. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimlarga ega bo'lishi kerak»⁴ deb ko'rsatdi.

Bu ko'rsatmalarga zudlik bilan munosabat bildirgan Toshkent shahar O'MKHT boshqarmasi o'z tasarrufidagi 29 ta tayanch o'quv muassasalarida doimiy harakatdagi malaka oshirish (DHMO) kurslarida o'qituvchilar malakalarini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini davrimiz talablaridan kelib chiqqan holda yangi pedagogik texnologiya asosida keng ko'lamma boshlab yubordi. DHMO kurslarida eng tajribali pedagoglar o'z faoliyatlarida dars davomida va auditoriyadan tashqarida olib boriladigan mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarishda samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish tajribasi shuni ko'rsatadi, «odamlarda fanga bo'lgan chuqr xurmat-extiromni shakllantirmasdan turib, ularni samarali o'qitish mumkin emas. O'quvchida darsga bo'lgan qiziqish va sinfdagi osoyishtalik,-deb qayd etgan jahonga mashhur akademik K. Skryabin- "menimcha o'quvchini xuddi shu fanga bo'lgan qiziqishini faol shakllantirib borishdan boshlanmog'i kerak. Har qanday maktab - xoh u boshlang'ich, xoh o'rta yoki oliy bo'lmasisin, unga bo'lgan hurmatni shakllantirishdan boshlanadi. Menga - men uchun farzandimdek bo'lib qolgan fandan saboq berish nasib etdi. Mening biron o'quvchini o'z fanimdan qo'rkitishga haqqim yo'q edi. Men har bir o'quvchini o'qitayotgan fanimga nisbatan har tomonlama qiziqishlarini oshirib borishim kerak. Men ma'ruza qilar ekanman, turli variantlarni qo'llab, ularning birini boshqasiga o'xshamasligiga harakat qilaman". Zerikarli tarix darsidan tarix tugalib qolmaganidek, algebra ham noaniq tushuntirilgan darsdan halok bo'lmaydi. Biroq, bunday zerikarli yoki chalkash-cho'lkash, poyma-poy darsni eshitgan, tushunib bo'lmaydigan tarzda olib borilgan, «tushuntirish»lar

⁴ Bakhromayev O'zbekiston taraqqiyotining poydevoisi. -Toshkent: 1998 -B. 7
79

natijasida o'quvchi o'zi uchun tarixni ham algebrani ham yo'qotadi. Kim bilsin, balki xuddi shu sizning o'quvchingiz siz undagi qiziqishni chipakka chiqargan fanning rivojlanishiga munosib hissa qo'shishi mumkinmidt!»⁵

Darhaqiqat, biz yoshlarda mustaqil ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borish uchun katta professional bilimdonlik, qolaversa, fidoiylik ko'rsatishimiz kerak.

O'qituvchi ishga kirishda so'ralishi mumkin bo'lgan savollarga javob berishga qanday tayyorgarlik ko'rish haqida gapiradi va barcha ishtirokchilarni juftlarga bo'lingan holda intervyu sahnalarini o'ynashga taklif qiladi, bu yerda biri ish beruvchi, ikkinchisi suhbatdosh. Keyinchalik nima bo'lganini majburiy muhokama qilish kerak.

8. Amaliy ko'nikmalarни egallash (kommunikativ, qaror qabul qilish, xatti-harakatlar strategiyalari). Ular odamga qiyin vaziyatlardan tezda chiqish yo'llini topishga, atrof-muhitga yaxshiroq moslashishga, o'z rejalarini amalga oshirishga va maqsadlariga erishishga yordam beradi.

9. Ishni yakunlash. Xulosa qilish, ishtirokchilarning umidlari amalga oshmaganligini aniqlash, xabardonlik darajasining o'zgarishini baholash.

Nazorat topshiriqlari:

1. Mustaqil ishning muayyan ko'nikma va malakalarining mavjudligini aniqlang
2. Joriy o'quv faoliyatini tashkil etish shakli sanab o'ting

3. O'smirlar guruhidagi seminarning xususiyatlarini aniqlang
4. Ko'rgazmali o'qitishning turli uslub va usullari aytilib bering

11-Mavzu: Tarix darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Reja:

- 1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning aspektlari**
- 2. Tarix darslarida o'quvchiga yondoshish bo'yicha texnologiyalar**
- 3. Tanqidiy fikrlash metodlari.**
- 4. O'qitishning interaktiv metodlari.**

Tayanch so'z va iboralar: pedagogik texnologiya, ta'lif texnologiyasi, Individual pedagog, Audiovizual, protsessual-amaliy, Avtoritar texnologiyalar, avtomatlashtirish

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish soxalarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat soxasiga, gumanitar bilimlar soxalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lif soxasida ham. "Texnologiya" tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug'atlar talqini bo'yicha(techne san'at, xunar, fan; logog - tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to'plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operatsiyalar ma'lum ketma-ketligini ko'zda tutadi. Texnologiya protsessual mazmunda "qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?" degan savolga javob beradi.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi o'qitish nazariyasidan keyingi paytlarda yanada kengroq tarqaldi.

XX asrning 20-yillarda "pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa - "pedagogik texnika" termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30-yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalanilgan. Pedagogik texnologiyalarga o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ishslash, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan. O'tgan asrning 40-50-yillarda o'qitish - o'quv jarayonlariga texnik vositalarni tadbiq etish boshlanganida, "ta'lif texnologiyasi" termini paydo bo'ldi, u keyingi yillar davomida "pedagogik texnologiyaga" aylantirildi. 60-yillar o'rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferentsiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AKD1, Angliya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilish darajasiga qarab ikki yo'nalishi belgilandi. Birinchi yo'nalish tarafдорлари texnik vositalar va dasturlashtirilgan o'qitish vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidladilar (technology in education).

Ikkinci yo'nalish tarafдорлари esa o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g'oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo'qotish muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-yo'nalish "o'qitishda texnik vositalar" sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yo'nalish "o'qitish texnologiyasi" yoki "o'quv jarayoni texnologiyasi" sifatida belgilandi. 70-yillarning boshlarida turli xildagi o'quv uskunalarini va o'quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz o'qitishning sifatliligi va samaradorligiga erishib bo'lmas edi. 60-yillar o'rtalari va 70-yillarning boshlarida AKD1, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shug'ullanuvchi jurnallar nashr etilar edi,

keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug'ullana boshlaydi. Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta'limgarayonining samaradorligini oshirish, ta'limga ko'zlangan natijalarga erishish bo'lgan chet el pedagogikasining yo'nalihsiga aytildi (M. Klarin, 1989) milliy pedagogik adabiyotlarda bunday hollarda o'qitishning didaktikasi yoki metodikasi haqida gapiradilar, biroq "texnologiya" termini hozirgi kunda juda keng tarqagan. "Pedagogik texnologiya" so'z birligi - bu inglizcha "al educational technology" - "ta'limga texnologiyasi" iborasining aniq bo'lmagan tarjimasidir. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi oxirgi paytlarda o'qitish nazariyasida yanada kengroq tarqalib kelmoqda. Aynan ana shu mazmunda "texnologiya" termini va uning "o'qitish texnologiyasi", "ta'limga texnologiyasi", "ta'limga texnologiya" shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta'limga-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko'plab ifodalarga ega bo'ldilar (uch yuzdan ortiq). "Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha ishlarda - XX asrning 20-yillarida tilga olingan.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasini turlicha ifodalash mumkin:

1. Texnologiya - bu biron-bir ishda, maxoratda, san'atda qo'llaniladigan uslublar to'plamidir (talqinli lug'at).
2. Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir (V.P. Bespal'ko).
3. Pedagogik texnologiya - bu o'qitishda rejalshtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P. Volkov).
4. Pedagogik texnologiya - bu o'qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus tuplami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalar yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T. Lixachev).

5. Pedagogik texnologiya - bu ta'limga shakllarini optimallashtirish masalasini qo'yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olib o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashga sistemali yondashishdir (YuNESKO).

6. Texnologiya - bu san'at, maxorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlari to'plami, holatini o'zgartirishdir (V.M. SHepel's).

7. O'qitish texnologiyasi - bu o'quvchilar va o'qituvchilar uchun so'zsiz quay sharoitlar yaratib berish bilan o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo'yicha har tomonlama o'ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M. Monaxov).

8. Pedagogik texnologiya - bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T.Sakamoto).

9. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o'zgartiruvchi uning rivojlanish yangi sistemasidir (E Bistereki va J.TSeller).

10. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalilanadigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalarni sistemali to'plami va ishlatalish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

11. Pedagogik texnologiya - bu ta'limga maqsadiga erishishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchining faoliyatini sistemali, kotseptual, qoidali, ob'ektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A.Fradkin).

12. Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalshtirish, boshqarish va ta'minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g'oyalar, vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSH assotsiatsiyasi).

Barcha xalqlarda hamma vaqt yaxshi tayyorlangan mutaxassislar, o'z ishining ustalari hurmat qilingan, mahorat bilan mohirona o'qitish ham yusak

baholangan. Pedagogika fani tarixida o'qitish va qadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan.

O'qitish - bu uning jamiyat taraqqiyoti uchun samarasи pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darxol ko'rinisha ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir. Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi bilangina farq qilmaydi.

Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan "pedagogik davrlarni" ko'rib chiqamiz:

I. Individual pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. O'quv kitobi davri (XVII asrdan Hozirgi davrgacha);

III. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).

IV. O'qitish boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limi boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterni o'qitish).

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi uchta aspektlar bilan taqdim etilishi mumkin:

1) Ilmiy pedagogik texnologiya - o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o'rganuvchi va ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fanning bir qismidir.

2) protsessual-ta'rifi: jarayonni tasvirlash o'qitishning ko'zda tutilgan natijalariga erishish uchun vositalar va maqsad, metodlar to'plami.

3) protsessual-amaliy: texnologik jarayonni amalga oshirilishi, hamma shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning ishga solinishi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o'qitishning eng samarali yo'llarini izlovchi fan sifatida ham, o'qitishda qo'llaniladigan usullar, prinsiplar va

boshqaruvalar sistemasi sifatida ham, o'qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi.

Tarix darslarida o'quvchiga yondoshish bo'yicha texnologiyalar

1) Avtoritar texnologiyalar, bunda pedagog o'quv-tarbiyaviy jarayonning yakka sub'ekti hisoblanadi, o'quvchi esa faqatgina "ob'ekt", biror-bir qismdek bo'ladi. Ular maktab hayotini qat'iy tashkil etilishi, o'quvchi tashabbusi va mustqilligiga yo'l qo'ymaslik, talab va majburlash qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

2) Didaktotsentrik texnologiyalar ham bola shaxsiga e'tiborsizlik yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ularda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sub'ekt-ob'ekti munosabatlarlar hukm suradi, o'qitish ta'lidan ustun qo'yiladi va shaxsni shakllantirish eng asosiy omillari didaktik vositalar hisoblanadi.

3) Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar butun maktab, o'rta maxsus ta'lim tizimi markaziga bola shaxsini, uning rivojlanishi uchun qulay, kelishmovchiliklarsiz va xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirishni qo'yadi. Bu texnologiyada bola shaxsi faqatgina ob'ekt emas, balki muhim sub'ekt hamdir: u biror-bir noaniq maqsadga erishish vositasi emas, balki ta'lim tizimi maqsadi hisoblanadi (avtoritar va didaktotsentrik texnologiyalarida bo'lganidek). Bunday texnologiyalarni yana antrosentrik deb ham ataydilar. Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar antrosentrikligi, insonparvarligi va psixoterapeutik yo'nalgaligini bilan ifodalananadi va bolaning har tomonlama, erkin va ijodiy rivojllanishi maqsad qilib oladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar doirasida insonparvarlik shaxsiy texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari va erkin tarbiyalash texnologiyalari mustql yo'nalgaligi bilan ajralib turadi.

4) Insonparvarlik-shaxsiy texnologiyalar birinchi navbatda o'zining insonparvarlik mohiyati, shaxsni qo'llashga psixoterapeutik yo'nalgaligi,

unga yordam ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Ular bolaga har tomonlama hurmat va muxabbatni, majburlashni rad etib uning ijodiy qudratiga ishonchni targ'ib qiladi.

5) Hamkorlik texnologiyasi, o'qituvchi va bola o'rtasidagi ob'ekt sub'ektiv munosabatlarda demokratiklik, tenglikni, hamkorlikni amalgalashiradi. O'qituvchi va o'quvchi birgalikda maqsad, mazmunni ishlab chiqadilar, hamkorlik va birgalikda ijod holatida bo'lib baho beradilar.

6) Erkin tarbiya texnologiyalar bolaning hayotiy faoliyati doirasida ko'pmi ozmi tanlashi va mustqilligi erkinligi berishga e'tiborni qaratadi. Tanlovni amalgalashirib bola natjalarga tashqi ta'sir ostida emas, balki ichki tuyg'ulari orqali boradi, u sub'ekt nuqtai nazarini eng yaxshi uslub bilan amalgalashiradi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlari. Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlar "Demokratik ta'lif uchun" konsorsiumi tomonidan amalgalashiriladigan "Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozish" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar:

Tanqidiy fikrlash nima? Fikrlash - o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstidan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta'limi dastur yoki kundalik hayotning umumiyligi kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lif oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar. Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi soxasidagi tadqiqotlar natjalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va una hammulliflar, 1985).

2.O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatiroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik,1987).

4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros,1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalgalashiradi. Tanqidiy fikrlash "yakka-yu yagona to'g'ri javob"ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi. Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas.

Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun: tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish; talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish; turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish; talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash; talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak; har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish; tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar: o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish; o'quv jarayonida faol ishtirok etish; turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash; o'z xukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordonlar ta'kidlashadiki, o'z fiklarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham: fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash; o'zaro tanqidiy fikrlar almashish; o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish; fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yildigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat bиргина javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa oladi.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lismasi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga

tayyorligi Tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi. (Михай Чиксентмихай) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta baxra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqlmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida "ahmoqona g'oyalar" aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi buni o'quv jarayonining tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan xoli bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkonini bo'lgan muxitda o'ylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar. unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Qimmatilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari. o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan xoli bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur.

Talabalarning o'zlarini ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta xissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak. o'zaro fikr olishuv. Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrllovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular: o'ziga ishonch hosil qilish; ishda faol ishtirok etish; o'rtoqlar va O'qituvchi bilan fikr olishish; o'zgalar fikrini tinglay olish. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

Yaxpitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir. Izohli idrok etish. Idrokning bu tipida talaba g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli soxalariga oid g'oya va axborotlarni xatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi. Shaxsiy idrok etish. Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmunni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish. uning nisbiy qimmatini, to'g'rilingini, foydaliligini va talabalarning bilishi,

tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir. Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi: talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi; mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi; samarali munozaraga chorlaydi; talabalarning o'zlarini savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi; talabalarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi; talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi; har kanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi; talabalarda personajlarga bo'ladigan ixtirobini o'stirishga yordam beradi; talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi; o'zgarishlar sodir bo'lismiga sabab sifatida xizmat qiladi talabalarning tanqidiy jaib qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

O'qitishning interaktiv metodlari "Aqliy hujum" Shunday qilib, "aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin: - olg'a surilgan g'oyalalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi; - ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi; - istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi; - muammo yechimidan uzoq g'oyalalar ham qo'llab-quvvatlanadi; barcha g'oyalalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi; - "hujum"ni o'tkazish vaqtin aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart; - beriladigan savollarga qiskacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Munozara - Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz "shturm" qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganadilar. Munozarani o'tkazish metodikasi.

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshlik va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirigini beradi va uning qoidalari tushuntiradi: - "hujum"dan maqsad - muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish; -o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiyl fikrga zid bo'sada, xech biri rad etilmaydi; - boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring; - taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinro shug'ullanasisz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi. Agar biror bir kishi tomonidan "aqliy hujum"ni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri "charxlanishi" uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. "Aqliy hujum" ishtirokchilari guruhanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. g'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishadilar va natijada o'rtaga qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi. Agar sinfda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko'pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomonidan. Ikkinchidan, o'quvchilarga o'z fikrini bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1. guruhning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga "rozman", boshqasiga "rozi emasman" degan so'zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: "anjir gullaydi va meva tugadi", yoki "anjir gullamasdan meva tugadi".

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o'quvchilarga taklif etiladi.

4. Bo'lingan o'quvchilardan o'z qarshilarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o'quvchilarining hammasi jalb etildi.

5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, o'quvchilar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirganlar va boshqa guruhga o'tuvchilar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ular o'z o'rnini o'zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo'ladi.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o'quvchilarni aniqdash so'raladi.

"Kichik guruhlarda ishslash"-kichik guruhlarda ishslash o'quvchi darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o'rganishga imkon tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

"Menyu" - Yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ish olib borishni xohlagan ijodkor o'qituvchiga "Menyu" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (o'quvchi) ga aniq topshiriq beriladi. har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida muhokama qilishada so'ngra har guruhlardan bittadan vakil o'qituvchi stoliga kelishadi va tayyor "Menyu"ni olib qaytishadi.

Bu uzun qirqilgan qog'ozlar - "Tillar" bo'lib, ularda xilma-xil huquq normalari bayon qilingan bo'ladi. Guruh vakili tillardan tanlab oladi va o'z

guruhiqa olib keladi, keyin boshqa o'quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu jadval qo'lda tayyorlanishi ham mumkin yoki javoblar og'zaki ham bo'lishi mumkin.

Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o'qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab beradi.

"Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash"- Kichik guruhlarda ishslashning yana bir samarali metodi - bu nashr qilingan materiallar bilan ishlash hisoblanadi. O'quvchi zaruriy axborotlarni izlab topishlari uchun, nazariy bilimlarni mustaxkamlash yoki tasniflashlari uchun, nazariy materiallarni chuqur anglab olishlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinf 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bulinadi.

Guruh bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar, gazetalar, jurnallar, fotoalbomlar, byulletenlar olishadi.

Zaruriy materiallar: A1 formatli oq qog'oz, qaychi, yelim. Topshiriqlar: o'quvchilar 5 guruhga bo'linishadi va har bir guruhga tegishli topshiriq beriladi.

1-guruhga topshiriq: "Ma'naviyat - kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahlokiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui" degan ta'rifning mazmunini izohlang.

2-guruhga topshiriq: "Ma'naviyat deganda, avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman", degan fikrning mazmunini izohlang.

3-guruhga topshiriq: "Hozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzlusiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar hamma narsani xal qiladi", degan so'zlarning mazmun-mohiyatini izohlab bering.

4-guruhga topshiriq: Individual ong, ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiyaning mazmunini tushuntirib bering.

5-guruhga topshiriq: "Mafkura" tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering. Har bir guruh o'ziga berilgan topshiriqni bajarib bo'lganidan so'ng, ularning har biri o'z javoblarini butun auditoriyaga xavola qilishadi. Bunda topshiriqni aniq va to'g'ri yechgan, faoliik ko'rsatgan guruhnini va alohida faol o'quvchilarni rag'batlantirish maqsadga muvofiqliq. Bu metodni qo'llash davomida o'quvchilardan barcha materiallar yig'ib olinadi, aksincha o'quvchilar gazetalardagi boshqa qiziqarli maqolalarni o'qishga kirishib ketadilar va sardorlar fikrlariga qulop solmaydilar. O'quvchilardan ehtiyoj bo'lib ishslash talab etiladi, ortiqcha qog'oz qirqish, yelimalash, sinfni ifloslantirishga yo'l qo'yilmaydi.

"Debatlar" Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'riligiga ishontirishdir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali metod hisoblanadi. Ular o'quvchilarda ijtimoiy fikrnio'zgartirishga ta'sir etish kobiliyati mavjudligiga ishonch tuygularini rivojlantiradi. Metodik tavsiyalar: Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o'quvchilarga sharoit tug'diriladi. Buning uchun esa mavzuni rezolyutsiya shaklida ifodalash kerak bo'ladi. Ma'lumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni o'zgartirishni talab etadi. Misol uchun, "qabul qilingan: AKD1 Oliy sudi oliy jazoning nokonstitutsiyavililagini tan oldi." Mashg'ulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muxandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi. Debatda qatnashish uchun iqtidorli o'quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarni o'tkazish qoidasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishilari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi - yordamchini tayinlaydi.

"Konstruktiv argumentlar" (3-5ta holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustaxkamlangan argumentlar tayyorlash uchun o'quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning ko'lamenti anglash va baxsda o'z fikrini saqlab qolishlari uchun aniq, mantiqiy argumentlar tayyorlashda o'qituvchi yordam berishi kerak. Shu bilan birgalikda o'quvchilar qarshi tomon bildirgan fikrlarni qanday bo'lishi mumkinligini taxmin qilishlari va oldindan bu fikrlarni inkor etishga ham tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Baxslashuv natijasida o'quvchilar nimalarni qo'lga kiritish mumkinligini tushunib yetsagina dars samarasi to'g'risida gapirish mumkin. O'quvchilarni shunday dalil-isbot topish ko'nikmaparini egallashga o'rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga urin kolmasin. Shundagina o'quvchilar tengdoshlarining karashlarini xurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o'rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko'nikmalari shakllana boradi.

Debatlarni o'tkazish tartibi:

1.O'qituvchi va debat ishtirokchilari sinfdan joy olishadi. qulay bo'lishi uchun rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar O'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashishgani ma'qul.

2.O'qituvchi qisqacha muhokama mavzusini va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqtini belgilaydi.

3. O'qituvchi dastlab rezolyutsiyani qo'llaydiganlarning birinchisiga so'z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilish so'raladi. Iloji bo'lsa so'zga chiquvchilar tartibini har bir guruh a'zolari uchun oldindan belgilash kerak. O'qituvchining yordamchisi gapiruvchi uchun ajratilgan vaqtning tugaganligini eslatib turadi.

4. O'qituvchi rezolyutsiyani qo'llaydigan guruh o'quvchilarini birinchisiga so'z beradi va u o'z fikrini yetarlicha argumentlar yordamida asoslab beradi.

5. O'qituvchi birinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga so'z beradi, so'ngra ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisi o'z fikrlarini rezolyutsiya bo'yicha bayon qiladi. Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.

6. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchiga karshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berishga imkoniyat tug'diriladi.

7. Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin emas. Baxsni har doim rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.

8. O'quvchilar bu bosqichda rezolyutsiyaga nisbatan u yoki bu mavqeni egallash sabablarini bayon qilishadi. O'qituvchi bu sabablarni sindoskasiga yozib borishi ham mumkin. O'quvchilar bu sabablarga tegishli savollarga javob berishlari ham mumkin, biroq o'z mavqeining to'g'riligini oqlashga kirishib ketmasliklari kerak.

9. Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko'rsatish kerakki, birinchidan ularning qarashlari muammo yechimiga zid ham bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, barchani o'yashga majbur etsin, uchinchidan, xayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.

10. Debat dars so'ngida o'quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyutsiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashishi kerak.

Shuningdek, har ikki tomondan o'rtaga tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligi ham muhokama qilinishi mumkin.

"Taqnidiy fikrlash" - VAZIFASI. Demokratik jamiyatda har bir fuqaro o'z oldida turgan muammolarni oqilona yechish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu boisdan o'quvchilarni darslarda ko'proq baxsli tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammolar yechimini topishga jalb etish lozim. Baxsli savollarni yechish jarayonida o'quvchilarda tinglash, muloqot olib borish, turlichalar fikrlarni taqqoslash, boshqa kishi taqdiriga befarq qaramaslik kabi hislatlar shakllana boradi, masalalarni yechish va tegishli hukm chiqarish, analistik

fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ma'lum ketma ketlikda tafakkur yurgizish, to'g'ri yechimlarni topish malakalari o'zlashtiriladi. O'tkazish usuli. Munozarali savollarni analitik-sintetik tahlil qilish va ob'ektiv fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun talaygina metodika mavjud.

Ro'y berayotgan voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

1 O'quvchining o'z fikrini erkin ifodalashi. O'quvchiga yechimini topish uchun taklif etilgan muammo bo'yicha o'z o'rnnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Misol uchun, Toshkentda 16 fevral voqealari nima uchun sodir bo'lganligi to'g'risida. Muammoga o'quvchidan javob olish uchun savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sening fikring qanday? Bu haqda sen nimalarни o'ylaysan? va boshqa.

2. O'z fikrini oydinlashtirish. O'quvchi bildirgan fikrlarini yanada aniqlashtirish maqsadida ularga qo'shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? o'z fikringni tushuntira olasanmi? Bu nima degani?

3. O'quvchi fikrlarini asoslanganligini tekshirish. Bu yerda quyidagicha savollarning berilishi o'rinnlidir: Nima uchun sen aynan shunday deb o'ylaysan? Sening mavqeingni tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima uchun senda shunday taassurot tug'ildi? Qanday argumentlarni bildirgan fikring foydasiga keltirasan? Sening fikringni nima isbotlaydi? va hokazo.

4. Boshqalar fikrini o'rganish. Inson o'z fikringning ojizligini har doim ham tan olavermaydi va suhabatdoshining fikriga hurmat va extirom bilan qarayvermaydi. Ayniqsa, bu holatni ko'proq o'smirlarda kuzatish mumkin. Shubhasiz, ko'p hollarda buning aksini ham ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda qator murakkab muammolarning yechimini topishda o'zgalar fikrini eshitish va tinglash ko'nikmasi juda asqotadi. Bu ko'nikmani o'quvchilarda shakllantirishni xohlasangiz, marhamat, quyidagi savollar bilan murojaat qiling: o'z fikringizga muqobil bo'lgan holatni bayon qila olasizmi?

Bu haqda boshqalar nima deyishi mumkin? Tanqidga uchrashingiz mumkinmi?

5. O'z holatini va o'zgalar fikrini tahlil etish. Bu haqda nafaqat o'smirlar, balki kattalar ham ko'pincha o'ylamaydilar. O'quvchi xususiy fikri bilan to'g'ri kelmaydigan fikrlarni ham o'zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama qarshiligini tahlil etishi kerak. Shu maqsad uchun quyidagi savollar asqotishi mumkin: o'z fikring ojizligi nimada? Qarshi tomonning dalil-isboti nima uchun kuchli yoki nima uchun kuchsiz? Qanday fikrlar sizning mavqeingizni mustahkamlaydi yoki uni kuchsizlantridi? O'rganilayotgan muammo bo'yicha har ikkala fikrlarning mantiqiy oqibatlarini o'rganish uchun savollar: Agar sizning g'oyangiz qabul qilinsa, nimalar ro'y berishi mumkin? Bu jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi? Uning natijasi kelajakka foyda beradimi?

6. Muammo bo'yicha yechim qabul qilish. Bu "Taqidiy fikrlash" metodining so'ngi bosqichi hisoblanib, o'quvchilar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvoziq bo'ldi? Siz baxsga qanday nuqta qo'ygan bo'lardingiz? va hokazo.

"FSI". Yangi mavzuni mustaxkamlash uchun o'quvchi o'z shaxsiy fikrlarini asoslab berishlari, ya'ni "FSI" texnologiyasi taklif qilinadi. Buning uchun har bir guruhga uchtadan qog'oz varaqlari beriladi. Ularning birining o'ng yoki chap burchagiga F, ikkinchisiga S, uchinchisiga I harflari yozilgan bo'ladi. Bunda: F -o'z fikringni bayon qil; S - nima uchun shunday fikrda ekanligingga biron-bir sabab keltir: I - misol bilan keltirilgan sababni izohla degan ma'noni bildiradi.

Masalan:F.FIKR Har bir kishi o'z xatti-harakati uchun shaxsan javobgardir. S SABAB bu fikrni shuning uchun keltirdimki, men bir kishi qilgan ish uchun bir necha kishini jazolanganiga guvoh bo'lganman (Misollar yoki vaziyat tushuntirib berilishi mumkin).

Nazorat savollari va topshiriqlar:

- 1.Pedagogik texnologiyaning mazmun va moxiyatini tushuntiring
- 2.Pedagogikaning gexnologik vazifasini aniqdang.
- 3.Pedagogik texnologiyaning tarix o'qitish metodikasidagi o'rmini aniqlang.
- 4.Pedagogik texnologiyaning turlari

12-Mavzu: Tarix o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish

Reja:

- 1. Tarix fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalarining o'rni**
- 2. Ta'lif tizimida texnologiya turlari va ularni qo'llanilishi**
- 3. Zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish tartibi**

Tayanch so'zlar: texnologiya, mashina, zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik, falsafiy, chizmalar, grafiklar, kompyuter texnoligiyalari, magnitofon, radiopriyomniklar, yozuv materiallari, epidiaskop, diafilmlar.

Tarix darslarida ta'larning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ta'larning texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga, o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Tarix o'qitish tajribasiga ko'ra maktabda ta'larning quyidagi texnika vositalaridan foydalanilmogda:

Oddiy texnika qurilmalari: Karta va o'quv kartinalari ilinadigan, yog'ochdan yoki boshqa materialdan yasalgan siljiyidigan oddiy qurilmalar: ko'chma sinf yozuv taxtasi, sinf devoriga ilinadigan ikki yoqlama ochiladigan yozuv taxta. 2. Ovozli apparatlar: plastinkalar qo'yib ovoz chiqaradigan asbob, magnitofon, radiopriyomniklar, bundan tashqari hozirgi paytda kompyuter texnoligiyalardan, disklarga tushirilgan tasvirlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Maktab tajribasida plastinkalar va magnit lentalar, zamonaviy disklar yordamida, shuningdek, radiopriyomniklar vositasida o'quvchilarni mumtoz va o'zbek,

chet el bastakorlarining asarlari bilan tanishtirishb, tarix fanlarini orgatish keng quloch yoymoqda. Chunki musiqiy ijodiy asarlarga doir maktab kursining madaniy – tarixiy materialini plastinka va tasma yozuvlarisiz ko'rsatib bo'lmaydi. Masalan, madaniyatga doir mavzularni o'tgan paytda musiqa asarlarini eshittirish darsni maroqli bo'lishiga yordam beradi. Badiiy asarlar yozilgan plastinka va mangit tasmalari ham bor. Darsda G.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri yozilgan plastinkadan foydalanish mumkin. Jamoat arboblarning, masalan birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning nutqlarini mangit tasmalariga yozib olib eshittirish mumkin yoki televizorlar yordamida dars jarayonida o'quvchilarga qo'yib eshittirish ham mumkin.

Bu manbalardan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

1.Yozuv materiallari yuzasidan o'quvchilarga savollar berish bilan bu yozuvlar dars materiali tarkibiga kiritiladi.

2.Avvalo gramplastinka yoki tasma, disk yozuvi eshitiladi va ko'rsatiladi. So'ngra bu yozuv suhbat yordamida tahlil qilinadi.

3.Yozuvlar asosida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qilinadi.

Ovozli texnika vositalariga radio eshittirishlari ham kiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun radio orqali maxsus dastur yoki umumiy dastur bo'yicha tarixdan beriladigan eshittirishlarni eshittirishni tashkil etadi. Hozirgi vaqtida bunday eshittirishlar ko'pincha magnit tasmasiga yozib olingan bo'ladi. Tarix darslarida magnitofon yozuvlaridan keng foydalaniladi. Radio va televide niye orqali beriladigan o'quv va sinfdan tashqari ishlarga bag'ishlangan eshittirishlar tarixiy voqealarning ishtirokchilari, mehnat qahramonlari, yozuvchilar va ijtimoiy arboblar bilan o'tkazilgan uchrashuv materiallari ana shu magnitofon yozuvlarining asosini tashkil etadi. Bu uchrashuv va suhbatlar aynan takrorlanmaydi, yozib olingan magnitofon tasmasidan uzoq yillar davomida va istagan vaqtida darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Bu o'rinda ham texnika vositasi o'quvchiga qo'l keladi. Har xil ko'rsatuv asboblari va qo'llanmalari ta'lim texnika vositalarining uchinchi guruhini tashkil etadi. Ular epidiaskop, diapositiv, diafilmlar va o'quv kinofilmlaridan iborat. Tarix darslarida bunday texnik sharoiti mavjud bo'lgan kino xonasi yoki texnika vositalaridan foydalanishga moslangan maxsus tarix xonasi bo'lishi talab etiladi.

Texnika vositalari bilan ta'minlangan xona quyidagi talablarga javob berish lozim:

1. Xonani tezda qorong'ulatish va tezda yorug'latish,
2. Qorong'u paytda o'quvchilarning yozuv – chizuv ishlarini olib borshi, tasvirlarni daftarga tushirishi, darslik matni bilan ishlashi uchun o'tirgan o'rinnari maxsus lampochkalar bilan yoritiladiganligi
3. Xonada juda katta yozuv taxtasi bo'lishi kerakki, uning bir qismi tasvir bilan band bo'lsa, bir qismi tasvirlarni ko'rsatish yoki boshqa maqsadlar uchun bo'shu bo'lsin. xarita va rasmlar ilinadigan maxsus moslama bilan jihozlanganligi
4. Zarur texnika vositalari va ularni ko'rsatadigan apparatlar xonada mavjud bo'lishi bilan birga, shoga yaroqli holda saqlanishi va bunday maxsus tarix xonasi bo'lmagan taqdirda sinfi uni texnika vositalaridan foydalanadigan qilib jihozlash talab etiladi

Bu holda tegishli vosita va jihozlar maxsus javonda saqlanadi. Shisha yoki plynokadan ishlangan rangli diapositlar epidiaskop yordamida ko'rsatiladi. Keyingi yillarda, shishaga tushirilgan diapositlar o'rniga diafilmlar yordamida namoyish qilinadi. Diafilmlardan har bir o'qituvchi hattoki, o'quvchilar ham foydalana oladilar. O'qituvchi darsda diapositif yoki diafilmdan to'liq yoki qisman foydalanishi, ba'zan butun darsni o'sha materillar asosida o'tkazishi mumkin.

Diapozitiflardan yangi mavzuni bayon qilishda ham takrorlash darslarda ham foydalilanadi. Har qanday holatda ham diapozitif va diafilmlar o'qituvchi bayonining aniq va jonli bo'l shiga yordam beradi. O'quv kinofilmulari ham ta'limning ko'rsatmali vositalari jumlasidadir, tarix o'qitishda o'quv kinofilmli vositadir. Kinofilm o'quvchilar ko'z o'ngida tarixiy voqeanning jonli obrazini ko'rsatmali qilib to'liq harakatda gavdalantiradi.

Avvalo, pedagogik texnologiya -bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllantirishni kafolatlaydigan jarayondir.

Hozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiya o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini ko'rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Yoxut pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir.

Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida pedagogik texnologiya o'quv jarayoni texnologik vositalari yordamida amalga oshirish, deb qarab kelinadi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlanadi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan «o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligi e'tirof qilinadi.

Ta'lim tizimida qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'l magan holda o'rganilib kelinadi. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg'or metodikalar texnologiyalar

darajasiga ko'tarila olmay asta-sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar.

Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo'lgan "Dasturli ta'lim"

(Programmirovannoe obuchenie) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi "Shatalovchilik harakati" ni eslash kifoya.

Ma'lumki, bugungi kunga kelib tarix ta'limida axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida qo'llanila boshlandi.

Tarix ta'limini texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyoti yo'nalishi bilan belgilanishini e'tirof etgan holda pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog'liq vazifalarni belgilashga harakat qilamiz.

1. Ko'p bosqichli ta'lim tizimida pedagogik texnologiyaning o'rnini asoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chiqish;
2. Zamonaviy sanoat, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya kabi soha texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqaqlashtirilgan yondashuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;
3. Istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va samarasini aniqlash;
4. Tegishli boshqaruv organlari (Ta'lim markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etilishi darajasini nazorat qilish va baholash;
5. Respublikamizdagi oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ilg'or

pedagog va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzlusiz tashkil etish;

6. Oliy o'quv yurtlari talabalari, ayniqsa, mutaxassis-pedagog (tarixchi-pedagog)lar uchun 40 soat hajmida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus kurs joriy etish;

7. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilarning ish uslublarini muntazam o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodikalarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish va hokazolar.

Bugun mamlakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'langan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi.

Milliy Dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda "Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lif tizimlari rivojlanadi".

O'zbekistan Respublikasi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati ko'rish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lif ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik tushunchaning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz.

Gap zamonaviy texnologiyalarni ta'lif tizimida qo'llash xususida borar ekan, u maktablarning moddiy texnik ta'minotiga ham o'z talabini qo'ydi. Mashg'ulotlarni guruhlarga ajratib va individual o'tish uchun o'quvchilarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, olgan

bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, qo'l mehnati, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni ko'zda tutish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi kerakli materiallardan foydalana olishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy ommabop jurnallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishlari uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini yengillashtirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir.

Pedagogik jihatdan ta'minlanishining yana bir elementi, bu o'qituvchi shaxsi, mакtab pedagogik jamoasini shakllantirish, pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq zamonaviy maktablarda jahon andozalariga mos ravishda o'qitish ishlarni yangilash maqsadida pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash sifati, kasbiga tayyorgarlik darajalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda maktablarning adaptatsiya jarayonidan o'tishiga imkon berish ham pedagogik jihatdan ta'minlanishning elementlariga kiradi. Shu bilan birga bolaning intellektual rivojlanganligi haqidagi axborotlarga ega bo'lish, zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi zamonaviy ta'lif, ilg'or pedagogik texnologiya yangi ruh va mazmundagi, pedagogik tafakkur, taraqqiyat parvar fikr, g'oyalar mahsulidir. Yangi fikr va g'oyalar o'z navbatida mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan xatolar va kamchiliklarning chuqur tahlil qilinishi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham jamiyatdagи ijtimoiy-madaniy muhit ahvoli tahlil qilingan holda, ta'lifni insonparvarlashtirish, yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona hal etib borish, yangicha ishslash yangi pedagogik tafakkurning asosi bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida ta'lif natijasini kafolatlaydigan, ta'lif tizimining rivojlanib borishi, jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamolotiga hissa ko'shadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kirib kelishiga zamin yaratadi.

Texnologik yondashuv ta'lif taraqqiyotining harakterlantiruvchi kuchi sifatida bugun amaliyotga tezkor tatbiq etilmog'i zarur. qolaversa, Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur" har bir fan o'qituvchisi yangi texnolgiyalarni loyihalashga ijodiy yondashishi lozim deb ta'kidlagan edi.

Pedagogik texnologiya fan mavzulari bo'yicha oldindan loyihalanishi va u o'qitish tekisligiga ko'chirilsa, yakuniy natijani kafolatlanishi bilan farqlanishini eslatib o'tamiz. Shu bilan birligida har qanday pedagogik texnologiya asosini ilmiy jihatdan ko'rilgan didaktik jarayon tashkil etadi. Ana Shu jarayonni ajratilgan o'quv vaqtida doirasida amalga oshirish oliy o'quv yurti o'qituvchisiniing pedagogik mahoratini darajalab beradi.

Bayon etilgan fikrlar shunday xulosalarga kelishimizga imkon beradi: ta'limga har bir bosqichida zamonaviy pedagogik texnolgiyalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda jamiyat munosabatlarini isloq qilish, ya'ni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, ta'limga insonparvarlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan ilmiy kontseptual asosga ega bo'lgandagina qo'llash muvofiqdir.

Qo'llanilayotgan texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi hayotiga yengillik olib kelishi, o'quvchining xohlab, qiziqtirib borishiga imkon berishi va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishini kafolatlashi kerak. Zamonaviy pedtexnologiyalar qo'llanilishidan oldin adaptatsiyadan o'tishi pedagogik shart-sharoitlari, moddiy-texnik baza hisobiga olinishi lozim.

Agar pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ilmiy asos va kafolatlangan natija bo'lmas ekan, bunday texnologiyalar oqibati shaxs kamoloti, ta'lif tizimi va jamiyatning yo'qsalishiga to'g'anoq bo'laveradi.

Hozirgi zamon fanining rivojlanishi, xususan, ilmiy-tadqiqot usullari va vositalari muttasil murakkablashib borishida namoyon bo'ladiki, bu axborot texnikasini qo'llashni taqozo etadi.

Axborot texnologiyasi – bu axborotni tanlash, jamg'arish, tahlil qilish va foydalanuvchiga yetqazib berishga yo'naltirilgan hisoblash texnikasi, elektr aloqa, informatika imkoniyatlarining uyg'unligidir. Ishlab chiqarish jarayoni zamirida yotuvchi har qanday texnologiyani ta'riflashda ishlov berish predmeti, usul va metodlarini, ishlab chiqarish qurollarini, ishlab chiqarish usullarining tavsifini ajratish mumkin. Texnologiya jarayon sifatida tartibga solingen va tashkil etilgan bo'ladi. Ammo an'anaviy texnologiyalar moddiy-energetik omillarga tayansa, axborot texnologiyasi axborotga asoslanadi. Axborot texnologiyasining negizini moddiy emas, balki ideal omillar tashkil etadi.

Axborot texnologiyasi axborotning aylanishi va unga ishlov berish jarayonlari majmui, shuningdek, bu jarayonlarni tavsiflash deb ta'riflanadi. Axborot ma'lumotlarga ishlov berish va aylanish ob'ektlari hisoblanadi.

Axborotga ishlov berish jarayonlarining texnologik marshurtlari va ssenariylarini tavsiflashning tarkibiy qismlarini yaratish mumkin. Shu bois axborot texnologiyasi tushunchasi ikki xil nazariy va amaliy nuqtai nazardan talqin qilinadi. Nazariy nuqtai-nazardan axborot texnologiyasi ilmiy-texnik fan bo'lib, uning doirasida axborot aylanishi va unga ishlov berish avtomatlashtirilgan jarayonlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish muammolari tadqiq qilinadi. Amaliy nuqtai-nazardan axborot texnologiyasi axborot aylanishi va unga ishlov berish avtomatlashtirilgan jarayonlari majmui, muayyan sohaga bog'liq bo'lgan va zamonaviy texnikiqtisodiy vositalarda amalga oshirilgan mana shu jarayonlarning tavsifidir.

Hozirgi zamon axborot texnologiyasi o'tmishning telegraf, telefon, radio, televidenie singari texnik yutuqlardan foydalanadi. Ilmiy-texnik tajribadan kelib chiqib axborotni mashina o'qiydigan taShuvchilarda

jamg'arish vositalari yaratildi. Bunday vositalar vaqt va makonda biron bir cheklashlarsiz axborotni yer kurrasining istalgan nuqtasiga yetkazishni ta'minlaydi. Nihoyat, belgilangan algoritmlar bo'yicha kompyuterlar yordamida axborotga avtomatlashtirilgan ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Dunyoda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining nazariy asoslarini XX asrning 70-yillari oxiri va 80-yillarning boshida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi yangi kontseptsiyalarda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili ishlab chiqarish va axborotlardan unumli foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Z.Bjezinskiy, D.Bell, E.Toffler jamiyat taraqqiyoti "bosqichlar almashinuvi" sifatida o'rganar ekanlar, axborotlashgan postindustrial jamiyat taraqqiyotini, qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa iqtisodiy xizmat sohalaridan keyin keluvchi "To'rtinch'i" iqtisod axborotlashgan sektorining ustuvorligi bilan bog'laydilar. Ular industrial jamiyatning asosi-kapital va mehnat o'z o'rnnini axborotlashgan jamiyatda axborot va bilimga bog'liq deb hisoblaydilar.

Xullas, yangi texnologiya va texnikani o'zlashtirish ijtimoiy-siyosiy hayotga bevosita bog'liq. Ular odamlar ijod qilishi va tashabbus ko'rsatishi uchun qulay shart-sharoit yaratishi lozim. Axborot texnologiyasi yordamida ilmiy bilimlar formallashtiriladi va ayni vaqtida ma'lumotlarni ifodalashning ko'rgazmali shakllari (chizmalar, grafiklar)dan foydalilanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Oddiy texnika qurilmalarni sanab bering
2. zamonaviy texnologiyalarni ta'llim tizimida qo'llash xususiyatlari
3. Texnika vositalari bilan ta'minlangan xonaga qo'yilgan talablar
4. Teleeshitirishlarni shartlarni sanab bering

13-Mavzu: Tarix fanidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar

Reja:

- 1. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarning ahamiyati**
- 2. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, ko'rinishi va metodlari.**
- 3. Tarix to'garaklari, konferensiyalar, tarixiy kechalar.**

Tayanch so'z va iboralar: sinfdan tashqari ishlar, to'garak, sayohat, muzey, tarixiy kechalar, ilyustratsiya, madaniy tadbirlar, tarixiy belletristika, muzey eksponatlari

Tarix darslarida o'lkashunoslik materiallarining tutgan o'rni o'lkashunoslik turlari.

- a) ilmiy yoki davlat o'lkashunosligi;
- b) jamoa o'lkashunosligi;
- v) muzey eksponatlari.

O'lkashunoslikning asosiy manbalari va metodologiyasi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'lkashunoslik materiallarini tanlash va ulardan foydalanish metodlari. O'quvchilar o'quv materialining asosiy mazmunini sinfda dars davomida o'zlashtirib oladilar, albatta. Biroq, o'quvchi tarix dasturi yuzasidan o'rGANISHI zarur bo'lgan bilim va malakalarning hammasini ham sinf-dars mashg'ulotlari doirasiga sigdirib bo'lmaydi. Buning ustiga tarixiy bilimlar, ilmiy va siyosiy ma'lumotlar hajmi tez kengayib, muttasil oshib borayotgan sharoitda o'quvchilar o'z bilimlarini tinmay to'ldira borishlari uchun sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo'nga qo'yish g'oyat zarurdir.

Tarix sevib o'qiladigan fandir. Uni o'rGANISHI jarayonida o'quvchilarda

142

o'tmishni puxta bilishga intilish orta boradi, ularda bu intilishni amalga oshirishda esa sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati kattadir.

Tarix predmeti yuzasidan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, ko'rinish va metodlari metodik adabiyotda turlicha turkumlanadi. Metodist V.N. Vernadskiy sinfdan tashqari ishlar turkumiga bilish manbalarini asos qilib olib, ularni quyidagi turlarga bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchilar faqat darslikni o'qish bilangina chegaralanib qolsa, ularning bilim doirasi va o'tmish haqidagi tasavvurlari tor bo'lib qoladi.

Shuni e'tiborga olib V.N.Vernadskiy sinfdan tashqari ishlarning asosiy ko'rinishi sifatida qo'shimcha o'qishni tavsiya etadi.

1. Qo'shimcha kitob o'qish. U tarixdagi o'qiladigan kitoblarni uch guruhga bo'ladi:

- a) ilmiy-ommabop kitoblar,
- b) tarixiy belletristika,
- v) tarixiy davrga oid badiiy adabiyot.

2. Qo'shimcha suratlar ko'rish.
3. Jamoa bo'lib teatr va kinolarga borish hamda ularni bирgalikda muhokama qilish.

4. Tarixiy kechalar uyuştirish.
5. Tarixiy instsenirovka yoki pyesalar qo'yish.
6. Maktab tarixiy ko'rgazmalarini tashkil etish.
7. Olisdagi tarixiy joylarga ekskursiyalar uyuştirish. V.N.Vernadskiy filricha, o'quvchilar sinfdan tashqari qo'shimcha kitob o'qib, filmlar ko'rib, radio, ma'ruzalar eshitib olgan bilimlari va tasavvurlarini amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borgandagina ko'zlangan maqsadga erishadi - mustaqillikni, tashabbus va ijodiy ishslash qobiliyatini o'stira oladi.

Keyingi 10— 15 yil ichida sinfdan tashqari ishlar ko'lami kengaydi, mazmunan boyidi, ko'rinislari ko'paydi. Bu ishlarning nazariy tomonlari ham ishlab chiqildi. Sinfdan tashqari ishlar tashkiliy jihatdan ommaviy va to'garak

143

ishlariga bo'linadi. O'zining ilmiy tadqiqiy asarlarida sinfdan tashqari ishlarning nazariy masalalarini ishlab chiqqan, maktab tajribasiga suyanib sinfdan tashqari ishlarning asosiy boshlang'ich ko'rinishi — ommaviy ishlar ekanligini isbot qilib bergan

A.F.Rodin sinfdan tashqari ishlarning ommaviy ko'rinishiga: ovoz chiqarib o'qish, hikoya qilib berish, ma'ruza o'qish, tarixiy voqealarning ishtirokchilari va ilg'or kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, kinofilmlar, pyesalar ko'rish, ekskursiyalar uyuştirish, o'quv konferensiyalari, kechalar, tanlovlardan tashkil qilish, olimpiadalarda ishtirok etish, o'lka burchagi va maktab ko'rgazmalarini tashkil etish va boshqalarni kiritadi.

A.F.Rodinning tarix ta'limida sinfdan tashqari ishlar sohasidagi tadqiqotlarining yana bir qimmatli tomoni shundaki, ularda sinfdan tashqari ishlarni o'quvchi ijtimoiy foydali faoliyati bilan (tarixiy yodgorliklarni muxofaza qilish, Ikkinci jahon urushi qatnashchilari, ijtimoiy ximoyaga muxtoj aholiga yordam berish, ular bilan davra suxbatlari uyuştirish, gazeta, jurnallar o'qib berish va x. k. bilan) bog'lab olib borish zarurligi ta'kidlanadi.

Metodist A.A.Vagin tarix ta'limida sinfdan tashqari qilinadigan ish metodlari soxasida keyingi yillarda orttirilgan ilg'or tajribalarni umumlashtirib, ularni uch guruhga bo'ladi.

1. Og'zaki metod. Sinfdan tashqari ishlarning bu guruhiga o'qituvchining hikoya qilib berishi, ovoz chiqarib o'qishi, yuqori sinflarda esa, o'qituvchining darsdan keyin bo'ladigan ma'ruzasi kiradi. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchi faolligi va mustqilligini oshirish maqsadida o'quvchilar ham og'zaki so'zlab berish metodidan foydalanadi. O'quvchilar to'garak yig'ilishlarida, tarixiy kechalarda, quyi sinf o'quvchilarini va aholi orasida qisqacha axborotlar, doklad va referatlar bilan qatnashadilar, munozaralarda, nazariy konferensiyalarda, tarixiy materiallar (kitoblar, kinofilmlar va p'eesalar) muhokamasida ishtirok etadilar. Yozma va bosma manbalar bilan ishslash metodi.

2. Sinfdan tashqari ishlarning bu turiga qo'shimcha kitob o'qish, tarixiy-

adabiyot — to'plamlar, xrestomatiyalar, arxivlardagi hujjatlar va boshqalarni o'rganish, vaqtli matbuotni o'rganuvchilar to'garagi, qo'lyozma va arxiv hujjatlarini o'rganuvchi «yosh arxivchilar to'garagi» barpo qilish, «Kitob va uning tarixi» degan mavzuda kecha tashkil etish, o'lkaning o'tmishi va hozirgi hayotiga doir har xil kitob va maqolalar, qo'lyozmalarni o'rganish, xalq og'zaki ijodiga doir materiallarni to'plash, tarixiy voqealarning shohidlari va ishtirokchilarining hikoyalarini yozib olish, ular bilan xat yozishib turish, tarixiy hujjatlarni o'rganish kabi ishlar kiradi.

3. Ko'rsatmali materiallar bilan ishslash metodi. Illyustratsiya va diapositivlarni ko'rsatish, filmlarni ko'rish, ekskursiya materiallarini o'rganish kabi darsda boshlangan ishlar sinfdan tashqari davom ettiriladi. Bundan tashqari ekskursiyalar va ekspeditsiyalar davomida to'plangan materiallar nusxasini ko'paytirish, rasmga olish, shu materiallar asosida modellar yasash va namoyish qilish ham shu guruhga doir ishlar qatoriga kiradi. Bu ishlar ham sinfdagi ishlar bilan bog'liq olib boriladi. Gap shundaki. o'quvchilar dars jarayonida egallagan ko'nikma va malakalarini sinfdan tashqari ishlarda yanada rivojlantirib, takomillashtirib boradilar. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, forma va metodlari. o'quvchi yoshi, bilim va malakalari, ularning individual moyilligiga va qiziqishlariga qarab, tarix ta'limida sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, ko'rinish va metodlari turlicha bo'ladi.

Hozir mакtabda sinfdan tashqari ishlarning quyidagi asosiy, tashkiliy formalari mavjud.

1. Tarix to'garagi (yoki tarixiy-o'lkashunoslik to'garak).
2. Tarix (yoki tarixiy-o'lkashunoslik) jamiyatni.
3. Sinfdan tashqari tarixiy yoki tarixiy-o'lkashunoslik ekskursiyalari, kollektiv bo'lib teatr va kinoga borish.
4. Uzoq joylarga tarixiy-o'lkashunoslik ekskursiyalari.
5. Arxeologiya ekspeditsiyasida qatnashish.
6. Tarixiy yoki o'lkashunoslik burchaklari, muzeylari.

7.Tarixiy, tarixiy-o'lkashunoslik, tematik kechalar yoki (tarix jamiyat, to'garak ishi haqida, o'zok joylarga uyuşdırılmış arxeologik ishlar haqida) xisobot kechaları.

8.Xisobot yoki tematik ko'rgazmalar.

9.Yuqori sinf o'quvchilari uchun seminarlar, suxbatlar.

10.Tarixiy (tarixiy-o'lkashunoslik) konferensiylar, munozara va muhokamalar.

11.Maktab o'quvchilarining tarixiy voqealarning qatnashuvchilari va shohidlari, yozuvchilar va ijtimoiy arboblar bilan uchrashuvlari.

12.Tarixiy yoki tarixiy-o'lkashunoslik o'yinlari.

13.Tarixiy mavzularga bag'ishlangan devoriy gazeta va qo'lyozma jurnallar.

14.Sinfdan tashqari o'qishlar.

Ko'rinish turibdiki, sinfdan tashqari ishlarning ko'rinishlari turli tuman, mazmuni boy, hatto maktab tarix kursining mavzusidan chetga chiqishi ham mumkin. Shuni aytish kerakki, sinfdan tashqari ishlarning mazmuni qanchalik boy va turli-tuman ko'rinishlarda olib borilmasin, ular bir maqsadga: ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Maktabda tashkil etiladigan tarix to'garagi (yoki tarixchilar jamiyat) sinfdan tashqari qilinadigan barcha ommaviy ishlarni uyuşdırish markazi va uning eng ixcham ko'rinishidir.

Sinfdan tashqari ishlardan kuzatilgan mas'uliyatlari vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi o'qituvchining o'quvchilarni shu markazga jips jamlashga va uning ishlariga to'g'ri boshchilik qila bilishiga bog'liqdir. Qo'shimcha o'qish sinfdan tashqari ishlarning sinfdan tashqari muhim formasidir. Bu ish o'quvchilarga kitob o'qishni targ'ib qilish, uning ahamiyatini tushuntirish, kitobga qiziqtirishdan boshlanadi.

Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishda o'quvchi yoshi, bilimi hamda

malakalari e'tiborga olinishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni, avvalo darslikda ko'rsatilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtiradi va ulardan foydalanish yo'llarini gapirib beradi, yangi chiqqan kitoblar haqida ularni xabardon qilib turadi, kitob o'qishni uyuşdıradi. Maktab tajribasida 5-6-sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish maqsadida ilg'or o'qituvchilar quyidagi usuldan foydalanadilar: O'qituvchi o'quvchilarga o'qish kerak bo'lgan kitoblarni aytish bilan birga shu kitoblarni o'quvchilarga ko'rsatadi va xatto eng muhim, maroqli joylarni o'qib beradi. Biroq, o'qishni cho'zib yuborish yaramaydi, 15—20 minutdan oshirib yubormaslik kerak. Qo'shimcha o'qishni tashkil etishda o'quvchilarni kitobga qiziqtirish bilan birga, mustqil o'qishni tashkil qila bilish ham zarur.

O'quvchi qo'shimcha o'qishi zarur bo'lgan kitoblar o'z vaqtida tavsiya etiladi. Ba'zi metodik asarlarda ko'rsatilganidek, hamma sinflardagi o'quvchi chorak ichida yoki o'quv yilining yarmida o'qishi uchun kitoblarning katta ro'yxatini birdaniga tavsiya qilish to'g'ri bo'lmaydi, tajriba ham rad qildi.

Bu masalada ham har bir sinf bolalarining yoshi, bilim darajasi va malakalarini nazarga olib ish ko'rish lozim bo'ladi. Masalan, 5-6-sinflarda o'quvchilar mustqil o'qishlari lozim bo'lgan kitobga doir mavzu darsda o'rganib bo'lingandan keyin qanday kitobni o'qish kerakligi tavsiya qilinadi; 7-8-sinfdagi mavzuga kirish darsida, agar o'qishga tavsiya qilinadigan kitob hajmi katta bo'lsa, temani o'rganishdan 2—3 xaftha oldin, 9-sinflarda esa, yil boshida, xattoki eski yilning oxiridayoq tavsiya qilish ma'qul, negaki tavsiya qilingan kitoblardan ba'zilarini o'quvchilar yozgi ta'til vaqtida ham o'qishlari mumkin. O'quvchi yozuvchilar bilan uchrashuvlari ularning kitobxonlik ishtiyoqini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tarixiy mavzularga bag'ishlangan kecha va konferensiyalarni o'tkazish, o'qilgan kitoblarni muhokama qilish kabi tadbirlar ham muhim o'r'in tutadi. O'quvchi sinfdan tashqari ishlarni, shu jumladan tavsiya qilingan kitoblardan qanday foydalanganliklarini o'qituvchi doim nazorat qilib turadi. Bu bilan

o'qituvchi o'quvchilarda qo'shimcha adabiyot o'qishga rag'batini kuchaytiradi, kitoblarni tushunib o'qishga o'rgatadi, qo'shimcha kitoblar o'qib olgan bilimlarini darsda, tarix to'garagida va ekskursiyalarda olgan bilimlari bilan bog'lay bilishga va ulardan foydalana bilishga o'rgatadi. 5-6-sinflardayoq o'quvchilar o'qigan narsalarni tushunish, ularga baho bera bilish va ulardan xulosa chiqarish malakasini bir qadar hosil qiladi.

O'quvchilarda mustqil o'qish uchun tavsiya etilgan kitoblarga ongli va to'g'ri munosabatni tarbiyalash uchun ularni o'qigan kitoblarni maxsus daftarga qayd qilib va har bir kitobga o'zlarining qisqacha taqrizlarini yozib borishga o'rgatish kerak. Tabiiy, 5-6-sinflardagi o'quvchi o'qigan kitoblariga bergen baholari yuzaki bo'lsa-da, keyinchalik aytaylik, 7-8-sinf o'quvchi bahosi mazmunan boyib boradi. 9-sinfda esa, berilgan baholar mazmuni yanada chuqurlashadi. Tarixiy temalarda o'tkaziladigan kechalar sinfdan tashqari ishlarning muhim tashkiliy formasi bo'lib, ularning asosiy vazifasi har xil san'at vositalari (badiiy o'qish, m o'zika, ashula, instsenirovkalar) yordamida o'quvchilarga tarixiy faktlar, voqealar hamda hodisalarning mazmuni, moxiyati va ahamiyatini uqtirishdan iboratdir.

Hozirgi vaqtida tarixiy temalardagi kecha va ertaliklar maktab tajribasida keng kullanilmokda. Tarixiy mavzulardagi kecha va ertaliklar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Maktabda o'tkaziladigan kecha yoki ertaliklar o'quvchilarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yordam berishi lozim. O'tkaziladigan har bir kecha va ertalik o'quvchi ommaviy bayramiga aylansin, unda ishtirok etgan har bir o'quvchi o'zining qobiliyat va talantini namoyish qilsin. Kechaning ko'ngilli o'tishiga erishish lozim. Uning maroqli o'tishi uchun harakteriga qarab, turli mavzularda dokladlar tinglash, she'rxonlik qilish, tarixiy voqealarning qatnashuvchilari bilan uchrashuvlar tashkil qilish mumkin.

Har bir kecha albatta badiiy qism (ashula, muzika, instsenirovka,

viktorina o'yinlar, xazil-toifadagi konkurslar va shu kabilar) bilan yakunlanadi. Bunday kechalar o'quvchilar faolligini oshiradi, ularni tashkiliy ishlaridagi ishtiroki ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatadi, jamoa oldidagi javobgarlik xissini oshiradi. Maktab va o'rta maxsus ta'lif tajribasi o'lka tarixini o'rganishda tarixiy kechalarning ahamiyati borgan sari ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

Maktabda o'lkan o'rganish bilan bog'liq hamma ishlarni tarixiy kecha bilan yakunlash odad tusiga kirib qoldi, o'lkan o'rganishga bag'ishlangan kechalar o'quvchilar orasidagina emas, balki o'lka aholisi orasida ham tarixga qiziqish tug'dirmoqda. Hozir tarixni chuqurroq o'rganishga intilish kuchayib borayotgan sharoitda tarixiy kecha va konferensiylar tashkil etishning ahamiyati yanada ortib boradi. O'tkaziladigan tematik kechalarning muhim turlaridan biri kitobxonlar konferensiyasidir.

Konferensiya o'qituvchi rahbarligida o'qilgan kitoblar muhokama qilinadi. Imkoniyat bo'lganda muhokamaga qo'yilgan kitobning muallifi ishtirok qilsa yana yaxshi bo'ladi. Shunday qilib, tarixiy kecha va konferensiylar sinfdan tashqari o'quv ishlarning muhim formasi bo'lib, o'quvchi darsda olgan bilimlarini to'ldirish, ularning mustqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini o'stirish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarix yoki tarixiy-o'lkahunoslik to'garagi odatda bir xil yoshdag'i sinf o'quvchilaridan tashkil topadi.

To'garak ishining mazmuni a'zolarining yoshiga, bilim saviyalari va malakalariga qarab turlicha bo'ladi. 5-6-sinf o'quvchilari uchun tashkil etilgan tarix to'garagining asosiy vazifasi o'quvchilarda tarixni o'rganishga paydo bo'la boshlagan qiziqishni rivojlantirish, ularni tarixiy materiallar ustida mustqil va ijodiy ishlay boshlashga o'rgatishdan iboratdir. 7-8-sinflarda, ayniqsa 9-sinflarda tashkil etilgan to'garak tematikasi, uning mazmuni o'quvchi o'sib borayotgan talablariga to'la javob beradigan bo'lishi kerak. Maktab tajribasida 9-sinflardagi o'quvchilar uchun tashkil etilgan

to'garaklarda mamlakat iqtisodiyotiga, xalq xo'jaligining yuksalishiga doir masalalarni o'rganishga katta e'tibor berilganini ko'ramiz.

Tarix yoki tarixiy-o'lkashunoslik to'garagida o'quvchi qiziqishlariga qarab har xil masalalar - harbiy-tarixiy, ulug' kishilar, tarixiy arboblar va mashxur qaxramonlarning biografiyasi, madaniyat va san'at tarixi, tarixiy-o'lkashunoslik materiallari, kundalik voqealar va boshqalar o'rganiladi. To'garak o'quvchilarni tarixiy tadqiqotning ba'zi tomonlari bilan ham ma'lum darajada tanishtiradi. Masalan, yosh arxeologlar, yosh arxivshunoslar to'garagida o'quvchilar arxeologiya ishlarni olib borish, arxivda ishslash malakalarini egallaydilar.

To'garakda ma'ruza qilishga, axborot berishga, ko'rsatmali qurollar tayyorlash va eskilarini ta'mirlashga, ta'limning texnika vositalari bilan ishslashga o'rganadilar. Tarixiy o'lkashunoslik to'garaklarining faoliyati ko'proq yuqori sinf o'quvchilarining kichik yoshdagi o'quvchilar va aholi orasida olib boradigan targ'ibot ishlari bilan bog'langan bo'ladi. To'garakda tarixiy-biografik mavzularni o'rganish o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda 5-7-sinf o'quvchilari uchun kishilarning jangdagi qahramonligi, jonbozligi qiziqarli va tushunarli bo'lsa, yuqori sinflardagi o'quvchilarni olim, tadqiqotchi va davlat arboblarining ichki dunyosi, yirik olim bo'lgunga qadar bosib o'tgan yo'li qiziqtiradi. Shu sababdan 8-9-sinflarda va o'rta maxsus ta'lim tizimida to'garaklar tematikasining asosiy mazmunini ko'pincha biografik harakterdagi mavzular tashkil etadi.

To'garakda harbiy o'tmishni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, 5-6-sinf o'quvchilari to'garagida qadimgi dunyo, o'rta asrlardagi harbiy texnikani o'rganish mumkin. 7-9-sinflardagi o'quvchi to'garaklarida urush va harbiy san'at tarixining nazariy masalalari o'rganiladi. Shunday qilib, sinfdan tashqari ishlarning muhim formasi bo'lgan tarix to'garagi ham o'quvchi tarixni o'rganishga qiziqishini oshiradi, olgan bilimlarini

chuqurlashtirish va kengaytirishga hamda mustql ijodiy ishlay bilish soxasida malakalarini hosil qilishlariga yordam beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tarix darslarida o'lkashunoslik materiallarining tutgan o'rni.
2. Tarix darslarida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodlari
3. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, ko'rinish va metodlari.
4. Sinfdan tashqari ishlarda yozma va bosma manbalar bilan ishslash metodlari.
5. Sinfdan tashqari ishlarda ko'rsatmali materiallar bilan ishslash metodlari.

14-Mavzu: Zamonaviy tarix darsiga bo'lgan talablar va uning yaratilishi

Reja

- 1. Ta'linda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishi tarixiga oid ma'lumotlar.**
- 2. O'qituvchining darsga tayyorgarligi funksiyalari va bosqichlari.**
- 3. Dars va darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarni tarbiyalashda tarix o'qituvchisining faoliyati.**
- 4. Zamonaviy baholash mezonlari.**

Tayanch so'zlar radio, televidenie, gazeta, jurnal, kinoteatr, axborot, Sovet vatanparvarligi, sotsializm,

Tarix darsini o'quv materialining navbatdagi bir bo'lagi deb hisoblab, uni o'quvchilarga zudlik bilan bayon etib, keyingi bo'lagiga o'tishdangina iborat deb o'yagan o'qituvchi, albatta xato qilgan bo'lur edi.

Dars-tarix dasturining bir oddiy bo'lagigina emas. Dars-birinchi galda o'quv mashg'ulotidir. Zamonaviy tarix darsiga bo'lgan talab nima bilan belgilanadi?

Birinchidan, fikrimizcha, Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasida so'zlagan nutqida «*Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan*

qurollantirishimiz zarur, – dedi!»¹³, degan ko'rsatmalari, Shuningdek, birinchi prezidentimizning I.A.Karimovning yangi demokratik ta'lif konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analarini, ma'naviy tajribasi ta'lif va tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur¹⁴», degan konsepsiysi pedagoglarimizning tarix ta'limi davr talabi darajasiga ko'tarish yo'lidagi muhim vazifalari bo'lmog'i kerak.

Ikkinchidan, tarix ta'limi davomida o'quvchi yoshlarni tarixiy bilim va ko'nkmalar bilan qurollantirib, ularni o'tmishda va bugungi kunimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarini to'g'ri baholash va xulosalar chiqarish, *har bir insонning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaqa qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir*, degan qat'iy xulosaga olib kelsin.

Uchinchidan, O'zbekiston Oliy Majlisining 1995 yil 30 avgustda bo'lib o'tgan uchinchi sessiyasida alohida qayd etib o'tilganidek, «*Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustivor bo'lmog'i kerak. Milliy g'urur, milliy iftihor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak*». Ya'ni, «*Vatan ko'nglimizda bo'lsa, Allah ishimizga hamisha madadkor bo'lg'ay*»

Darhaqiqat, ota-bobolarimiz bizga meros etib qoldirgan Vatan-O'zbekiston har bir o'zbek fuqarosi uchun sajadah kabi

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida so'lnag nutqi

¹⁴ I. A. Karimov. O'zbekistoming o'z istiqlof va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. -B. 22

azizdir.Bunday muqaddas g'oyani yoshlar ongiga aniq tarixiy voqe'liliklar asosida singdirib borish har bir tarix darsi va uning o'qitadigan o'qituvchining muqaddas va bir vaqtida sharaflı burchidir.

To'rtinchidan, tarix o'qituvchisi o'zining pedagogik faoliyatida ilmiy bilimlarni tez sur'atlarda o'sib borayotganligini albatta hisobga olmog'i kerak. Ilmiy texnika inqilobi davrida o'quvchi yoshlar ham o'z bilimlarini mustaqil holda uzlusiz takomillashtirib borishlari, ilmiy va siyosiy axborotlar oqimidan to'g'ri xulosa chiqarishga erishmoqlari lozim.

Psiyolog olimlarimiz ilmiy-texnika inqilobi avj olib borayotgan hozirgi davrda o'quvchi yoshlarning akseleratsiyasi, ya'ni bolalar rivojlanishining tez sur'atlar bilan o'sib borishi, bu jarayon ularning ham aqliy, ham jismoniy jihatdan rivojlanishlarida yaqqol namoyon bo'layotganligini alohida ta'kidlamoqdalar. Darhaqiqat, hozirgi davrda talabalar yoshligidanoq *radio, televiedenie, gazeta, jurnal va turli kitoblar, axborot* kanallari orqali ko'plab zamonaviy ilmiy-texnikaviy yangiliklardan boxabar bo'lmoqdalar. Bularning hammasi so'zsiz o'quvchi yoshlarni har tomonlama rivojlanishlarga, dunyoqarashlari ko'lamining kengayishiga olib kelmoqda. O'quvchi o'z uyida televiedenie orqali yoki kinoteatrda tarixiy mavzudagi asarni tomosha qilib, uning mazmuni bilan chuqur tanishishga muvaffaq bo'Igani holda, o'qituvchi dars jarayonida faqatgina darslik materiali bilangina chegaralanayotgan bo'lsa, u holda o'quvchida mazkur dars uchun hech qanday qiziqish paydo bo'lmaydi. Ana shunday inqirozli sharoitdan chiqib ketish uchun o'qituvchi tarixiy ta'limida emotsiional mahoratini oshirib borib, o'quvchilarni mavzuning mazmuniga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olib, uning har tomonlama mustahkamlanishiga erishmog'i kerak.

Ma'lumki, totalitar tuzum davrida shakllangan vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni aniq milliy va ma'naviy poydevorga o'rnatilmagan bo'lib, «Sovet vatanparvarligi», «sotsializm vatanparvarligi» va hokazo iboralar bilan yuritib kelindi. Bunday balandparvoz iboralar yig'indisidan tashkil topgan «vatanparvarlik» partiya hujjatlarida nazariy jihatdan asoslanib, *«Sovet jamiyatining o'tgan davr ichida qo'lga kiritgan asosiy yutug'i bu yagona sovet xalqlarining shak-lantirishdir!»* deb, xalq maorifi xodimlari oldiga, jumladan tarix o'qituvchilariga yosh avlodni alohida olingen aniq xalq, millatning milliy va ma'naviy an'analari ruhida emas, xayolan «shakllangan» sovet xalqi vatanparvarligi ruhida tarbiyalashni singdirishga undar edi. Shunday ekan, tarix o'qituvchisi tarix ta'limini targ'ib etishda ayrim tarixiy shior va chaqiriqlarni ma'lum tarixiy davr, tarixiy sharoit va uning manfaatidan kelib chiqqan bo'lishining sabab va mohiyatlarini ham tarix o'qitish metodikasidagi eng asosiy talab va tushuncha tamoyilidan kelib chiqib,unga mutloq rioya etish lozim.

Masalan, o'qituvchi "Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston" mavzusini o'tar ekan, fanlararo aloqa bog'lash tamoyilini amalga oshirib borib, o'quvchilar e'tiborini G.G'ulomning Ulug' Vatan urushi yillarida umumxalq shioriga aylangan "*Buyuk Vatanning buyuk farzandi, bilib qo'yki seni Vatan kutadi*", degan chaqirig'iga jalb etadi. Bu shior so'zsiz o'z davrining jangovor chaqirig'i, yozuvchining o'z fuqarolik burchini vijdongan ado etishidagi oliy mezon edi. Boshqacha qilib aytganda, sovet yozuvchisi ustqurmaning faol elementi sifatida o'z vazifisiga sodiq xizmat qilishi kerak edi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi. Lekin o'sha suronli 40-yillarda «Buyuk Vatan» tushunchasiga ega o'zining azaliy orzusi o'z mustaqilligiga erishgan xalq o'zbeklarga bugungi kunda qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? Shu chaqirig o'sha davrdagi "Vatan tushunchasi bugungi kunda ham o'z mohiyatini

saqlab turibdimi? Buning uchun dars jarayonida faqatgina darslik materiali bilan kifoyalanib qolmasdan, mavzuga doir qo'shimcha adabiyotlar, turli metodik vositalardan, jumladan ekran qo'llannmalari, magnitofon yozuvlari, teledarslar, mavzuning mazmuniga qarab muzey darslari yoki seminar darslaridan maqsadga muvofiq foydalanmog'i kerak.

Fashizmga qarshi urush yillaridagi tarixiy fakt va ra-qamlar tarix fani o'qituvchilari uchun asosiy manbalarga aylanib qoldi. Tarix fani o'qituvchisi "Ulug' vatan urush yillarida O'zbekiston (1941-1945)" degan mavzuni bayon qilar ekan, O'zbekiston urush yillarida armiyani ta'minlovchi eng muhim aslahaxonalardan biriga aylanganligi, frontga harbiy texnika kiyim-bosh va oziq-ovqat mahsulotlarini tobora ko'proq miqdorda y'e tkazib berib turganligi, sobiq ittifoq xalqlari do'stligining g'olibona kuchini butun dunyoga namoyish qilganligini aytib, general L. A. Govorovning 1941-yil dekabrda O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining Raisi Yo'ldosh Oxunboboev boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan qilgan suhbatda aytgan quyidagi so'zlarini keltiradi: "Qabih dushman Moskvaga yaqinlashib, Moskva xavf ostida qolganda. bizlar o'z pozitsiyamizda mustahkam turdik. Biz butun Sovet xalqining shu jumladan o'zbek xalqining doimiy yordam va qo'llab quvvatlashini sezib turdik. Qorli Moskvadan quyoshli O'zbekistongacha-minglarcha kilometr. Ammo bu masofa bizni ajrata olmaydi. Biz bilamizki, Siz bizlarga yaqin va azizdirsizlar, biz ham sizga yaqin va azizdirmiz".¹⁵

Urush yillaridagi tarixiy voqeа va hodisalardan foydalanib Vatanimiz tarixini o'qitish va o'rgatishda ana shu yillarda yaratilgan tarixiy-badiiy adabiyotlarning roli ahamiyatlidir.

Tarix fani o'qituvchisi yana "Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston

(1941-1945yy)" mavzusini bayon etishda urush yillarida yozilgan tarixiy, badiiy adabiyotlardan foydalanishi, O'zbekiston xalqlarining butun qardosh xalqlari bilan yonma-yon turib frontda dushmanga qarshi olib borgan fido-korona kurashning yorqin manzarasini o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalantirishga yordam beradi. Masalan, qardosh xalqlar, Shu jumladan, O'zbekiston xalqlari ham urushning birinchi kunidan boshlab dushmanni tor-mor etishga butun kuchini safarbar etganligini o'quvchilarga his ettirishi uchun H. Olimjonning "Qo'lingga qurol ol" she'ridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yoki R Fayziyning "Hazrati inson" romanidan foydalanish o'zbek xalqining mehnatsevarlik an'anasi davom ettirib, mamlakat ichkarisida fidokorona mehnat qilganligini, frontni oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol aslaha bilan ta'minlab turganligini ko'rsatib berish imkonini beradi.

Tarixchi ustoz fashizmga qarshi urush yillarida o'zbek xalqining mehnatsevarligi va vatanparvarligi frontda, mamlakat ichkarisidagi mehnatdagina emas, balki boshqa ko'pgina sohalarda ham namoyon bo'lganligi haqida gapirib o'zbek oilalari ko'chirib kelingan 200 ming yetim bolalarni mehr-muhabbat bilan o'z quchog'iga olganligini tushuntirib beradi. Bu o'rinda turli millatga mansub bo'lgan 15 bolani tarbiyalab o'stirgan Toshkentlik temirchi Shoahmad Shamahmudovlar oilasi, 13 bolani asrab olgan Kattaqo'rg'onlik urush nogironi Hamid Samadov, 10 bolani o'z bag'riga olgan Samarqandlik kolxozchi ayol Fotima Qosimovalar haqida to'lib-toshib gapiradi. Urush vaqtida otanonasidan ajrab, y'e tim qolgan bolalarning o'zbek oilasida jonajon uyini topganligini aytib, Mirmuxsinning "Qadrdonlar" dostonidan, G. Gulomning "Sen y'e tim emassan" she'rlaridan parcha o'qib beradi.

Urushning dastlabki bosqichidan boshlab, respublikamizning barcha fanlar sohasidagi olimlar-tarixchilar, sharqshunoslar,

¹⁵ A. Sa'diev. xalqlari. Tarixini o'qitish O'zbekiston-Toshkent.O'qituvchi. 1993. -B. 137

adabiyotshunoslar, tilshunoslar, iqtisodchilar, faylasuflar o'z oldilariga urush davri qo'ygan vazifalarning ma'suliyatliligi va muhimligini tushungan holda ijodiy kuch g'ayratlarini fashizm mafkurasiga qarshi kurashga, gitlerchilarning bosqinchilik siyosatini fosh qilishga, xalqimizning yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Ikkinci jahon urushi haqiqatan ham insoniyat tarixidagi eng dahshatlari, eng qonli qirg'in bo'lgan edi. Bu urush xalqimiz boshiga qanday og'ir a'zob-uqubat va talofatlar, behisob qurbanlar keltirganini el-yurtimiz hech qachon unutmaydilar. Haqiqatan ham, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz fashizm balosiga qarshi kurashda jasur ajdodlarimiz ko'rsatgan mardlik va matonatni aslo yodidan chiqarmasligi kerak. Bu tarixiy haqiqatni ularga to'la yetkazish, farzandlarimizni milliy g'urur va iftixon ruhida, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda barcha mutasaddi tashkilotlar, olimlarimiz faol ishtirok etadilar, deb ishonaman".¹⁶

Urush yillarida O'zbekistondagi har bir oila nafaqat ma'naviy jihatdan, balki moddiy jihatdan ham qiyin ahvolga tushib qolgan edi. Shaharlarda oziq-ovqatga kartochka tizimi tashkil etilib, ishchi va xizmatchilarga kuniga 400-500 grammdan, oila a'zolariga 300-400 grammdan non berilardi. Rahbar hodimlar esa maxsus oziq-ovqat bilan ta'minlab turildi. Qiyinchiliklar jamiyatning ijtimoiy ruhiy holatida keskinlikni vujudga keltirdi. Biroq fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga ishonch aslo pasaymadi. Bulardan tashqari urush yillarida o'qishga jalb etilmagan maktab yoshidagi bolalarni urushdan keyingi yillarda ta'lim tizimiga tortish juda muhim masala bo'lib qoldi.

¹⁶ Shavkat Mirziyoev, Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasasi muqaddas. -Toshkent: O'zbekiston, 2017. 2-jild. -B. 318, 322.

Shuningdek urush yillarida ta'lim sifati ham juda pasayib ketgan bo'lib, haligacha o'tmishtagi qoloq uslublarda darslar olib borilgan edi. Bu esa o'quvchilarni o'qishdan bezdirar, o'qishni tashlash va sinfda qolish hollarini ko'paytirar edi. Masalan, 1945/46 o'quv yilida O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln 10 ming kishi o'rniqa 82. 3ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda qolgan o'quvchilar ham ko'p bo'lib, 1946 yilda u barcha o'quvchilarning 37% ni tashkil etardi. Ayniqsa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qishini tugatguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. O'qituvchi xodimlar masalasi ham jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o'quvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi urushda halok bo'lgan edi. Xususan, 1947 yilda respublika bo'yicha 4 ming o'qituvchi y e tishmasdi. Tuman xalq maorifi bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari muovinlarining 60% dan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega emasdi.¹⁷ Shu tariqa urush yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasida ham katta yo'qotishlar boshdan kechirilgan edi.

Shunday qilib o'zbek xalqining urush frontlaridagi jasorati, mamlakat ichkaridagi fidokorona mehnati ikkinchi jahon urushi g'olibona tugallanishining bevosita tarkibiy qismi bo'ldi.

Urushning og'ir yillarida o'zbek xalqining ma'naviy madaniy-ahloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo'ldi, ya'nir birinchi prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek "Bizning xalqimiz voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshdan kechirdi-mada-niyat, ilm-fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o'g'il-qizlaridan judo bo'ldi". Lekin "tarixning o'yini ham, omonsiz jangujadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham halqimizning insoniylik

¹⁷ O'zbekistonning eng yangi tarixi. -Toshkent: Sharq, 2000. 2-kitob. -B. 571.

tabiatiga dog' tushira olmaydi".¹⁸ O'sha davr siyosatiga qaramasdan, O'zbekistonning ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan yuksak vatanparvarlik namuna-lari bu xalqning ko'p ming yillik tarixga va ma'nnaviy, ilmiy-madaniy me'rosga ega ekanligi, umuminsoniy milliy qadriyatlarni bir xilda his qilishni ko'rsatadi.

Xullas, o'zbek xalqining fashizmga qarshi urush yillaridagi matonatini ifodalab, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev shunday degan edi: "Hech shubhasiz, bu dahshatli urush, butun insoniyat qatori, bizning xalqimizga ham mislsiz kulfat va yo'qotishlar olib keldi. Tarixning ana shunday beshafqat va suronli sinovlaridan yorug' yuz bilan, har tomonlama munosib o'tgan xalqimizga qancha ta'zim qilsak, har qancha tasannolar aytsak, arziydi, albatta"¹⁹

50-yildan e'tiboran sobiq Ittifoq va respublikamiz ijtimoiy-siyosiy va ma'nnaviy hayotining sog'lomlashtirishiga yo'l ochildi. Tarix fanini, maktab tarix ta'limi mazmunini shaxsga sig'inish va uning oqibatlaridan tozalashga kirishildi. Sobiq ittifoqdosh respublikalar va o'lkalar tarixini o'rqa-nish, maxsus darslik va qo'llanmalar yaratishga kirishildi, bu esa tarix ta'limi mazmunining boyishiga va tarbiyaviy yo'na-lishining kuchayishiga yordam berdi, yangi dastur va darsliklar yaratildi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini oshirish va ularning mustaqil ijodiy ishlashida darsliklarning roli ortdi.

Tarix ta'limining yangi mazmunini muvoffaqiyatli amalga oshirish va uning afzalliklaridan to'liq foydalanishga yordam beradigan usul va vositalarni ilmiy jihatdan asoslab berish kun tartibiga qo'yildi. Metodist (uslubchi)lar ta'lim usul va vositalarini tanlashda o'qitishning maqsadi, mazmuni va o'quvchilarning o'rganish faoliyatini

asos qilib olishni taklif etdilar, ilmiy tadqiqot ishlarining ko'pchilik qismi ham Shu yo'nalishda olib borildi. P. S. Leybengrub o'zining "Orta maktablarda tarix darslariga didaktik talabalar" (M., 1960) nomli kitobida tarix ta'limi usullari tasnifiga o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati xususiyatlarini, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tarixiy haqiqatni bilib olishga yordam beradigan vositalar (manbai)ni asos qilib olishni tavsiya qildi va o'qitish usullarini quyidagi guruhlarga bo'ldi:

1. Hikoya usuli.
2. Maktab ma'ruzasi.
3. Suhbat uslubi.
4. Ko'rgazmali uslub.
5. Darsliklar bilan ishslash uslubi va boshqalar.

P. S. Leybengrub o'qitish uslublari haqidagi o'z fikrini keyinchalik rivojlantirib, 1968 yilda Kievda ukrain tilida nashr qilingan "Tarix darsi didaktikasi" nomli kitobida o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish darajasi ta'lim uslublari tasnifiga asos qilib olinishi kerak, degan fikrni olg'a surdi.

A. A. Vaginning kitoblarida²⁰ tarix ta'limi usullari nis-batan to'liq va har tomonlama chuqur tasnif qilingan. A. Vagin tarix ta'limi usullari tasnifiga tarixiy voqealarni bilish manbalarini asos qilib oldi va ularni quyidagi uch guruhga bo'ldi:

- 1) og'zaki bayon usuli;
- 2) ko'rgazmali ta'lim usuli;
- 3) matn bilan ishslash uslub.

Prof P. V. Gora ta'lim usullari tasnifi xususida to'xtab, masalaga faqat didaktik nuqtai nazaridan emas, tarix uslubiy jihatdan ham

¹⁸ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istoriqloq, iqtisod, siyosat, mafkura -Toshkent O'zbekiston, 1996. 1-jild. -B. 77

¹⁹ SHavkat Mirziyoev. Buyuk ajdodlarimizning muqaddas xotirasi va jasorati oldida bosh egamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. 1-jild. -B. 396-397.

²⁰ A. A. Вагин. Методика преподавания истории в средней школе. -Москва: Просвещение, 1968. -С. 296-328.

yondashish, o'quv materiallarining ta'lif-tarbiya vazifalarini hamda uning mazmunidagi o'ziga xos xususiyatlarini ham e'tiborga olish zarurligini ta'kid-ladi.²¹ Uning 1970 yilda nashr etilgan "Tarix o'qitish metodikasi"²² dasturiga ham Shu printsip asos qilib olingan. P. V. Gora o'zining mazkur maqolasida ta'lif uslublarini quyidagi uch turga bo'ladi:

- 1) og'zaki o'qitish uslubi; bu uslub o'z navbatida ikki turga bo'linadi:
 - a) og'zaki ta'lif uslubi va
 - b) bosma matnlar asosida o'qitish uslubi;
- 2) ko'rgazmali ta'lif uslubi;
- 3) ta'limning amaliy uslubi.

O'qitish usullari va o'quvchilar tafakkuri faoliyatining turli shakllari o'rtasidagi o'zaro aloqa, ularning bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri asosida bir tizimdagи usullarning o'zaro bog'liqligi yuzaga keladi. Masalan, ko'rgazmali ta'lif usuli hech qachon o'qituvchining bayonisiz amalga oshmaydi, o'qituvchining og'zaki ta'lif usuli ham doimo ko'rgazmali vositalarga tayanadi. O'quvchilarning texnika vositalari, turli xildagi matnlar ustidagi amaliy faoliyati ham ta'limning ko'rgazmali hamda og'zaki usullari bilan bog'liq holda olib boriladi.²³ Mazkur usullar tizimi tarixni har tomonlama o'qitish va o'rganishda ham qo'llaniladi.

P. V. Gora ta'lif usullarini ham uch guruhga bo'ladi:

- 1) o'quvchilar xotirasida tarixiy faktlar to'g'risida obrazli tasavvurlarni shakllantirish;
- 2) tarixiy faktlar, yillarni mustahkamlash;
- 3) aniq tarixiy materialni o'zlashtirish va tarixiy materialni

²¹ ЗНП. В. Гора. К вопросу о системе методов и методических приёмов обучения. Преподавание истории в школе, 1966, №3, -С. 47.

²² П. В. Гора. Программы педагогических институтов. Методика обучения истории. –Москва: 1970.

²³ А. Сайдинев. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б. 35-138.

o'zlashtirish va tarixiy tushunchalarni shakllantirish usullari²⁴. Shuningdek, u ko'rgazmali uslubning roliga alohida ahamiyat berib, o'zinинг Shu muammogo bag'ish-langan kitobi²⁵ ko'rgazmalilikning usul va vositalarini ikki guruhg'a ajratadi:

- 1) tarixiy faktlarning tashqi belgi-larini ko'rgazmali asosda o'rganish hamda ular to'g'risida shakllangan tarixiy tasavvurlarning ko'rgazmali bo'lishiga yordam beradigan usul va vositalar;
- 2) tarixiy jarayonning mohiyatini chuqur ko'rgazmali asosda o'rganishni ta'minlaydigan usul va vositalar.

Ta'limning ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydigan usul va vositalar darsning maqsadi, materialning mazmuni va xususiyatiga qarab tanlanadi. P. V. Gora o'qitish usullarini hamda ko'rgazmali ta'limning usul va vositalari tasnifiga o'quvchilarning bilishdagi faolligi va mustaqilligini oshi-rishni asos qilib oladi. Tarix o'qitishni o'qituvchining o'qitish va o'quvchilarning o'rganish yoki bilish faoliyatidan iborat bir butun jarayon deb qaraladi. P. V. Gora o'quvchilarning dars materialini puxta o'rganib, bilib olish faoliyatiga o'qituvchining rahbarlik qilish, ularni ta'lif jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishda ko'rgazmali ta'lif metodikasining turli vositalaridan oqilona foydalanish, ularga turli vazifalarni bajartirishning ahamiyati katta ekanligini isbotlab berdi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini oshirish va unga o'qituvchining rahbarlik qilishini ta'minlaydigan vazifalar va topshiriqlarni shartli ravishda uch guruhga bo'ldi.²⁶

- 1) o'quvchilardagi mavjud bilimlarni esga olish uchun yordam

²⁴ П. В. Гора. К вопросу о системе методов и методических приёмов обучения. // Преподавание истории в школе, 1966, №3, -С. 47-52.

²⁵ П. В. Гора. Методические приёмы в средства наглядного обучения истории в средней школе. –Москва: 1971г.

²⁶ П. В. Гора. Методические приёмы и средства наглядного обучения истории в средней школе. –Москва: 1971, -С. 50-51.

- beradigan;
- 2) ularni mazmunan boyitib rivojlantirish uchun yordam beradigan;
 - 3) muammodan iborat topshiriqlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tahlil etiladigan bo'lsa, talabalarni tarixiy uslubiy fikrlar, shu jumladan ta'lif usullari haqidagi fikrlar taraqqiyoti bilan tanishtirish ularni tarix, xususan O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishning nazariy asoslari bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin tarixni o'qitishga bo'lgan talab yanada ortdi. Tarixchi olimlarimiz, metodistlarimiz tomonidan o'qitishning zamonaviy usullarini ko'rsatib bera oladigan kitoblar yaratildi. Jumladan, dotsentlar T. Toshpo'latov, Ya. X. G'afforovlar tomonidan yaratilgan "Tarix o'qitish metodikasi", hamda dots G'afforov Ya. X. tomonidan yaratilgan "Tarix o'qitish metodikasi" kitoblarida²⁷ tarix o'qitish metodikasi samaradorligini oshirish muammolari amaliy jihatdan umumlashtirilgan va O'zbekiston Respublikasining ilg'or maktablari hamda oliy o'quv yurtlari tarix o'qituvchilarli ish tajribalarida sinab ko'rilgan eksperimental, ilmiy-metodik va pedagogik ish tajribalarini tahlil etilgan.

Ushbu darsliklarda tarix darslari va unga bo'lgan zamonaviy talablar, tarix darslari samaradorligini oshirish yo'llari, ta'lif-tarbiya tizimida tarixni o'rganishga integratsion yondashish hamda tarix ta'limida yangi pedagogik texnolo-giyalardan foydalanish kabi masalalar alohida o'rinn egallagan. Bugungi kunda mamlakatimizning bozor iqtisodiga o'tishi munosabati bilan o'quvchilarni o'qishga qiziqishlarini borasida turlicha yondoshish, qiziqishlarini bir xil

emaslikdari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ularni o'rab turgan, ijtimoiy muhit yoshlarimiz dunyoqarashlarida o'z tamg'alarini qoldirmoqda. Bunday sharoitda tarix o'qituvchisining vazifasi sinfa mavjud bo'lgan barcha o'quvchilar yoshlar diqqat-e'tiborlarini ularga nisbatan differentsiatsiya usulini qo'llab, bir vaqtida ularning hammalari uchun maqbul bo'lgan tarixiy materialni bayon qilish bilan, ikkinchi tomondan har bir o'quvchining qiziqishlarini hisobga olgan holda, unga alohida yondoshmoqqa harakat qilmog'i kerak.

Dars jarayonida o'quvchilar faoliyatlariga differensial yondoshish qanday nazorat etilsa, ularni uy vazifalarini bajarishlarini nazorat etish ham o'sha tamoyil asosida amalga oshirib borilmog'i kerak.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tarix darsining mazmuni mustaqil O'zbekiston Respublikasining yoshlar orasida olib boriladigan maskuraviy ishlari vazifalariga mos kelishi, tarix o'rganishning turmush bilan aloqasini bog'langanligida, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat bo'lishini nazariy va amaliy ishlari bilan bog'lab olib borishga yo'naltirilgan bo'lmog'i kerak.

Tarix darslari o'quvchi yoshlarda shunday qat'iy tushunchani mustahkam shakllantirmog'i kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XV sessiyasida alohida qayd etilganidek «*Kelajak o'z-o'zidan kelmaydi. U bugungi mashaqqatli mehnat bilan yaratiladi. Bugun yaratgan narsamiz kelajakka ham o'tadi. Agar bugun shoshilib nimanidir unutsak, kelajak avlodlar o'sha narsadan mahrum bo'ladilar. Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Ularni pisand qilmagan jamiyat pirovard-oqibatda tanazzulga yuz tutadi*», degan konsepsiya bilan yo'g'rilgan bo'lmog'i kerak.

Tarix darslari samaradorligini oshirib borish uchun o'qituvchi tarix fanining rivojlanib borishini sistemali ravishda kuzatib bormog'i

²⁷ T. Toshpo'latov, Ya. G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. -Toshkent: TURON-IQBOL, 2010. Ya. X. G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. -Toshkent: TURON-IQBOL, 2020.

kerak. Ayniqsa, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida saboq olayotgan yoshlarni tarixdan chop etilayotgan yangi asarlar mazmuni bilan tanishtirib borishlari hamda ularning tarixni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishlari lozim.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tarix darslari samaradorligini oshirib borishda o'qituvchiga quyiladigan talablarni aniqlang
2. O'quvchilar xotirasida tarixiy faktlar to'g'risida obruzli tasavvurlarni shakllantirish texnologiyalarni aniqlang
3. O'quvchilarning bilish faoliyatini oshirish metodikasini aniqlang
4. tarix ta'limi usullari aniqlang

Glossary

Avtod – umumiy ajdodlaridan qarindoshlik munosabatlari bilan bir xilda uzoqlashgan kishilar guruhi.

Agitasiya – (lot. agitation – harakatga keltirish) – og'zaki, yozma, matbuot yoki boshqa faoliyat orqali orqali ommanning siyosiy faolligini uyg'otish.

Anarxiya – (yunoncha anarchia - hokimiyatsizlik) – bir yoki bir necha shaxslar guruhining hokimiyatga bo'yusunmasligi natijasida kelib chiqadigan tartibsizlik.

Assosiatsiya – (lot. Association – birlashma, qo'shilma) – umumiy maqsadga erishish uchun tuzilgan uyushma, ittifoq, guruh.

Axborot – ob'yektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zini saqlash, qayta ishlash va ta'sir natijalari (izlari) dan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyasi – bu axborotni tanlash, jamg'arish, tahlil qilish va foydalanuvchiga yetkazib berishga yo'naltirilgan hisoblash texnikasi, elektr aloqa, informatika imkoniyatlarining uyg'unligidir.

Axborot erkinligi – fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, so'z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo'lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi.

Alloma – O'rta Osiyo xalqlarida ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan kishi, bilimdon shaxs alloma deb yuritilgan.

Analiz – bu bilish predmetini fikran qismlarga ajratish, uning alohida tomonlari, xossalari, belgilarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni ajratish,

ob'yeqtning mohiyatini anglab yetish maqsadida uning turli xillarini va hokazolarini aniqlash demakdir.

Aniqlashtirish – (qisqa va lo'nda ifodalash) – bir butun, o'zaro sababiy bog'liq, ko'p tomonlama, keng qamrovli va murakkab hodisani aniqlash.

Axborot sohasi – maqsadga erishish uchun axborotlarni saqlash, qayta ishslash vao'zatish metodlari va vositalari yig'indisiga aytildi.

Axloqiy tarbiya – o'quvchilardan umuminsoniy axloqiy tamoyillarga sодиқ bo'lishdek, jamiyat axloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan holda o'z hatti – harakatlarini tanlay olish mahoratini, axloqiy tafakkur va kundalik odatdagi axloqiy hatti – harakatlarining mustahkam tizimini shakllantirish.

Aqliy tarbiya – tabiatan berilgan aqliy kuch, sezgi, ruhiy holat, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo'ya olish hamda ko'zlagan maqsadiga erishish qobiliyatini shakllantirish.

Anjuman – keng doirada o'tkaziladigan yig'in, yig'ilish, kengash va majlislar.

Bilim olish huquqi – fuqarolarning ijtimoiy huquqi. Davlat tomonidan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 41-moddasida: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" – deb qayd etilgan. Ushbu Konstitusiyaviy tamoyildan kelib chiqib, 1997 yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va qonunni hayotga tadbiq etish uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqilgan".

Briefing (ingl. briefing – yo'l yo'riq, brief – qisqa, qisqacha xulosa) – xalqaro kelishuvlar, uchrashuvlar va konferensiylar jarayonida tadbir qaytarzda o'tayotganligi, tomonlarning pozisiya va qarashlarini ommaga

yetkazish uchun hukumat rahbari va uning yordamchisi yoki matbuot xizmatchisi bilan ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda jurnalistlar bilan o'tkkazadigan qisqa uchraShuv.

Bashorat – ehtimollik bilan bog'liq ilmiylikka asoslangan u yoki bu hodisaning istiqbol, ehtimolli holatlari haqidagi qarashlar.

Bilimning kengligi – hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'ra olish qobiliyati, muammoni keng ko'lamda ko'ra olish.

Bilish – olamning inson ongidagi in'ikos etish jarayoni inson o'zini qamrab olgan atrof muhit to'g'risida bilish va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli natijasi bilim bo'lib, har qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro'y beradi.

Biografik metod – (yunoncha bios – hayat, grapho - yozayapman)- shaxs hayat yo'lini tadqiq etish, tashxislash, tahrirlash, rejalashtirish uslubi.

Genetik metod – jarayonlar va voqealarni ularning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish, tadqiq qilish usullari.

Gipoteza – o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shakli.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui.

Global muammolar – (fr. global – umumiyl, lot. globus – yer shari) – bitta davlat yoki mintaqanigina emas, balki butun yer y o'zi, insoniyat hayoti va kelajagiga dahldor umumbashariy muammolar.

Grant – (ing. grant – hadya; ko'mak; stipendiya) – davlat tomonidan biror ilmiy tadqiqot, tajriba – konstukturlik ishlarni bajarish uchun yoki boshqa

maqsadlarga ayrim shaxslar, jamoalar, tashkilotlarga beriladigan maqsadli o'rin yoki pul mablag'i.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab, berilgan vaqtida bir xil yoshdag'i o'quvchi yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulot.

Dars ishlamasi – mavzuning nomi, darsning maqsadi, kutilayotgan natija, asosiy g'oya, tayanch tushunchalar, darsjihozlari, dars rejasi va hokazolar.

Darslik – yuqori malakali va tajribali olim va pedagoglar tomonidan tuzilib, y o'z foiz namunaviy dasturdagi g'oyalardanhamda didaktik tamoyillardan kelib chiqib yaratilgan kitob.

Didaktik materiallar – o'qituvchi tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo'lib, u dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladigan asos.

Diqqat – faoliyat ko'rsatish maqsadida tanlangan ob'yektga (jumladan, muayyan fanga) ongning jamlanish holati.

Dialog – murakkab, rang-barang mazmunga boy va tushunish bilan uzviy bog'liq o'zaro aloqa shaklidir. Dialogda insonning ikki tabiiy intilishi: aytish va o'zini eshitishlariga erishish, shuningdek, tushunish va tushunilishiga intilish ro'yobga chiqadi.

Didaktika – (yunoncha «didacticos» so'zidan olingan bo'lib, o'rnak, saboq bo'lishlik kabi mazmunlarni anglatadi) – pedagogikaning ta'lif jarayonida tarbiyalash nazariyasini ishlab chiqadigan qismi hisoblanadi.

Ilmiy fakt – faqat muayyan tarzda qayd qilingan, belgilangan hodisalar va voqealar.

Ilmiy muloqot – o'z hamkasblari bilan bevosita va bilvosita muloqotga kirishish.

Innovasiya – ijtimoiy amaliyotda sezilarli o'zgarishlar tug'diradigan turli xil yangiliklar yaratish va tadbiq etish.

Intuisiya – zakovatning barcha belgilarini faol ishga solgandan keyin voqealar rivojini oldindan ko'ra olish qobiliyati.

Insayt – oydinlashuv. Muammoning yechimi, ba'zan birdan yorqin yulduzday yalt etib paydo bo'ladi.

Istisno metodi – tarkibiy qismlarning katta guruhlarining uchinchi istisno qonuni asosidagi bosqichma bosqich istisnoga asoslanadi.

Ijodiy qobiliyat – insonlarga kerak bo'lgan qandaydir yangilikni ochish yoki yaratish.

Ilg'or pedagogik tajriba – o'qituvchi tomonidan pedagogika tamoyillari hamda ta'lif-tarbiya berishning usul va uslublarini yaxshi o'zlashtirib, ularga ijodiy yondoshgan holda, nisbatan samaraliroq usul yoki uslub yaratish.

Kasbga yo'naltirish – jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda, tarbiyalanuvchiga ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishning ma'rifiy jarayoni.

Keys stadi metodi – tahliliy ko'nikmalarni ba'zi bir matnlarni jamoaviy muhokama qilish vositasida o'rganish bo'lib, bunda tasvirlanayotgan vaziyat "keys" deb nomlanadi.

Klassifikasiya – tushunchalarning mantiqiy hajmini ko'p darajali, tarmoqlarga ajratilishi, ob'yektlarning mavjud belgilari bo'yicha tartibga solinishi.

Kognitiv xarita – muammoli vaziyatning harakteri va tuzilmalarini belgilashga qaratilgan tadqiqot ob'yektidagi sabab-oqibat aloqalarining jadvalli aksi.

Konstruktiv tahlil – tizimli tahlil qilish uning maqsadlaridan boshlanadi va tizimga nisbatan funksiyasi orqali olib boriladi.

Konsepsiya – biror sohani rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli loyiha yoki soha taraqqiyotini asoslab berishini o'z ichiga olgan qarashlar majmui.

Ko'rgazmalilik – "yuz marotaba eshitgandan bir marotaba ko'rgan yaxshi" tamoyilden kelib chiqib, bilim berishda turlituman ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish.

Kuzatish metodi – kishining harakterida namoyon bo'ladigan turli holatlarni hisobga olish, biror bir jarayonni kechishiga oid axborot olish.

Klaster tahlil- (ingl. cluster analysis) ko'p qirrali statistik jarayon bo'lib, bir turdag'i qiyosiy guruhlarni tartibga solishmaqsadida ma'lumotlarni yig'ish va ob'yektlar bo'yicha tanlashni ko'zda tutadi.

Liderlik – guruhdagi shaxslar aro munosabatlar tizimida hukmonlik va bo'ysunuvchanlik, hokimlik va qaramlik munosabatlaridir.

Ma'lumot – o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, o'quvchida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligi, bilish qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shahsiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobjiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

Metod (usul) – muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy va nazariy o'zlashtirish (bilish usullari yoki jarayonlari majmui).

Metodika (uslub) – maqsadga yetishishdagi qo'llaniladigan usullar tizimi.

Metodologiya – (yunoncha "metod", "metodos" – tadqiqot etish yo'li, nazariyasi, ta'limoti degan ma'noni anglatsa, "logos" – ta'limot deganidir). Metodologiya tushunchasi ikki asosiy tushunchadan iborat bo'lib, birinchidan, fan sohasida amalga oshirilib boriladigan ma'lum yo'llar, operasiyalar tizimiga aytilsa, ikkinchidan, shu tizim to'g'risidagi ta'limot, metod mnazariyasiga aytildi.

Me'yor – ob'yeqtning sifat va miqdoriy jihatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmun va shakl imkoniyat va voqelik o'rta sidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.

Mahorat – o'zlashtirilgan bilim va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (Shu jumladan, dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Malaka – kishi egallagan bilimlarini ko'nikma bosqichidan o'tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi.

Malaka – past, o'rta va yuqori bo'lishi mumkin.

Motivasiya – inson hulq-atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmui.

Milliy g'urur – insoniyatning har qanday faoliyat jarayoniga rag'bat vazifasini o'taydigan ijtimoiy sifat.

Ma'naviy qadriyatlar – kishilar ma'naviy faoliyati maxsuli, bilishning murakkab jarayoni natijasida y o'zaga kelganbilim, qarash va malakalar samarasasi.

Milliy qadriyatlар – muayayn xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlari, ahloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlari vahakozolar.

Nazariya va amaliyot birligi – bilim berishda nazorat bilimlarning amaliyotda ishlashini, ya'ni uning hayot bilan, amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib berish.

Nazariya – bu tabiat va jamiyat qonunlarining tushunishgagina emas, balki unga faol tasir etib aqliy asosda o'zgartirishlar kiritish haqidagi ilmiy g'oyalar to'plami.

Nanotexnologiya – mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va Shunga o'xshash hashoratlar tabiiy nano jismlardir.

Nomenklatura – (lot. nomenklatura–nomlar, ismlar ro'yhati) – 1) fan texnika va boshqa biron-bir tarmoqda ishlataladigan nomlar va atamalar majmuasi yoki ro'yhati; 2) biron-bir rahbar organ tomonidan tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslar va ularning ro'yhati.

Onglilik va faollik – bilimni talabalar tomonidan ongli ravishda va faol qatnashib egallashlik.

Odoblilik – ijtimoiy sifat bo'lib, inson fazilatlaridan hisoblanadi.

Oraliq nazorat – bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning bilishligini aniqlash.

Optimallashuv – tizim faoliyatining maksimal yoki minimal ahamiyatini ta'minlaydigan eng yaxshi muqobil yo'llarini qidirish jarayoni.

Og'zaki ta'lif metodlari – hikoya, suhbat, ma'ruza.

Pedagogik jarayon – o'qituvchi yoki pedagog, o'quvchi yoki talaba orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish-o'rganish va tarbiyalash zaylida kechadigan munosabatlar tizimi.

Pedagogik tamoyil (prisipler) – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, Shuningdek, o'quv-qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy hususiyatlari o'rtasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

Pedagogik muhit – ta'lif tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo (o'qituvchi–o'quvchi hamda o'quvchilar orasida) munosabatlar majmui.

Pedagogik muloqat – ta'lif-tarbiya bilan bog'liq muloqat turi.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lif jarayonlarida shaxskamolotini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan va tanlangan ta'sir ko'rsatish vositalarining xususiyati.

Reyting–baholash, tartibga keltirish, tasniflash, biror hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Reproduktiv (nomahsul) – fikrlashning bir turi.

Rivojlanish tamoyili – bu miqdoriy va kompleks harakteristikalarini olishga yo'naltirilgan.

Referent guruh – (lot. referens-xabar beruvchi)-kishi uchun e'tiborli bo'lgan, qadriyatlari, fikrlash xulq-atvor normalari va qoidalarini so'zsiz tan oluvchi va ularni o'zi uchun qabul qiluvchi kishilar guruhi.

Sabr-qanoat – insonning yuqori ijtimoiy sifati bo'lib, inson ruhining yuksak darajaga erishganidan dalolat beradi.

Saxovatlik – bu xislat insoniyat erishgan eng yuqori ijtimoiy sifat bo'lib, barcha fazilatlarga erishgan odamda namoyon bo'ladi.

Sintez – predmetning turli unsurlari, tamonlarning yagonayaxlitlikka birlashtirish.

Sifatli tahlil – tizimning sifat xususiyatlari, o'ziga xos belgilari nuqtai-nazardan tahlil qilish.

Suhbat usuli – nutq muloqati yordamida bevosita yoki bilvosita ma'lumot olish.

Talant – inson qobiliyatlarining, eng avvalo u yoki bu turdag'i faoliyatda o'lkan yutuqlarga erishishini ta'minlovchi maxsus yuksak rivojlanish darajasi.

Tarbiyaning maqsadi – jamiyatning alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati ideal talablarni, o'ziga xosligi va fazilatlarini, hayotga munosobatining, aqliy, jismoniy, aqloqiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir.

Ta'limni demokratlashtirish – muayyan jamiyat va aniq shaxs ehtiyoji hamda imkoniyatidan kelib chiqib, ma'lum bilimlar turi va hajmini erkin holda tanlab olish.

Ta'lim – ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan "o'qituvchi-o'quvchi-o'qituvchi" muloqati bo'lib, uning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiyl shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.

Ta'lim uslubiyati (metodikasi) – xususiy didaktika yoki ta'limning xususiy nazariyasini o'zida namoyon etadigan fanning tarmog'idir.

Ta'lim (o'qitish) usullari – ta'limning uslubiy tarkibiy qismlarini tashkil etgan bo'laklardan iborat.

Ta'limning ko'p tarmoqli turlari – birlamchi, xronologik,reproduktiv, alohida tanlangan, omillar va taqqoslash.

Test – standartlashtirilgan sinov bo'lib, uning yordamida u yoki bu xildagi psixik jarayon bo'lib, shaxsni bir butunligicha o'rganish mumkin bo'lgan usul.

Usul – maqsadga yetishishda muayyan to'siqni yengish uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlar.

Uslub (yo'l) – maqsadga etishda qo'llaniladigan usullar tizimi.

Umum o'rta ta'lim – Umum o'rta ta'lim maktabi, o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim va o'rta ta'lim degan bosqichlardan iborat.

Faoliyat – harakatlar va operasiyalar tizimida amalga oshiriladigan ehtiyojlar hamda sabablarga javob beradigan, bironta maqsadga yo'naltirilgan faolilik.

Fanlarni o'kitish metodikasi – har bir fanning mazmunini aniqlab, ketma-ketligini belgilab, tanlangan materiallarni o'rganishning shakl va metodlarini hal etadi. Masalan, Tarix, Falsafa, va hokazolar.

Shaxs – odamning jamiyat a'zosi sifatida o'z-o'zini anglash va tafakkurini, faoliyatining ob'yekтивигини, muloqat hamda biluvchanlikni taShuvchanligidir.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Estetik ta'lim-tarbiya – insonda zavq uyg'otuvchi va uni harakat, shijoat va qahramonliklarga undovchi barcha turdag'i ko'rinishlar, holatlar, hodisalar va badiiy estetik tafakkorini shakllantirish.

Empirik tadqiqot metodlari – so'rov, kuzatuv, qiyoslash, o'lchash, tajriba.

O'rganish-ta'lism jarayonining tarkibiy tuzilishlarida o'quvchining shaxsiy faoliyatini.

O'quv materialini tanlash – rejaga qarab tanlash prinsipiga rioya qilinadi.

O'quv kursi orqali – metodik yondaShuv xaqida bilim olish, metodologiyani, Shuningdek muommali vaziyatlarni tasvirlashni o'rghanish.

Qaror qabul qilish – inson faoliyatidagi maxsus jarayon.

Qaror qabul qilish metodlari – uch guruh neformal, miqdoriy, sifatiy usullar mavjud.

Qonun – bu atama aslida insoniyat tomonidan yaratilgan tartib va qoidalarga nisbatan ishlataladi.

Qoida – bu inson faoliyat tartibining so'ngi bosqichi bo'libob'yektiv qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan tamoyillarning yoki bu harakatlarni chuqurlashtirib, konkretlashtirib beruvchichora va tadbir tartibidir.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2019. 1-jild. -B. 29.
2. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk ajodolarimizning muqaddas xotirasi va jasorati oldida bosh egamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2019. 1-jild. -B. 396-397.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasi muqaddas. -Toshkent: O'zbekiston, 2017. 2-jild. -B. 318, 322.
4. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. -Toshkent: O'zbekiston, 2019. 3-jild. -B. 147.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi O'zbekiston Milliy axborot agentligi. // 28. 12. 2018/ <http://www.uzar.uz>

6. I. A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - Toshkent: O'zbekiston, 1992. -B. 22.

7. I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. -B. 77.

8. I. A. Karimov. Yangicha fikrash va ishlash davr talabi. -Toshkent: O'zbekiston, 1997. -B. 259.

9. I. A. Karimov. Tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbat. // Muloqat, 1998. №5. -B. 15.

10. I. A. Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. -Toshkent: O'zbekiston, 2015. -B. 110.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2016.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to'g'risida"gi Qonun. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: Sharq. 1997.266

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli. //Xalq so'zi, 2017 yil, 8 fevral.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdag'i "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2829 sonli. //Xalq so'zi, 2017 yil, 15-mart.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 sonli. // Xalq so'zi, 2017-yil, 21-aprel.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017- yil 22-maydag'i "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli Qarori. // Xalq so'zi, 2017-yil, 23-may.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3304 sonli Qarori. // Xalq so'zi, 2017-yil, 1-oktabr.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish qonsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 sonli. 2019 yil, 29-aprel. www.lex.uz

III. Asosiy adabiyotlar

1.Архангельский Н. П. Сведения с состоянием изданий учебной литературы на Туркестанской АССР для школ узбекских, казахских, туркменских, таджикских.-Ташкент: 1922.

2. Архангельский Н. П. О преподавании истории в Среднеазиатской школе. -Ташкент: 1922..

3. Azizzodjayeva I. Pedagogik texnologiya va pedagogic maxorat. - Toshkent: Cho'lpox, 2005.

4. Бернадский В. Н. Методы преподавания истории в старших классах. -Ленинград: 1939.

5. Бабанский Ю. К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиши методлари. -Ташкент: Ўқитувчи, 1990.267

6. Бендириков К. Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 г). -Москва: 1960.

7. Берулова М. Н. Теоретические основы интеграции образования. - Москва: Совершенство. 1998. -С. 192.

8. Вагин А. А. Методика преподавания истории в средней школе. Учение о методах. Теория урока. -Москва: Просвещения. 1968.

9. Вагин А. А. Типы уроков по истории. -Москва: 1957.

10. Голиш. Л. В. Фаол ўқитиши усуллари: мазмун танлаш, амалга ошириш. -Ташкент:ТАСИС, 2001.

11. Гора П. В. Программы педагогических институтов. Методика обучения истории. -Москва: 1970.

12. Гора П. В. Методические приёмы в средства наглядного обучения истории в средней школе. -Москва: 1971.

13. Гиттис И. В. Начальной обучение истории. Леувнград: 1939.

14. Дерябо С. Д., Ясвин В. П. Экологическая педагогика и психология. -Ростов-на Дону: Феникс, 2006, -С. 143.

15. Донской Г. М. Соотношение единичного, особенногообщего в учебниках истории. -Москва: 1981.

16. Jeltova G. M., Stupova T. A. Talabalar uzlusiz pedagogik amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish. -Toshkent: O'qituvchi, 1999.

17. Ziyamuxamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. -Toshkent: TIB-KITOB, 2009.

18. Yo'ldoshev J. Ta'lif yangilanish yo'lida. -Toshkent:O'qituvchi, 2000.

9. Карцев В. Г. Методика преподавания истории в начальной школе. -Москва: 1951.

20. Лейбенгруб П. С. Дидактические требования к уроку истории. - Москва: 1960.

21. Лейбенгруб П. С. Дидактические требования к урокуистории в средней школе. -Москва: 1980. -С. 114-115.

22. Lafasov M., Toshpo'latov T. Mustaqillik darslarini o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma. -Toshkent: O'qituvchi, 2001.

23. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent: O'zbekiston. 2000.268

24. Muxamedov G'. I., Xodjamqulov U., Toshtemirova S. Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri. - Toshkent: Universitet, 2020. - B. 102.

25. Милонова Н. П., Кононов Ю. Ф. и др. Историческое краеведение. – Москва: Просвещение, 1969.
26. Народное образование в СССР. Сборник документов в 1917- 1973 гг. – Москва: Просвещение, 1974.
27. Некрасов П. А. Изучение хронологии на уроках истории. – Одесса: 1960.
28. Озерский И. З. Начинающему учителю истории. -Москва: Просвещение, 1987.
29. Ortiqov. N. Ma'nnaviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. -Toshkent: O'zbekiston, 1997.
30. Poltarak D. I., Apparovich N. I., Dumin S. V. Metodika ispolzovaniya sredstv obucheniya v prepodavanii istorii. -Moskva: 1987.
31. Roziqov O. R. Didaktika. –Toshkent: Fan, 1997.
32. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: Moliya, 2003.
33. Студеникин М. Т. Методика преподавания истории и школе. – Москва: Владос, 2004.
34. Соловьев С. М. Чтения и рассказы по истории России. -Москва: Правда, 1989.
35. Стражёв А. И. Методика преподавания истории. -Москва:1992.
36. Стражёв А. И. . Методика преподавания истории. Пособие для учителей. –Москва: 1964.
37. Sa'diyev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1988.
38. Sa'diyev A. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish. – Toshkent: O'qituvchi, 1933.
39. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. X. Tarix o'qitish metodikasi. –Toshkent: Universitet, 2002.
40. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. X. Tarix o'qitish metodikasi. -Toshkent: Turon- Iqbol, 2010.
41. Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: Fan, 2006.269
42. Farberman B. N. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -Toshkent: Fan, 2000.
43. Чориев А. Проблемы народного образования и подготовки педагогических кадров Узбекистана. -Тошкент: Фан, 1997.
44. Shermuhamedova N. A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014.
47. Shamova T. I. Aktivizatsiya ucheniya shkolnikov. -Moskva:1982.
48. Ekologik ta'lidan barqaror rivojlanish sari. –Toshkent: Talqin, 2007.
49. Yakovlev N. M., Soxor A. M. Metodika i texnika uroke v shkole. – Moskva: Prosvesheniye, 1989.
50. Ergashev Q. O'zbekistonda xalq ta'limining rivojlanishi tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1998.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

- Axliddinov R., Saidov X. va boshqalar. Istiqlol va ta'lim: Xalq ta'limi mustaqillik yillarda (1991-2001 yy). -Toshkent: Sharq, 1997.
- Axmedov B. Amir Temur o'gitlari. – Toshkent: Navro'z, 1992.
- Агибалов Е. В., Донской Г. М. Методическое пособие по истории средних веков. – Москва: Просвещение, 1978.
- Андреевская Н. В. Очерки методики истории. – Ленинград: 1958.
- Aydarov E. B. O'quvchi yoshlarda tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish. – Toshkent: Ilm-ziyozakovat, 2019.
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Asosiy omillar. –Toshkent: Ves mir, 2001.
- Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999.

8. Jo'rayev N. Agar ogoh sen... -Toshkent: Sharq, 1998.
9. Ziyamuxammedov B. Pedagogika. -Toshkent: Turon-Iqbol, 2006.
10. Zununov A. (va boshqalar). Pedagogika tarixi. -Toshkent: Sharq, 2000.
11. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997.
12. Tursunov I. I. Xalq ta'limingining dolzARB muammolari. -Toshkent: O'qituvchi, 1990.
13. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. X. Tarix o'qitish metodikasi.-Toshkent: Universitet, 1999.
14. Tulenov J, Valiyeva S. Ilmiy ijod metodologiyasi. -Toshkent: TDPU, 2008.
15. Toynbi A. Postijenii istorii. -Moskva: 1994.
16. Xo'jamurodov I. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash. - Toshkent: Mehnat, 1991.
17. Hamdamov R., Begimqulov U., Toylaqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun. - Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
18. Xidoyatov G. A. Mening jonajon tarixim. -Toshkent: O'qituvchi, 1992.
19. Ergashev A., Ergasheva T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
20. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - Toshkent: Universitet, 1997.
21. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiysi. - Toshkent: 1996.
22. O'zbekistonning eng yangi tarixi. -Toshkent: Sharq, 2-kitob, 2000.
23. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. -Toshkent:Qomuslar Bosh tahririyati, 1997.
24. Qurbanov SH., Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi: Pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. -Toshkent: Fan, 1999.
25. G'afforov Ya. X. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. -Toshkent:Universitet, 2015.272

V. Gazeta va jurnallar.

Jurnallar

- //Muloqat. 1998. №5. (I. A. Karimov. Tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbat).
- Ekologiyadan davlat ta'lim standartlari. // Xalq ta'limi. 2000. №1.
- Toshpo'latov T. Milliy istiqlol mafkurasining hayotda toblangan dasturi. // Sharq yulduzi. 2003. №3.
- Azimboyev M. S. Tarixni o'rganishda "Og'zaki tarix (oral history) uslubi". // O'zMU xabarlari, 2013.
- G'afforov Ya. X. Ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning muhim jihatlari: "Important aspects of environmental education in the education system. EPRA International Journal of research & development (IJRD)" -India. 2020.
- G'afforov Ya. X. Tarix o'qitish usullari tizimini rivojlantirish va tarix ta'limi samaradorligini oshirish metodlari: Methods for developing a system of teaching history andincreasing the effectiveness of history teaching. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). -India. 2020.

Gazetalar.

- // Turkiston. 1992. 2fevral.
- // O'zbekiston tabiat. 1993. 3 fevral.
- // Ma'rifat. 1994. 11 may.
- // Toshkent oqshomi. 1998. 27 fevral.273

5. // Ma'rifat. 2003. 19 fevral.

6. // Ma'rifat, 2003, 19 mart.

7. // Ma'rifat. 2005. 13 avgust.

VI. Dissertatsiyalar.

1. Raximov J. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy o'lkaShunoslik manbalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi. . diss. -Toshkent: 1996.

2. Shonazarov Q. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini maktab o'quvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishga tayyorlash. Pedagogika fanlari nomzodi. . diss. -Toshkent: 2002.

3.Xodjayev B. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakko'rni modernizasiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish Pedagogika fanlari doktori uchun yozilgan diss. -Toshkent: 2016.

3. Davlatov O. Ta'labalardan axborot xavfsizligini ta'xminlash kompletentligini тарихий-маданий мерос воситасида ривожлантириш(PhD ilmiy dajasini olish uchun yuzilgan diss.Namangan:2018

4. Taylanova Sh. Pedagogika olyi ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish (pedagogika fanlari bo'yicha PhD ilmiy dajasini olish uchun yuzilgan diss.Samarqand: 2019

5. Yuldashev J. Tarixni o'qitish jarayonida talabalarda aksiologik dunyoqarashni rivojlantish metodikasi (pedagogika fanlari bo'yicha PhD ilmiy dajasini olish uchun yuzilgan diss.Namangan: 2022

6. Boymirzaev X. Innovation ta'lif muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish ("O'zbekistonda davlatchilik tarixi" fani misolida) pedagogika fanlari bo'yicha PhD ilmiy dajasini olish uchun yuzilgan diss.Namangan:2022

VII. Internet materiallar.

www. uza. uz

www. lex. uz

www. ziyonet. uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-Mavzu: Tarix o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari	5
2-Mavzu: Davlat ta'lif standartlari, dastur va darsliklarning tuzilishi va mazmuni	14
3-Mavzu: Tarix darslarida tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish.....	24
4-Mavzu: Tarix darsliklari va ularga qo'yiladigan talablar.....	30
5-Mavzu: Tarix o'qitishning tashkiliy shakllari. Dars, uning turlari va tuzilishi.....	38
6-Mavzu: Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi.	46
7-Mavzu: Tarix darslarida ta'lif vositalaridan foydalanish	56
8-mavzu. Tarix darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.....	71
9-Mavzu: Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb hunar ta'lif tizimida tarix fanidan o'quv metodik majmular	82
10-Mavzu: Ma'ruza va seminar darslarini tashkil etishning didaktik asoslari.....	89
11-Mavzu: Tarix darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	110
12-Mavzu: Tarix o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ..	131
13-Mavzu: Tarix fanidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar.....	142
14-Mavzu: Zamonaviy tarix darsiga bo'lgan talablar va uning yaratilishi	152
Glossariy	167
Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati	178

D.B. AXMADJANOV

TARIX O'QITISH METODIKASI

(O'quv qo'llanma)

Muharrir: X. Taxirov

Tehnik muharrir: S. Melikuziva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: I. Xakimov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/16. "Cambria" garniturasi, kegli 16. Offset

bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 15,75.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2628952.

Ilm nurli kitob MCHJda chop etildi.

+998 97 017 01 01

+998 94 673 66 56



ISBN 978-9943-8554-5-8

A standard one-dimensional barcode representing the ISBN number 978-9943-8554-5-8.

9 789943 855458